

# "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" *Konferensiyasi*



## ✓ **BIZNING YO'NALISHLARIMIZ:**

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

## ✓ **INDEKSLAYMIZ:**



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM)



+998 88 808 21 07

**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM  
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi:

30.04.2023 yil.

Ushbu to'plamda **«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 2-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir:** Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

**Mas’ul kotib:**

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Nashrga tayyorlovchi:**

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

## TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri,** Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri,** Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri,** Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.



**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



### **Boshqaruv jarayonlarida raxbarlik qobiliyatini rivojlantirish.**

Furqat pedagogika kolleji direktori X.M.Ergashev.

*Annotatsiya:* Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayonini qanday olib borilishi hamda raxbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun amaliy takliflar va tavsiyalar berilgan.

*Kalit soʻzlar:* Boshqaruv, raxbarlik, natija, ijtimoiy faoliyat, mas'uliyat.

Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi. Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avallo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur.

Boshqaruv jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- ma'lumotlar bazasini tayyorlash;
- prognozlashtirish;
- faoliyatni to'g'ri tashkil etish;
- xodimlarni halol va samarali mehnatga da'vat etish;
- mehnatlarini nazorat qilish;
- boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- maqbul qarorlar qabul qilish.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avallo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish tashkilot yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

"Rahbarlik" so'zi forsadan "yo'l boshchilik" ma'nosini bildiradi, rahbarlik tashkilot rasman mavjud joyda qaror topadi, liderlik esa psixologik munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Rahbarning faoliyati huquqiy me'yorlar bilan ta'minlanadi. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan maqsad yo'lida birlashuv yoki birlashtirilishi guruhni tashkil etadi.



Rahbarning vazifasi rejalashtirish, ishni tashkillashtirish va vazifalarni bo'lib berishdan iborat. Undan tashqari rahbar:

- rahbar rejalarni amalga oshirish jarayonini boshqaradi;
- rahbarga bo'ysunuvchi hodimlar bor;
- rahbarning e'tibori tizim va tashkillashtirishda bo'ladi;
- rahbar boshqaruv jarayonini tashkil qiladi, nazorat qiladi.

Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zgaralar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi.

Rahbarlarning ishchanlik va ma'naviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunda birinchi o'rinda e'tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, hololik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va e'tibor bilan munosabatda bo'lish turadi. Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qilish qobiliyati, shaxsan intizomli bo'lish, mehnatsevarlik, tashkilotchilik qobiliyati, jamoada intizomni yo'lga qo'yishi va saqlay bilish qobiliyati juda yuksak baholanadi.

Rahbarlik uslubi boshqarish metodlari bilan muayyan o'zaro aloqada bo'ladi. Boshqarish metodi ham boshqarish faolitini amalga oshirish usullari va yo'llari majmuasidan, boshqarish tizimiga samarali, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishidan, ya'ni boshqarish funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iboratdir. Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, metod bu tamomila ob'ektiv rahbarga bog'liq bo'lmagan mustaqil tushunchadir. Uslub garchi u ham ta'sir o'tkazish usullari majmuasidan iborat bo'lsada, metoddan farq qiladi, u yoki bu rahbarning sub'ektiv, individual xususiyatlari bilan belgilanadi. Qiyoslash uchun shuni aytish mumkinki, musiqa notasi hamma uchun bir xil bo'lsa-da, lekin musiqachilarning ijro etish uslublari har xildir.

Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin. Barcha rahbarlar xodimlarni rag'batlantirish maqsadida boshqarishning iqtisodiy metodidan foydalanishlari kerak. Lekin ba'zi rahbarlar individual rag'batlantirishga, boshqa bir rahbarlar esa jamoani rag'batlantirishga ko'proq mablag' ajratishga harakat qiladilar. Ba'zi rahbarlar chorak natijalarga, ikkinchi bir rahbarlar esa yillik ish natijalariga qarab mukofotlashni afzal ko'radilar. Buyruqlar va farmoyishlar chiqarish kabi boshqarishning tashkiliy-ma'muriy metodlaridan ham rahbarlar turlicha foydalanadilar. Bular bo'lmasa ham



buyruq chiqarish va aksincha boshqarish funktsiyalarini buyruqsiz ham muvaffaqiyatli bajarish mumkin. Buyruq chiqarib, uning bajarilishi ustidan aniq va amaliy nazorat o'rnatish ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda raxbarning boshqaruv jarayonlarida raxbarning qobiliyatini rivojlantirish uchun raxbarning faoliyatiga bog'liq bo'lib ish jarayonida raxbarning ma'naviy- madaniy xislatlari rivojlanib, takomillashib boradi. Raxbaroz xodimlarini to'g'ri boshqara olsagina jamoada xamfikrlik bo'ladi. Raxbar o'z jamoasini birlashtirib bir maqsad yo'lida birlashtira olishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar .**

1.Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2011.

2.A.Xolov. Boshqaruv qarorlari ijrosini ta'minlashda rahbar mas'uliyati. // - Toshkent: "Akademiya", 2014

3.N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. - Toshkent, -"Yangi asr avlod" 2016

4.Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti,

5.Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 29-32

6.Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 81-85..

7. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 14. – С. 213-217.



## THE STUDY OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Qodirova Dilnoza Xoliq qizi

Student of Media and Communication faculty, UzSWLU

Tel number: +998901808002

Email: [qodirovadilnoza9096@gmail.com](mailto:qodirovadilnoza9096@gmail.com)

**Annotation:** This article defines role of intercultural communication in society and analyses reasons why intercultural communication is important This works also includes information about the term culture. Intercultural communication is correspondence between individuals with contrasting social personalities. Culture and character are made, comprehended, and changed through intercultural correspondence. Business is almost borderless, so it's important to learn how to communicate effectively and respectfully with people from other cultures. Studying intercultural communication can also help you become more self-aware.

**Key words:** communication, essential skill, different countries, misunderstandings, culture, multiculturalism.

Intercultural competence covers a large field ranging from linguistic aspects all the way to social and cultural conventions. It's important to be aware that each culture may have different social conventions. American business partners, for example, prefer small talk to build a relationship first, whereas Brits may try humor, and Germans tend to get straight to the point without beating around the bush. Thais, on the other hand, think nothing of asking what are considered rather personal questions in the western world, for example about your marital status or job. Similarly, Americans like to use first names when addressing others, while in Austria, titles should be used to avoid sounding disrespectful. Germans will want to shake hands, while people in Thailand place their palms together at chest level and bow instead.

What makes intercultural communication so important?

There are many reasons why intercultural communication is important. First of all, effective intercultural communication is an essential skill for anyone working across different countries or regions in order to establish harmonious relationships and avoid conflict. It is essential to accurately and appropriately transfer information across countries and cultures. Executives in multinational companies, working either in their home country or as expats abroad, especially benefit from great intercultural communication skills to engage with international clients and employees.





Similarly, intercultural communication is also crucial for anyone working with people from other cultures to avoid misunderstandings and even offense. It's fair to say that intercultural communication is the foundation for successful international business in today's globalized world.

Intercultural communication is correspondence between individuals with contrasting social personalities. Culture and character are made, comprehended, and changed through intercultural correspondence. Business is almost borderless, so it's important to learn how to communicate effectively and respectfully with people from other cultures. Studying intercultural communication can also help you become more self-aware (Martin & Nakayama, 2010). Your way of thinking about culture is frequently "other focused," which means that the culture of the other person or group is what stands out to you. However, as you gain a deeper understanding of other cultures and points of view, the adage "know thyself" becomes more relevant. You may be able to see your culture through a different perspective by stepping outside of your familiar, comfortable frame of reference through intercultural communication. As you challenge your ethnocentrism, or tendency to view your own culture as superior to other cultures, you may also become more ethical communicators as you become more self-aware. The video below provides strategies for developing cultural competence and provides an explanation of cultural competence.

The term "culture" is used to describe this aspect of having a meaningful collective existence. Culture is the set of symbols that people use to come up with solutions to real-world problems. We understand that human experience is primarily cultural or meaningful in this context. The meanings that people give to things, actions, other people, and themselves are essential to human social life. People do not, in a sense, live in close proximity to the outside world and each other; Instead, the shared meanings provided by culture serve as their only means of indirect life. The experience of culture is this mediated experience.<sup>1</sup>

Patterns of learned and shared behavior that are cumulative and passed down through generations can be referred to as culture. The systematic and predictable ways that people in a culture act or think can be seen as patterns. People's thoughts, feelings, and beliefs are reflected in patterns. Cultural information adaptation, sharing, and storage produce these patterns. Cultural differences and similarities in patterns are possible. For instance, it is considered courteous to bring a small present to the home of a host in both India and Canada. Bringing a bottle of wine and expecting it to be

---

<sup>1</sup> Lustig, M.W. & Koester, J. (2007). Intercultural competence: Interpersonal communication across cultures (5th ed.) Shanghai, China . Shanghai Foreign Language education Press.



opened right away is more common in Canada. In contrast, gifts of sweets are more common in India, where they are frequently kept for later consumption.

People create culture by sharing with one another. Humans collaborate with others in their networks and share knowledge and skills. Culture is made up of the ways people share and the things they share. For instance, older adults recall a time when letters sent every few months were used to keep up long-distance friendships. Using instant text messages on smartphones, contemporary youth culture achieves the same objective.

Because parents and caregivers are the primary influence on young children, enculturation—the process by which behaviors, values, and norms are acquired—starts with them. Parental figures show kids, both straightforwardly and as a visual cue, about how to act and how the world functions. They remind children to say "Thank you" and encourage them to be polite. Kids are taught how to dress in a way that fits the culture.

The superficial signs that provide some indications of cultural expression are easy to mistake for culture. However, an adaptation of Edward Hall's original is called "Culture is much deeper than the eye can see," and it is frequently used to help people see the hidden depths of culture.

Despite the fact that they are frequently used interchangeably, it is essential to distinguish between the terms referring to culture.

First, intrapersonal communication, which may also be intracultural due to the fact that you only represent one culture, refers to communication with oneself. However, the majority of people are part of multiple groups, each with its own culture. Consider, for instance, a person who lives in Ontario but travels to Quebec for business. She starts to impart verbally in French. If she speaks French well, she might then find that she often thinks and talks to herself in that language. Certainly, the language in this instance reflects the culture and evokes lived experience, influencing how thoughts are formed and the expressions used. A conversation with oneself can occasionally reveal competing objectives, needs, wants, or values. How did you find out about those values or goals? In a similar vein, you might consider your struggle to be an intercultural conflict if you find it difficult to meet the demands and standards set by various groups.

Multiculturalism is both a way of thinking about and managing cultural diversity and the diversity of cultures within a single territory. Multiculturalism is a policy that aims to address the inevitability of cultural tensions while simultaneously promoting and acknowledging cultural differences. The following four issues are identified by opponents of multiculturalism:



Multiculturalism just cursorily acknowledges the equity, everything being equal; For instance, Canada only has two official languages.

Stereotyping occurs because multiculturalism forces minority individuals to assume the limited cultural identities of their ethnic group of origin.

Minorities who do not fully integrate into Canadian society are kept apart by multiculturalism's ideal.

Constitutional safeguards for individual rights are undermined by multiculturalism's emphasis on group rights.

"Cross-cultural approaches typically go a bit deeper, with the goal of being more diplomatic or sensitive," Old's College states. Through trade and cooperation, they account for some interaction and recognition of differences, which builds some limited understanding. For instance, they bow instead of shaking hands or give small but meaningful gifts. Sadly, not all of them are well-rounded comparisons; If we aren't careful, cross-cultural comparisons can lead to stereotyping and ethnocentric attitudes, in which we judge other cultures based on our own cultural standards.

On the other hand, societies that are intercultural show a deep understanding of and respect for differences. In an intercultural society, people grow and learn from each other. The society's interactions are based on acceptance rather than tolerance and result in the exchange of ideas and social norms for the purpose of developing deeper relationships. Intercultural relationships must be developed for sustained growth and cooperation for businesses to succeed in the global economy. Mindful intercultural communication, which will be discussed below, is one way to accomplish this.

Intercultural communication finally, refers to exchanges taking place between different cultures.

So, in a nutshell, intercultural communication relates to interactions among people from different cultures, while cross-cultural communication involves comparing interactions among people from the same culture to those from another culture.

### REFERENCES:

1. Notes in the history of Intercultural Communication: Foreign Service institute and the mandate for intercultural training: Quarterly Journal of speech: Vol 76, No 3
2. Berg, M. (2015). Collaboration in Intercultural Organizations according to the Cultural Dimension Models of Geert Hofstede.
3. Ellis, A. W., & Beattie, G. (2017). The psychology of language and communication. Routledge.



4. House, J. (2014). Moving across languages and cultures in translation as intercultural communication. In *Translational action and intercultural communication* (pp. 14-46). Routledge.
5. Kealey, D. J. (2015). Some strengths and weaknesses of 25 years of Research on Intercultural Communication Competence: Personal Reflections. *International Journal of Intercultural Relations*, 48, 14-16.
6. Lewis, I. (2017). *Social and cultural anthropology in perspective: Their relevance in the modern world*. Routledge.
7. Minnie K. Juneja (2016). *Why Effective Cross-Cultural Communication Matters In Business*.



## COVID-19 INFEKSIYASIDA ERKAKLAR BEPUSHTLIGI VA JINSIY ZAIFLIK

**Boyqulov To'rabek Temirovich**-TTA Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasida assistenti. Urolog-androlog.

[turabekboyqulov04@gmail.com](mailto:turabekboyqulov04@gmail.com)

**Ashurov Sirojiddin** -TTA Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasida assistenti. Urolog

**Tojimurodov Mansur**-TTA Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasida assistenti. Urolog

**Xonimqulova Saodat Yusupovna**- TTA Termiz filiali Ichki kasalliklar propedevtikasi, rehabilitologiya, xalq tabobati va endokrinologiya kafedrasida assistenti

### ANNOTATSIYA

Covid-19 virusi keltirib chiqargan pandemiya muammosi juda dolzarbdir. Nafas olish qiyinlashuvi sindromini keltirib chiqaradigan SARS-CoV-2 nafaqat o'pka to'qimalariga balki boshqa to'qimalarga nisbatan ham tajovuzkor ekanligi isbotlangan. Virusning patogen xususiyatlarini o'rganishda erkak jinsiy tizimiga ta'sirini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** COVID-19; SARS-CoV-2; yangi koronavirus infeksiyasi; erkaklarning fertilligi; erkaklarning bepushtligi; jinsiy disfunktsiya; oksidlovchi stress; spermal DNK parchalanishi; endotelial disfunktsiya

### KIRISH

Erkaklarning bepushtligi va jinsiy disfunktsiyasi (ED) butun dunyo bo'ylab muhim tibbiy-biologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa va AQShda jinsiy faol juftliklar orasida bepushtlik darajasi 15-25%ni tashkil qiladi. O'zbekistonda bepusht nikohlarning chastotasi 14-21% ni tashkil qiladi va mintaqaga qarab o'zgaradi. Bepushtlik tarkibidagi erkak omili 20 dan 50% gacha. Tadqiqotlar so'nggi o'n yil ichida erkaklar fertilligining progressiv pasayishini ko'rsatmoqda. Dunyoda jinsiy disfunktsiyaning tarqalishi o'rtacha 20-30% ni tashkil qiladi, turli mamlakatlarda sezilarli statistik o'zgarishlar mavjud. Shunday qilib, Buyuk Britaniyada 13%, Ispaniyada – 20%, Frantsiyada-30% va Belgiyada-60% gacha. D. Y. Pushkar epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra v Rossiya federatsiyasi hududida EDning tarqalishi respondentlarning- engil darajasi 71,3%, o'rtacha darajasi 6,6% va og'ir darajasi 12% da qayd etilgan. Yuqoridagilar erkaklar populyatsiyasining jinsiy faolligi va fertillik salohiyatini saqlab qolish muhimligini ta'kidlaydi. Covid-19 virusi



keltirib chiqaradigan pandemiya muammosi hali ham erkaklar salomatligi bo'yicha yaxshi tushunilmagan, ammo nafas olish qiyinlashuvi sindromini keltirib chiqaradigan SARS-CoV-2 nafaqat o'pka to'qimalariga, balki erkak genitourinar tizimiga ham tajovuzkor ekanligi allaqachon ma'lum. Hozirgi vaqtda SARS-CoV-2 ning erkaklar fertilligiga salbiy ta'sirining quyidagi mexanizmlari ko'rib chiqilmoqda: moyaklardagi AAF-2 retseptorlarining ifodasi, bu virusning moyak to'qimalariga tropikligini, oksidlovchi stressni faollashishini, endotelial disfunktsiyani, gipotalamus-gipofiz tizimining noto'g'ri ishlashini, gipertermiya ta'sirini va terapiyaning gametotoksik ta'sirini keltirib chiqaradi. Koronavirus infeksiyasi va jinsiy funktsiyaning yomonlashishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish katta qiziqish uyg'otmoqda. Hozirgi vaqtda SARS-CoV-2, nafas olish qiyinlashuvi sindromi va terapiyaning erkaklarning reproduktiv va jinsiy funktsiyalariga ta'siri darajasi ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning nisbatan kamligi sababli aniq baholanmaydi. Maqolada ommaviy adabiy manbalardan olingan eng dolzarb va muhim nashrlar haqida umumiy ma'lumot berilgan, yangi koronavirus infeksiyasining erkaklarning fertilligi va jinsiy funktsiyasiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar sintez qilingan.

### **MATERIALLAR VA METODLAR**

Sharh mualliflari PubMed va eLibrary ma'lumotlar bazalarida "COVID-19", "SARS-CoV-2", "erkaklarning fertilligi", "reproduktiv salomatlik", "sperma", "jinsiy funktsiya", "ereksiya" kalit so'zlarini qidirdilar.

### **NATIJALAR**

COVID-19 va erkakning reproduktiv funktsiyasi SARS-CoV-2 hujayralarga AAF-2 retseptorlari va hujayra transmembran serin proteaz 2 (TMPRSS2) kombinatsiyasi orqali bilvosita hujum qilishi ma'lum. Ta'sir virusli konvertning S oqsilini retseptor bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. S oqsilining S1 va S2 bo'linmalariga bo'linishi virusning maqsadli hujayraga kirishiga, virusli RNKning chiqarilishiga, so'ngra COVID-19 genomining replikatsiyasi va transkripsiyasiga yordam beradi. S1 domeni virusni xos hujayra membranasini topishda, S2 domeni esa virusning xos hujayra membranalari bilan birlashishi uchun mas'ul bo'lib, virus genomining kirib borishini osonlashtiradi. Virusning S oqsillari transmembran serin proteaz 2 bilan proteolitik qoplanadi. Ushbu retseptorlarning moyak to'qimalarida, ya'ni Sertoli, Leydig hujayralari va spermatogoniyalarda ifodalanishi, ehtimol, yangi koronavirus infeksiyasini boshdan kechirgan erkaklarda fertillikning doimiy pasayishiga olib kelishi mumkin. Ma'lum bir guruh odamlarda moyak to'qimalarida bu kombinatsiya topilmadi, bu erkaklarning bepushtligini rivojlanish ehtimoli juda past ekanligini ko'rsatadi. Biroq, tadqiqotlarga ko'ra, AAF-2 va TMPRSS2 kombinatsiyasi orqali



COVID-19 virusiga bilvosita ta'sir qilish moyak to'qimalariga ta'sir qilishning yagona mexanizmi emas. Shunday qilib, koronavirus infeksiyasi tufayli erkaklarning bepushtligi rivojlanishining mumkin bo'lgan sabablaridan biri oksidlovchi stressdir. SARS-CoV-2, boshqa nafas olish viruslari singari, sitokin ishlab chiqarishning ko'payishi va reaktiv kislorod turlari va reaktiv azot shakllarining ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Bugungi kunga kelib, oksidlovchi stress nazariyasi erkaklar bepushtligining patogenezini aniqlashda yetakchi hisoblanadi, chunki ma'lumki, reaktiv kislorod turlarini ishlab chiqarish moyak to'qimalarida ko'p bo'lgan mitoxondriyalar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Oksidlovchi stress ta'siri bilan bog'liq mitoxondrial disfunktsiyalar natijasida bir qator patospermiyalar kuzatiladi. Spermatogenezning dastlabki bosqichlarida oksidlovchi stress oligospermiyani keltirib chiqaradi va DNK mutatsiyalari va reaktiv kislorod turlarining bevosita ta'siri natijasida teratozoospermiyaning rivojlanishi hujayra tuzilmalarining shikastlanishi bilan bog'liq.

COVID-19 tufayli erkaklar bepushtligining rivojlanish mexanizmlaridan yana biri bu gipotalamo-gipofiz tizimining shikastlanishidir. SARSCoV - 2 inson tanasiga burun va og'iz yo'llari orqali kirib, keyin gematoensefalik to'siqni kesib o'tishi mumkin. Ma'lumki, miya hujayralari o'z membranalarida AAF-2 retseptorlarini saqlaydi, bu ularni SARS-CoV-2 uchun nishonga aylantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, markaziy asab tizimi moyak funksiyasini gormonal boshqaruvida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Gipotalamo-gipofizar-gonadal zanjiri teskari aloqa turi bo'yicha ishlaydi. Gipotalamus neyronlari tomonidan ishlab chiqarilgan gonadotropinni chiqaradigan gormon (gonadoliberin) gipofiz bezidan follikulastimullovchi gormon (FSG) va luteinlovchi gormon (LG) chiqarilishini faollashtiradi. Gonadoliberin darajasining pastligi FDG va LG darajasining pasayishiga, bu esa Sertoli va Leydig hujayralarining disfunktsiyasiga olib keladi. Shunday qilib, gipotalamo-gipofiz kompleksining shikastlanishi spermatogenezning buzilishiga olib kelishi mumkin. COVID-19da erkaklar fertilligini pasaytirishning mexanizmlaridan yana biri bu gipertermiya bo'lib, u COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 80% dan ortig'ida kuzatiladi. Gipertermiya davomiyligi cheklangan bo'lsa ham, sperma soni va/yoki harakatchanligining pasayishi, shuningdek DNK yaxlitligining buzilishi kuzatilishi mumkin. Sperma parametrlarini asl qiymatlariga qaytarish uch oygacha davom etishi mumkin. COVID-19 sabab bo'lgan isitma, virus bo'lmasa ham, eyakulyatsiya parametrlarini yomonlashtirishi mumkin. Jinsiy hujayralar rivojlanishi jarayonida tananing termoregulyatsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, yangi koronavirus infeksiyasi bilan birga keladigan yuqori harorat tufayli yorg'oq organlarining harorat rejimining o'zgarishi



spermatogoniyalarning degeneratsiyasi va yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin. J. Segars va boshqalar. Meyotik jinsiy hujayra apoptozi yuqori isitma bilan bevosita bog'liqligi haqida xabar bergan. Isitma SARS-CoV-2 bilan tez-tez uchraydigan alomatlardan biri bo'lib, disfunktsiyaga bilvosita ta'sir qilishi mumkin.

Og'ir COVID-19 bilan og'irgan bemorlar guruhida ikkilamchi sitokin bo'ron sindromi (gemofagotsitar limfogiostioz) rivojlanishi doimiy isitma va ko'p a'zolar etishmovchiligi bilan o'linga olib keladigan gipertsitokinemiya bilan tavsiflanadi. Ushbu bemorlarda sitopeniya va giperferritinemiya bilan qon zardobining maxsus sitokin profili mavjud. Sitokinlar, leykotsitlar infiltratsiyasi va gipertermiya ishtirokidagi ikkilamchi yallig'lanish reaksiyasi birgalikda Leydig hujayralarining yo'q qilinishiga, gipogonadizm rivojlanishi va fertillikning pasayishi bilan androgen sekretsiyasining buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, COVID-19 sabab bo'lgan sitokin profilidagi o'zgarishlar erkaklarning reproduktiv funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. COVID-19 ni davolash uchun ishlatiladigan ba'zi dorilar, shu jumladan antiviral va glyukokortikoidlar keltirib chiqaradigan nojo'ya ta'sirlar erkaklarning fertilligini kamaytiradigan potentsial xavf omillariga aylanishi mumkin. Masalan, COVID-19 yangi koronavirus infeksiyasini tashxislash va davolash bo'yicha vaqtinchalik ko'rsatmalarning 13-versiyasi favipiravir va glyukokortikosteroidlar birgalikda e'lon qilinishi erkaklar fertilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Preparat bo'yicha ko'rsatmalarga ko'ra, favipiravir homilador ayollar, shuningdek, homiladorlikni rejalashtirishda erkaklar va ayollar uchun qo'llash mumkin emas. Yuqoridagilar favipiravirni qo'llash davrida va preparatni qabul qilish tugaganidan keyin 3 oy ichida to'siqli kontrasepsiya vositalaridan foydalanish zarurligini belgilaydi. Glyukokortikoidlar-bu o'rta va og'ir koronavirus infeksiyasi bo'lgan bemorlarni davolash rejimiga kiritilgan steroid dorilar.

Qisqa vaqt ichida ishlatiladigan glyukokortikoidlarning kichik dozalari erkaklarning reproduktiv funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Dori-darmonlarning yuqori dozalari spermatogen epiteliy interstitsial bo'shlig'ining kengayishiga olib kelishi mumkin, so'ngra hujayra aloqalarining buzilishi va gematotestikular barerning yaxlitligi buziladi, bu moyak to'qimasini aylanib yuruvchi toksik moddalarga nisbatan zaif qiladi. Gematotestikular to'siqning shikastlanishi, moyak to'qimalarida yallig'lanish hodisalarining rivojlanishi, shuningdek yallig'lanish sitokinlari, xususan interleykin-6 (il-6) ta'siri natijasida antispermial antitelalari hosil bo'lishi mumkin. Ushbu patofiziologik zanjir COVID-19 dan keyin erkaklarda autoimmun bepustlikning paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni ko'rsatadi. Infeksion umumlashtirilishi tufayli jinsiy bezlarda yallig'lanish jarayonining rivojlanishi alohida





ahamiyatga ega. Infeksiyaning o'tkir bosqichida yorg'oqdagi noqulaylik o'zgaruvchan intensivlikdagi bir qator bemorlarda ustunlik qilishi qayd etilgan. H. Li va boshqalar COVID-19 tasdiqlangan vafot etgan bemorlarning moyaklari va moyak ortiqlarini gistopatologik baholash o'tkazdi. Barcha kuzatuv holatlarida moyaklarda ham, moyak ortiqlarida ham interstitsial shish va dimlanish ko'rinishidagi aniq o'zgarishlar aniqlandi. Qizil qon hujayralarining aniq ekssudatsiyasi, spermatogen epiteliyning yuqori darajada shikastlanishi bilan seminifer tubulalar epiteliyasining ingichkalashi kuzatildi. Yuqoridagi o'zgarishlar qon tomirlari atrofida t-limfotsitlarning faol infiltratsiyasi, interstitsial to'qimalarda makrofag reaksiyasi bilan birga keldi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda moyak parenximasida immunoglobulin G (IgG) cho'kmasi kuzatilgan, bu autoimmun reaksiyani ko'rsatadi. Limfotsitik infiltratsiya Leydig hujayralarining ishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va testosteron ishlab chiqarishni buzishi mumkin. M. Yang va boshqalar COVID-19 bemorlarida moyak interstitsiyasida seminifer tubulalarning sezilarli darajada zararlanishini, Leydig hujayralari zichligining pasayishini ko'rsatadigan morfologik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ikki xil tadqiqot sperma namunalarida SARS-CoV-2 ni aniqladi va olingan ma'lumotlarga ko'ra, virus davolangan 23 bemor orasida ikki bemorda eyakulyatsiya namunalarida va o'tkir bosqichdagi 15 bemorda to'rttasida aniqlangan. S. Rajender va boshqalar SARS-CoV-2 bilan kasallangan 34 bemorning sperma namunalarida virus aniqlanmaganligi haqida xabar bergan. M. Gacci va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra. sog'aygandan so'ng, tekshirilgan erkaklarning 25 foizida oligo-kripto-azospermiya aniqlandi. Spermogramma o'zgargan 11 erkakdan 8 tasida azospermiya va 3 tasida oligospermiya aniqlangan. Jami 33 (76,7%) bemorda spermada interleykin-8 (IL-8) patologik darajasi aniqlangan. Oligo-kripto-azoospermiya COVID-19 ( $p < 0,001$ ) og'irligi bilan bog'liq. B. Hajizadeh Maleki va B. Tartibian COVID-19 dan tuzalib ketgan 84 bemorda AAF-2 faolligi, yallig'lanish belgilari, eyakulyatsiya oksidlovchi stressi va spermogramma parametrlarini kuzatdilar. Sinovlar erkaklar kasalxonadan chiqarilgandan so'ng, 10, 20, 30, 40, 50 va 60 kundan keyin o'tkazildi. Dastlabki o'lchovlar urug ' plazmasida AAF-2, IL-1b (interleykin 1 beta), IL-6 (interleykin-6), IL-8 (interleykin-8), IL-10 (interleykin10), TGF- $\beta$  (beta transformatsion o'sish omili), TNF-a (alfa transformatsion o'sish omili) fermentativ faolligining yuqori darajasini aniqladi.. Interferon-a (IFN-a), interferon- $\gamma$  (IFN- $\gamma$ ), reaktiv kislorod turlari, kaspaza-8, kaspaza-9 va kaspaza-3 darajalari ham ko'tarildi. Spermogrammaning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarida sezilarli og'ishlar, nazorat guruhi bilan taqqoslaganda kasal bemorlarda sperma DNK parchalanishining yuqori ko'rsatkichlari qayd etildi. Kasalxonadan chiqqandan keyin 60-kunga kelib,



yallig'lanishga qarshi sitokinlar, oksidlovchi stress va DNK parchalanishining pasayishi kuzatildi. Kasal bemorlar guruhida qayd etilgan ijobiy dinamikaga qaramay, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar hatto kuzatuvning 60-kunida ham nazorat guruhidan sezilarli darajada past edi.

### **COVID-19 va jinsiy funktsiya**

Jinsiy olatni to'qimasi endoteliy bilan qoplangan qon tomirlariga boy bo'lib, COVID-19 ta'sir qilishi yuzaga keladigan tizimli endotelial disfunktsiyani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Jinsiy disfunktsiyaning patofiziologiyasi ko'pincha ko'p faktorlar bilan aniqlansada, morfologik tadqiqot ma'lumotlari infeksiyalangan erkaklarning kavernoza tanalarining to'qimalari endotelial disfunktsiyaning jinsiy disfunktsiyada muhim rol o'ynashini va kasallikning og'irligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Infeksiyadan keyin 7 oy ichida jinsiy olat to'qimalarida virus mavjudligi SARS-CoV-2 kavernoza tanalarning endoteliysiga bevosita zarar yetkazishi va jinsiy disfunktsiyaga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. SARS-CoV-2 RNKsi biopsiyada COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda aniqlangan va immunokimyoviy tahlil kavernoza tanalarda endotelial azot oksidi sintetaza ekspressiyasining pasayishini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bemorlarda yuzaga keladigan endotelial disfunktsiya jinsiy olatni qon tomir devoriga ta'sir qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida erektsiya buzilishiga olib keladi. Penil qon tomirlarining endoteliysiga zarar yetkazishdan tashqari, yangi koronavirus infeksiyasidan keyin jinsiy disfunktsiyaning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: gipogonadizm, psixologik stress va gemodinamikaning buzilishi, vaskulit va tromboz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yallig'lanish sitokinlari (interleykin-6, o'sma nekrozi omili va interleykin-1b) Leydig hujayralariga zarar etkazishi mumkin, bu esa testosteron sintezining pasayishiga va gipogonadizmning rivojlanishiga olib keladi. Natijada libidoning pasayishi va erektsiyaning yomonlashishi bilan kechadigan jinsiy disfunktsiya kuzatiladi. Vaskulit va tromboz bilan kechadigan koronavirus infeksiyasida ikkilamchi vaskulopatiya, o'z navbatida, jinsiy olatni mikro qon tomir devoriga zarar etkazadi va qon tomirli jinsiy disfunktsiyani keltirib chiqaradi. E. Kresch va boshqalar 4 erkak jinsiy olatni to'qimasini gistopatologik, immunogistokimyoviy va ultrastrukturaviy tekshirish o'tkazdi. Mualliflar to'rtta bemorda jinsiy olatni to'qimasini o'rganishdi, ulardan ikkitasida PCR bilan tasdiqlangan COVID-19 infeksiyasi bor edi. Biopsiya tadqiqoti SARS COVID-19 bilan kasallangan erkaklarda jinsiy olatni to'qimalarida COVID-19 RNKni aniqladi, immunogistokimyoviy erkaklarda kavernoza tanasida azot oksidi endotelial sintetaza ifodasining COVID-19 (+) erkaklarnikiga nisbatan kamayishini ko'rsatdi, bu endotelial disfunktsiyaga mos keladi. Shuni



ta'kidlash kerakki, COVID-19 tarixi bo'lgan ikki erkak kasallikdan keyin rivojlangan og'ir jinsiy disfunktsiya tufayli keyinchalik endofalloprotezlash operatsiyasidan o'tgan. Bu haqiqat ilgari sog'lom sub'ektlarda jinsiy disfunktsiyaning to'satdan paydo bo'lishi ehtimolini ko'rsatadi.

### XULOSA

Qisqa muddatli tadqiqotlar, kuzatilgan bemor guruhlarining geterogenligi va cheklangan namunalar tufayli yangi koronavirus infeksiyasidan keyin reproduktiv va jinsiy buzilishlarning og'irligi, ularning kasallikning o'ziga xos xususiyatlari va patologik jarayonlarning qaytarilish darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq bashorat qilish mumkin emas. Shu bilan birga, pandemiya davrida to'plangan ma'lumotlar SARS COVID-19 ning erkaklar fertilligi va jinsiy funksiyasiga potentsial ta'sirini ko'rsatadi, bu esa keyingi keng ko'lamlı kuzatuvlarni talab qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Louis JF, Thoma ME, Sorensen DN, McLain AC, King RB, Sundaram R, et al. The prevalence of couple infertility in the United States from a male perspective: evidence from a nationally representative sample. *Andrology* 2013;1(5):741-748. <https://doi.org/10.1111/j.2047-2927.2013.00110.x>.
2. Salonia A, Bettocchi C, Carvalho J, Corona G, Jones TH, Kadioglu A, et al. Guidelines on sexual and reproductive health. European Association of Urology 2021. URL: <https://www.europeanurology.com/article/>
3. Лебедев Г.С., Голубев Н.А., Шадеркин И.А., Шадеркина В.А., Аполихин О.И., Сивков А.В., Комарова В.А. Мужское бесплодие в Российской Федерации: статистические данные за 2000-2018 годы. *Экспериментальная и клиническая урология* 2019(4):4-12. [Lebedev
4. Андрология для урологов. Клинические рекомендации. 2-е издание, исправленное и дополненное. [Под ред. П.А. Щеплева. Научный редактор Н.П. Наумов]. М.: Медконгресс, 2021;17-420 с.
5. Agarwal A, Mulgund A, Hamada A, Chyatte MR. A unique view on male infertility around the globe. *Reprod Biol Endocrinol* 2015
6. Пушкаръ Д.Ю., Камалов А.А., Аль-Шукри С.Х., Еркович А.А., Коган М.И., Павлов В.Н., др. Анализ результатов эпидемиологического исследования распространенности эректильной дисфункции в Российской Федерации. *Урология* 2012(6):5-9.



## TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDA LAQABLARNING QO‘LLANILISHI

Farg‘ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo‘nishi (ingliz tili) 2-kurs 21.85 –guruh talabasi Koziboyev Faxriddin

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Shaytanat” asarida qo‘llangan laqablarning ma‘nosi, bu so‘zning ikkinchi nom sifatida izohlanishi, uning qo‘llanilish o‘rni va maqsadi, turli ilmiy manbalarda, Tohir Malikning ijodidagi laqablarning o‘rni haqida so‘z boradi va ularning ma‘nolari izohlab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Shaytanat”, laqab, nom, xarakter-xususiyat, fe‘l-atvor, ko‘chma ma‘no, laqablarning qo‘llanilish o‘rni, maqsadi.

O‘zbek adabiyotida o‘zining ko‘plab kitobxonlariga ega ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. Yozuvchining “Shaytanat” asarida ismlarga nisbatan ularga atab qo‘yilgan laqablar nom o‘rnida, ya‘ni atoqli ot sifatida ko‘p qo‘llangan. Avvalo, bu so‘zning ma‘nosiga izoh beradigan bo‘lsak, laqab arabcha so‘z bo‘lib, biror xususiyatiga ko‘ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab qo‘yilgan nomni, taxalluslar, familiyalarni bildiradi<sup>1</sup>. Masalan, Kesakpolvon, Chuvrindi, O‘qilon, Suvilon, Bo‘tqa, Xumkalla, G‘ilay, Bo‘ri, Qassob, Hovuz polvon va hokazo. Ma‘lumki, laqablar insonning turli-tuman belgisi, xususiyatlariga qarab qo‘yiladi. Shunga ko‘ra ular kishilarning qaysi urug‘ yoki qabilaga mansubligini, ulardagi jismoniy kamchiliklarni, xarakter, fe‘latvor, gapirish uslubi, kiyinishdagi biror kamchilik yoki o‘zgachalikni, kasbini, millatini, kishilardagi shu kabi yaxshi hamda yomon xislatlarni, belgi-xususiyatlarni ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

1 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Русский язык, 1981, – Б. 306. 2 Menanshev Y. va b. Ismingizning ma‘nosi nima? – Toshkent: Fan, 1968. 15-16-b. Bilamizki, laqab kishilarga tashqi ko‘rinishiga nisbatan (Xumkalla, G‘ilay), yoki xarakter xususiyatiga nisbatan ko‘chma ma‘noda (O‘qilon, Suvilon), qilgan biror ishiga bog‘liqlik asosida (Kesakpolvon, Qassob) shaxsga nisbatan nomga aylangan. Demak, laqab - shaxsning tashqi ko‘rinishi, mashg‘uloti yoki biror xususiyatiga qarab beriladigan ikkinchi nom. Odatda, laqab ishlatilish o‘rni va maqsadiga qarab ijobiy yoki salbiy ma‘noga ega bo‘ladi. Misol uchun “Shaytanat” asarining 1-kitobida Haydar Asrorovga nisbatan Kesakpolvon laqabining qo‘yilishi shunday izohlangan: “*Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg‘och mo‘ylabi o‘ziga yarashgan odam ko‘rindi. Bu odamni yaxshilab tanib oling: Haydar Asrorov, laqabi Kesakpolvon. Asadbekning o‘ng qo‘l a‘yoni. Ozg‘in, chayir bo‘lgani uchun Kesakpolvon, deb atashgandir, desangiz yanglishasiz. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo‘lganidek, bu olamning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri - bu olamga qadam qo‘ygan*



har bir tirik jonga laqab beriladi. Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe'liga qarab topiladi. Jussasiga qarab tanlanganida Haydar Kesak emas, Toshpolvon yoki Temirpolvon bo'lishi kerak". (1-kitob, 37-b) ...Haydar ikkita dehqonning iziga tushadi. Ularning belbog'ida pul bor deb o'ylaydi. Cho'ntak belbog' kesishda Haydardan o'tadigani yo'q edi... Xullas, belbog' kesildi...Panaroqqa o'tib qarasa, belbog'da sariq chaqa ham yo'q- besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Aslida dehqon shaharda "tahoratga kesak topiladimi, yo'qmi" deb har ehtimolga qarshi belbog'iga tugib olgan edi. O'shanda alamdan bo'zarib turgan Haydarga qarab turib Asadbek rosa kuldi. Laqab ham o'shanda tug'ildi (1-kitob, 38-b)Asarda aksariyat hollarda nom sifatida laqablar qo'llangan. Muallif bu nom ostida ham ko'chma ma'nolarni nazarda tutgan. Kesak ko'chma ma'noda kishilarga nisbatan "his-tuyg'usi yo'q" ma'nosini aks etiradi. Kesakpolvonning qiladigan ishlari, hatto oilasidagilar (xotini va qizi ham yengil-yelpi hayot kechirishadi), oiladagi uning o'rni va oxirida o'zining taqdiri, inson uchun eng oliy ne'mat bo'lgan hayotning ayanchli yakun topishi kabilar, avvalo, uning ismi (laqabi)ga yuklanganini bilamiz. "Ertalab xo'rozlar hali subh kirganidan darak bermay turib ularning qulog'iga chaqaloq ovozi eshitilganday bo'ldi. Ikkovi ham shirin tush ko'rganday bo'ldi. Ovoz tinmadi. Er ko'zini ochib, qaddini xiyol ko'tardi. - Turdi, eshityapsanmi?- dedi. Chaqaloqning ovozi yoki shamol uvlayaptimi? - Shamol shunaqa uvillaganmi hech qachon? Qarang-chi, balki mushukdir? Er o'rnidan turib tashqariga chiqdi. Dam o'tmay eshikni zarb bilan ochib, qo'lida ko'rpacha o'ralgan chaqaloq bilan ichkari kirdi. -Turdi, tura qol tezroq. Birov chaqaloq tashlab ketibdi. ...Kun yorishgach, er tashqariga chiqib qordagi izga ko'zi tushganida yuragi bir narsani sezganday jiz etdi. -Bir odamning izi qolibdi, - dedi uyga qaytib kirib. Turdi, bu bola begona emasga o'xshaydi, yuragim sezyapti, o'zimizning nabira bo'lsa kerak-ov...Kelining yukli edi, bir marta xabar olmading. -Unaqa demang, xabar olganman. Bir oy bor devdi. Bu emasdir. -Men qudamnikiga borib kelay. -Bolani sizlar tashlab keldilaringmi, deysizmi? -Menda ham kalla bordir. Bunaqa demasman...U uyiga bo'shahib qaytdi: kelini o'n besh kun burun shaharga ketgan emish... Bolaga Mahmud deb ism qo'yishdi... (2-kitob, 53-b) **Chuvrindi**...Yupun kiyimda och-nahor sanqib yurgan Mahmudni Haydar uchratib qoladi. Haydar bolaning yuziga qarab, keyin peshonasiga kaftini bosdi. -Isitmang bor-ku, qayoqdan qochib kelyapsan, chuvrindi uka?- dedi. (2-kitob, 55-b) Chuvrindi nomi unga shu sabab berilgan. Chuvrindi - eski-tuski kiygan, usti yupun" shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Bu nom Mahmudga Haydar (Kesakpolvon) tomonidan berilgan. Haydarga uning ilk ko'ringan paytidagi holati shu nom bilan atalishiga sabab bo'lgan. Lekin asarda Chuvrindi (Mahmud) aqlan boy, sermulohaza shaxs sifatida tasvirlangan.



In the early stages of foreign language learning, we see the influence of the characteristics of the student's native language. Such situations, called "cross-language activities," demonstrate that there is a constant interaction between the native language that is anchored in a student's memory and the other language that they are beginning to learn. As for language learning, many aspects of language also develop slowly. Some features and aspects of the language were learned earlier, others later. Language differences can take a long time to master many things that seem easy. Without the opportunity for students to hear and use the language being used, it is impossible to develop their language learning positively and they quickly forget what they have already learned.

Don't expect miracles when learning a foreign language

All material presented in language learning should make sense and topics should be related to each other and, where appropriate, to what the child has learned in other lessons. there is. In this case, the foreign language teacher should work with other teachers teaching a particular class to plan. It also needs to consider and connect each



student's experience and life in the learning process. From this perspective, the educational process can use content-based educational models and fairy tales, songs that correspond to levels of cognitive, linguistic and social development, and activities that directly involve students. So, considering that more than half of the world's population speaks two or more languages in their daily lives, you can be confident that learning a foreign language is no miracle. In addition, you can teach your students a foreign language not only as an opportunity for success that most people cannot achieve, but also to keep up with the times.

### **REFERENCES**

1. <https://m.daryo.uz/2019/03/11/ozbekistonda-chet-tillarini-oqitish-muammolari-ular-qanchalik-jiddiy/>
2. <https://www.etoninstitute.com/blog/top-10-benefits-of-learning-a-foreign-language>
3. <https://www.studyfrenchspanish.com/language-benefits/>



## ЎПКАНИНГ СУРУНКАЛ ОБСТРУКТИВ КАСАЛЛИГИ ПАТОГЕНЕЗИ ҲАҚИДА ЗАМОНАВИЙ ТУШУНЧАЛАР.

Ўринбоев Лочинбек Хасанбой ўғли

АДТИ магистратура талабаси

Тел:998993599109

**Аннотация:** Организмда ёд антигенининг узок вақт мавжудлиги билан сурункали яллиғланиш ривожланади. Сурункали яллиғланиш барча маълум хавф омилларига универсал реакция ва ЎСОКнинг барча функционал ва морфологик кўринишларининг асосий сабабидир: этиологик омиллар таъсирида нафас олиш тизимининг деярли барча хужайрали элементлари фаоллашади ва яллиғланиш реакциясида иштирок этади. Яллиғланиш жавобидаги зарар ва таъмирлаш жараёнларининг нисбати ЎСОКдаги морфологик ва функционал ўзгаришлар билан белгиланади. Яллиғланишнинг турли босқичларида юзага келадиган хужайралараро муносабатларнинг мураккаб иерархиясида нейтрофиллар энг катта аҳамиятга эга.

**Калит сўзлар:** паталогик жараён, иммунитет, яллиғланиш, кўзгатувчи омил, нейтрофил, цитокинлар.

Замонавий концепцияда ЎСОК касалликнинг оғирлиги ва намоён бўлишидан қатъи назар ривожланадиган нафас йўллариининг сурункали яллиғланиш жараёни позициясидан кўриб чиқилади. Яллиғланишнинг локализацияси ва кўзгатувчи омилларнинг хусусиятлари ЎСОКда паталогик жараённинг ўзига хослигини аниқлайди.

Шуни таъкидлаш керакки, паталогик жараённинг ривожланиши билан маҳаллий иммунитет омилларининг имкониятлари камаяди ва иммунитетни ҳимоя қилишнинг тизимли механизмларининг роли ошади ЎСОКда иммун танқислиги ҳолатининг патогенетик роли адабиётларда кенг муҳокама қилинади. Сўнгги йилларда, айниқса, хорижий олимларнинг нашрларида цитокинларнинг мувозанати ва унинг организмдаги сурункали яллиғланишни шакллантириш ва сақлашдаги ролига кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Яллиғланиш ўчоғида нейтрофилларнинг ҳаракатини аниқлайдиган цитокинлардир. Паталогик жараённинг сурункали кечиши цитокинларнинг айрим турларининг камайиши ва бошқаларнинг гиперпродукцияси билан бирга кечади. Цитокин ишлаб чиқариш даражасини аниқлаш усуллариини ишлаб чиқиш туфайли нормал ва паталогик шароитларда маълум цитокинларнинг ролини тушунишда сезиларли ютуқларга эришилди. Цитокин тизими мураккаб, полиморф ва тартибга солувчи воситачилар занжири бўлиб, иммун тизимининг хужайра элементларининг



пролиферацияси, дифференциацияси, апоптози ва функционал фаоллиги жараёнларини бошқариш учун мўлжалланган Турли патологияларда ҳам маҳаллий, ҳам тизимли даражада цитокин ҳолатини баҳолаш учун диагностик иммунофермент тест тизимларидан фойдаланиш касалликнинг патогенезини тушуниш учун муҳим ҳисобланади.

Сўнгги пайтларда цитокинлар турли тана ҳужайраларининг фаолиятини тартибга солувчи ягона тизим сифатида ғоя пайдо бўлди. Иммуни тизимига нисбатан бу лимфокинлар, монокинлар, интерлейкинлар, ўсимта некрози омилларини ўз ичига олган оксил регуляторлари гуруҳидир Улар иммуни ва яллиғланиш реакцияларида иштирок этадилар, уларнинг амплитудаси ва давомийлигини тартибга соладилар, улар ҳужайрадан ҳужайрага сигнал узатувчилардир Цитокинлар одатда маҳаллий ва қисқа вақт ичида жуда паст концентрацияларда (мл га пикомиллар даражасида) ишлаб чиқарилади, паракрин ёки автокрин, камроқ эндокрин таъсир кўрсатади. Цитокинлар ҳар бир цитокин ёки кичик миқдорда (ҳар бир ҳужайрада 10-10000 молекула) ифодаланган цитокинлар гуруҳига хос бўлган юқори яқинликдаги ҳужайра рецепторлари билан ўзаро таъсир қилади. Цитокинларнинг ўзига хос рецепторлари билан ўзаро таъсири пировардида ҳужайра РНК ва оксиллар синтезининг ўзгаришига, ҳужайра функциясининг ўзгаришига олиб келади. Ҳужайранинг цитокинга реакцияси бир қанча омилларга боғлиқ: ҳужайралар тури ва уларнинг бошланғич функционал фаоллиги, цитокинларнинг маҳаллий концентрацияси ва ҳужайра ўзаро таъсир қиладиган бошқа воситачи молекулалар. Цитокинлар ўзаро боғланган ва интеграл тизимни ташкил қилади, бу маълум қонуниятлар билан тавсифланади: цитокинларнинг жойлашиши, каскад ишлаб чиқарилиши, яъни баъзи цитокинларнинг бошқалар томонидан индукцияси, бир-бирининг такрорланиши ва бир-бирига ўхшаш таъсири билан таъсирларнинг плеиотропияси, кўп даражали муносабатлар ва бошқалар

**Хулоса.** Шундай қилиб, цитокинлар ва уларнинг ўзига хос рецепторлари ўзларининг медиатор занжирини ташкил қилади ва ҳужайра фаоллашувида муҳим рол ўйнайди, иммуни реакциясида иштирок этадиган ҳужайраларнинг ўсиши ва дифференциациясини сақлайди

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

- 1.Зелвеян П.А., Ощепкова Е.В., Арабидзе Г.Г. Синдром апоноэ во сне и артериальная гипертензия. //Тер. архив. 2015. №9. с.76-80
- 2.Зелвеян П.А., Ощепкова Е.В., Буниатян М.С. и др. Особенности суточного профиля артериального давления у больных мягкими и умеренной



формами артериальной гипертонией с синдромом апноэ/гипопноэ в сне. //Тер. архив. 2011. № 9 с.8-13

3.Земсков А.М., Земсков В.М, Караулов А.В. и соавт. Иммунологические расстройства при сочетанной патологии // Inter. J. on Immunorehabil. 2009. №11. С.92-107

4.Зимин Ю.В., Верещагина Л.В., Козлова Л.И., Функция внешнего дыхания при впервые возникшей стенокардии и при длительно текущей ишемической болезни сердца// Клин, медицина. 2007. №2. С.69-74





## Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga dialogik nutqni o'rgatish

Furqat pedagogika kolleji Maxsus fan o'qituvchisi

M.Begmurotova, D.Isanova

*Annotatsiya* –Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishni o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari xaqida fikr yuritilgan.Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'z**-Tovush, nutq, ravon so'zlashish, tarbiyachining nutqi,dialogik nutq,nutqning ifodalash.

Bolalarda ravon nutqning rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi hisoblanadi.Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib bola kattalarga xos bo'lgan og'zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi ,ya'ni ravon nutqning ikki shakli –dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart.Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi. Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek nutq yordamida bilib oladi. Dialog – suhbat bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda. Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); maktabgacha ta'lim muassasasida kun mobaynida bola pedagog va boshqa bolalar bilan erkin muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlari o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi. Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida qo'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida qabul qilinadi, maktabgacha ta'lim muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Biroq, nutq albatta borliq hodisasini aks ettirishi, kodlashtirishi bois maktabgacha ta'lim muassasasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi. Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda —Ilk qadam|| tayanch dasturi bilan belgilanadi. Suhbat ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan (yoki alohida har bir bola bilan) aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan



so'zlashuvidir. Maktabgacha ta'lim muassasasida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorattekshiruv suhbatlaridan foydalaniladi. Takrorlovchi va umumlashtiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarga ko'rgan narsalarni taxlil qilish, taqqoslash, to'ldirish, chuqurlashtirish usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtiradi, ularni muayyan xulosalarga kelishga undaydi. Nazorattekshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'tish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniqlashi mumkin. Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik suhbatlari (so'zlashish) usullari;
- Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish). Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

- To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdosh so'zlarini bo'lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;

- Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish. Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning yetakchi usuli savollar hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol qo'yish – bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy fikrlash vazifasini qo'yish demakdir. Ayni paytda u xaddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani qo'yishdan maqsad – bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo'yishiga qarab, savollarni reproduktiv, qidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin. Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning qiziquvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga qodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi. Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni teatrlashtirish usuli – bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarni o'sha shaxslar nomidan qayta aytib



berish usullaridir. Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, xayratlanish, xayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning axvolidan kelib chiqqan holda gox xursand, gox qayg'uli va gox iltijonamo jaranglaydi. Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo'g'irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin. Sahnalashtirish o'yini – bu bolalarning badiiy asarni uning qahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matni erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidan chetga chiqishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni faqat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv nutqi me'yorlaridan chekingan xollardagina to'g'rilaydi; o'yin chog'ida fonetik xatoliklarga yo'l qo'yilganida uni to'g'rilash shart emas. Teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farqlanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan biladigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chiqishdan ko'zlagan maqsadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska qalpoqchalar va boshqa kiyimlar) chiqadilar. Qo'g'irchoq teatri – bu syujetli «rejissyorlik» o'yinning har xil turlaridir: bolalar bir vaqtning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (qo'l barmoqlariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirqimlari va x.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar. Qo'g'irchoq teatri shakli quyidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoqlar» teatri, soya teatri, stol teatri, flanelegraf. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar. Yuqorida sanab o'tilgan qo'g'irchoq teatri turlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pedagog yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda qo'g'irchoqlarga, qirqilgan rasmlarga rejissyorlik qiladilar, ular nomidan ishtiyiq bilan so'zlaydilar va shu tariqa o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Sahnalashtirish o'yini – maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning teatrlashtirilgan chiqishidir. Bolalarniing og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga qarab, ularning savollarga javoblari yanada aniq, mulohazali va mazmunli bo'ldib borishi lozim.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., —O'qituvchil1993.
2. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., —O'qituvchil 1993
3. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
4. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., —Sano-standart||, 2004.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. —Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., —Istiqloll, 2006.
6. Abdualiyevich, Zokirov Mirzarahim. "THE ROLE OF PLAY IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN." *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT* 1.11 (2021): 9-10.
7. Мирзарахим Абдуалиевич ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕРЦЕПТИВ АСОСЛАРИ // SAI. 2022.
8. Мирзарахим Abdualiyevich Zokirov BOLALARDA BILISH JAROYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI // Oriental Art and Culture. 2021. №4. 9. Abdualiyevich Z. M. CONTENT AND ESSENCE OF THE TOPIC" PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION" //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 04. – С. 300-305.
10. Abdualievich, Zokirov Mirzarahim. "O'zbek xalq og 'zaki ijodining xususiyatlari." *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION* 2.2 (2021): 338-340.
11. Мирзарахим Абдуалиевич Зокиров ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ // Oriental Art and Culture. 2021.
12. Sh A. et al. ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – T. 14. – №. 7.
13. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – С. 612-618.
14. Abdualievich Z. M. Effectiveness of Development of Perceptive Skills Directed to Increase the Social Activity of Students in Future Teachers //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 15. – С. 55-58.



15. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 213-217.

16. Zokirov M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

17. Abdualiyevich Z. M. O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 330-333.

18. Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 29-32.

19. Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich, Yo'ldashev Dilshodjon Mamirovich BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarda-o-quvchilarning-ijtimoiy-faolligini-oshirishga-yo-naltirilgan-perseptiv-qobiliyatlarini-rivojlantirish> (дата обращения: 17.04.2023).

20. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO'LG'USI O'QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarning-perseptiv-qobiliyatlarini-rivojlantirishning-ijtimoiy-pedagogik-zarurati> (дата обращения: 17.04.2023).

21. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 612-618.

22. Zokirov, M. (2022). *ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN DTUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN.*

23. Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 81-85.



## Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xarakatli o'yinlarni tashkil etish

Furqat pedagogika kolleji jismoniy tarbiya o'qituvchisi

Maxmudova Muslimaxon

*Annotatsiya.* Ushbu maqola, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari" da jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish masalalari haqida so'z olib boriladi. Bolalarga jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qayerda, qancha vaqt davomida, qanday vositalar yordamida va mashg'ulotlar qanday qismlarga bo'lib olib borilishi haqida yozilgan.

**Kalit so'z-**maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, ta'lim tarbiya, faoliyat, xarakatli o'yinlar, mashg'ulot, sog'lomlashtirish.

Harakatli o'yinlar aslini olganda qadimgi xalq pedagogikasining mahsulidir. Qadim vaqtlarda ham oilalarda bolalarni ilk yoshidan boshlab topqirlikka, zukkolikka, chaqqonlikka o'rgatadigan topishmoqlar, o'yinlar, maqol-masallar asosida tarbiyalab kelingan, kichkintoylarga dastlabki harakat malakalari bilan bog'liq bo'lgan harakatli o'yinlar o'rgatilgan. Tez aytish, hisoblash, sanoq o'yinlari, chori-chambar singari o'yinlar kichik yoshdagi bolalarni o'ziga jalb qilgan. Bolalar katta bo'lgan sayin ularga turli xil harakatlar bilan bog'liq bo'lgan xalq o'yinlari o'rgatilgan. Xalq og'zaki ijodidan olingan o'yin folklori bugungi kunda ham o'zining badiiy go'zalligini, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmay kelayotganligi uchun ham eng qimmatli vosita sifatida amalda qo'llanmoqda.

Har qanday o'yin – u xoh ijodiy. Xoh didaktik, xoh musiqiy, xoh harakatli o'yin bo'lmasin, baribir tevarak atrofidagi olamni bilish vositasi sifatida bolaning hayotiy o'ziga hos, muhim rol o'ynaydi.

Harakatli o'yinlar mazmunida bolaga bilim beradigan bir talay material bo'ladi. Bu material uning bilim darajasini kengaytiradi va uning olam haqidagi tasavvurlarini boyitib, unga aniqlik kiritib boradi. Odamlar, tabiat hodisalari, hayvonlarning hatti-harakatlari tasvirlangan ba'zi bir epizodlar syujetli o'yinlar tematikasini tashkil etadi. Bular bari bolalar tomonidan shartli o'yinlar shaklida: "Sayohatchilar", "O'quvchilar", "G'ozlar-oq qushlar", "Inida yotgan aymq" va boshqa o'yinlar o'ziga hos tarzda ifodalab beriladi. Biroq tevarak atrofidagi olamni bola to'g'ri idrok etishi uchun o'yinchi barcha shartlikka qaramay, obrazning haqqoniy karakteristikasi hayajonli tarzda pedagog tomonidan o'yin shartlarini tushuntirish vaqtida ifodalab berilishi kerak. Bunda xalq o'yinlarini misol qilib olish mumkin. Ulardagi o'yin vaziyati bolani o'ziga jalb etadi va uni tarbiya qiladi. Ba'zi bir o'yinlarda uchrab turadigan dialog tarzidagi suhbatlar esa personajlar va ularning harakatlarini bevosita ko'rsatib beradi.



Syujetsiz va muayyan o'yin topshiriqlarigagina asoslangan o'yinlarda ham juda ko'p qiziqarli material bo'ladi. Bu material bolaning umumiy bilimi, tafakkurini rivojlantiradi, uning mo'ljal olish qobiliyatini o'stiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlar o'tkazishda bolalarning yosh darajasini, jismoniy va fiziologik rivojlanishi va bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Kichik guruhlarda harakatli o'yinlar har kuni o'tkaziladi. Mashg'ulot davomiyligi 10-15 minut atrofida davom etishi kerak. Harakatli o'yinlar kunning turli paytlarida o'tkaziladi. Ertalabki nonushtaga qadar tarbiyachi barcha bolalarda yaxshi kayfiyat yaratish uchun individual yoki kichik guruh bilan o'tkaziladigan sokin harakatlardagi o'yinlarni o'tkazgani ma'qul. Sayrlar, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlaridan keyin sayr paytida tarbiyachi xilma-xil harakat faoliyatini uyg'otuvchi mazmunli, harakatli o'yinlarni ularning butun qonun-qoidalari bilan hamda o'yin mashqlarni faol harakatlar bilan birga qo'shib o'tkazish kerak. Katta va tayyorlov guruhlarida mashg'ulot davomiyligi 20 minutgacha davom etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo'ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; o'yinlar ijodiy tasavvurni, xotirani, fikrlashni, tafakkur faoliyatini yana ham rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolalarda psixik jarayonlarni takomillashtirishda obrazli fikrlash katta ahamiyat kasb etadi. Bunday metod tasavvurni boyitib, o'yin harakatlarini ijodiy tarzda bajarishga undaydi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola o'yin faoliyati tufayli amalda fazo tushunchasini hamda predmetli faoliyatni o'zlashtiradi va shu bilan birga fazo to'g'risidagi ilgari hosil qilingan tasavvurlar yana ham takomillashib boradi.

O'yinlarda fazoni idrok etish asosiy shakllar orqali: bivosita bilish, sensor his-tuyg'u va obrazlar orqali bilish hamda bilvosita mantiqiy fikrlash, tushunchalar shakllarda zuhr etiladi.

Masalan, bola tomonidan harakat yo'nalishini mustaqil ravishda tanlanishi yoki o'yin qoidasiga muvofiq muayyan yo'l tanlanish, bir tomondan, o'yin vaziyatini darhol baxolay olish va unga reaksiya berish o'yin harakatlarini bajarish talab qilinsa, ikkinchi tomondan, mazkur o'yin muhitida o'zi bajarayotgan harakatlarni anglab etishi va tasavvur qilishi talab qilinadi. Harakatli o'yinlarda mana shu ikki komponent bir-biri bilan bohliq holda keladi. Pedagog tomonidan o'yin qoidalarining tushuntirib berilishi bolada tahminiy tasavvur hosil qiladi; ayni mahalda o'yin vaziyatining o'zgarib qolishi



boshlovchining harakati yoki signallar berilishi munosabati bilan harakat rejasini buzib yuboradi va bolalardan yana ham murakkabroq harakatni – bir zumda reaksiya berish va shu zahoti harakat qilishni taqazo etadi, o'yinlar: “Ikki qorbobo”, “Sehrli tayyoqcha”, “Botir bolalar”, “Maymunlar va ovchilar” va hokazo.

Bunday reaksiya bolalarni mazkur muhitdagi g'arajatda moslashish uchun qay darajada tayyor ekanliklarini ko'rsatib beradi.

Bu ishda trener bolaga yordam berishi kerak. U vaziyatni hisobga olib harakat usulini tanlash va qo'yilgan vazifani bajarishga asta-sekin o'rgatib borish kerak. Masalan, bitta o'yinni o'rganish vaqtida bolaga ikki xil sharoit taklif qilinishi mumkin. Birida katta va cheklangan fazo taklif qilinsa, boshqa bir safar quvlab kelayotgan boladan tez va uzoqqa qochib ketish yoki yaqin masofada uni chalg'itib chaqqonlik ko'rsatib qochish talab qilinadi, “Quvlashmachoq”, “Ayyor tulki” singari o'yinlar.

Atrofdagi sharoitda mo'ljal olish mahorati “CHambar ichidan o'ib bayroqqa etish”, “Bo'ri qopqonda”, “Jasur bolalar” va hokazo o'yinlarda qo'yilgan vazifalardagi to'siqlarni engib shtishga yordam beradi. Bunda bolalar o'zlari orttirgan qobiliyat asosida masofani mo'ljalga oladilar hamda muayyan sharoitda harakat qilish yo'lini o'zlari belgilaydilar.

Har tomonga tarqalib ketayotgan bolalar orasida mo'ljal olish, ayniqsa muhimdir. O'yin vaziyati muttasil o'zgarib turadigan va birdan reaksiya talab qiladigan bunday sharoitdagi harakat bolaga g'oyat murakkab tuyuladi. Biroq ko'p marta takrorlash jarayonida katta g'ruppa bolalari bunday mahoratni egallab oladilar.

Harakatli o'yinlarda bolalar predmetlardan muayyan yaqinlikda yoki uzoqlikda bo'ladilar. Shu tufayli ularda ko'z bilan ko'rib mo'ljal olish, shuningdek, fazoda tovushni tinglash mo'ljal olish qobiliyati rivojlanadi. “Uzoqda-yaqinda”, “Gox bu erda, gox u erda”, “Qo'ng'iroqchalar bilan berkinish” va hokazo.

Harakatli o'yinlar bolalarni vaqtga qarab mo'ljal olishining eng oddiy usuliga o'rgatadi: Ular o'yin vaqtida aytilgan, navbatma-navbat bajariladigan dastlab, so'ngra, bundan keyin, bundan oldin, hamma baravar degan so'zlarga oid harakatlarni to'g'ri bajaradilar. Bolalarga ko'rsatib berilgan muddat ichida signal bo'yicha o'yin topshirig'ini bajarishga o'rganadilar. Masalan: “Men beshgacha sanayman, sizlar shu vaqt ichida qo'lingizdagi bayroqchalardan gul yasaysiz”, “Qani, men chirmandaga uch marta urgunimcha kim oldin safga turib olarkin”, -degan so'zlarga bolalar tez harakat bilan javob beradilar. Bunday o'yinlarda kichkintoylar mo'ljal olishni, izchil harakat qilishni va muayyan vaqt davomida ish bajarishni o'rganadilar.

O'yinlar mazmuni ularda yuz beradigan vaziyat hamda o'yin qoidalarini mustaqil so'zlab berish, personajlar harakatini bajarib ko'rsatish; bolalar turgan joyni,





o'yin belgilarini va harakat yo'nalishini atamalar yordamida tushuntirish; o'tkazilgan o'yinni tahlil qilib berish-bular bari bolalarning intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalarning harakat qilish tajribasini o'zining obrazli so'zlari bilan bolalar tasavvuriga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiradi, har bir bolaning ijodiy ijrochilikdan iborat o'yin faoliyatini rag'batlantirib, to'g'ri yo'lga solib turadi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar

1.. Usmonxo'jaev T.S. "Harakatli o'yinlar" O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi 1992 y.

2.Xo'jaev P., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. (Harakatli o'yinlari) O'quv qo'llanma TDPU T.: 2008 y.

3.Azizova R.I. "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma T.: 2010

4.Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o'yinlari

5.Usmonxo'jaev T.S Jismoniy tarbiya darsi materiallari «O'qituvchi» 1975y

6. Abdualiyevich, Zokirov Mirzarahim. "THE ROLE OF PLAY IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN." *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT* 1.11 (2021): 9-10.

7.Мирзарахим Абдуалиевич ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕРЦЕПТИВ АСОСЛАРИ // SAI. 2022.

8.Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BOLALARDA BILISH JAROYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI // Oriental Art and Culture. 2021. №4. 9.Abdualiyevich Z. M. CONTENT AND ESSENCE OF THE TOPIC" PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION" //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 04. – С. 300-305.

10.Abdualievich, Zokirov Mirzarahim."O'zbek xalq og'zaki ijodining xususiyatlari." *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION* 2.2 (2021): 338-340.

11.Мирзарахим Абдуалиевич Зокиров ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ // Oriental Art and Culture. 2021.

12.Sh A. et al. ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN



UZBEKISTAN //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022.  
– T. 14. – №. 7.

13. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 612-618.

14. Abdualievich Z. M. Effectiveness of Development of Perceptive Skills Directed to Increase the Social Activity of Students in Future Teachers //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 15. – C. 55-58.

15. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 213-217.

16. Zokirov M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

17. Abdualiyevich Z. M. O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 330-333.

18. Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 29-32.

19. Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich, Yo'ldashev Dilshodjon Mamirovich BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarda-o-quvchilarning-ijtimoiy-faolligini-oshirishga-yo-naltirilgan-perseptiv-qobiliyatlarini-rivojlantirish> (дата обращения: 17.04.2023).

20. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO'LG'USI O'QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarning-perseptiv-qobiliyatlarini-rivojlantirishning-ijtimoiy-pedagogik-zarurati> (дата обращения: 17.04.2023).





21. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 12. – С. 612-618.

22. Zokirov, M. (2022). *ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN DTUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN.*

23. Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 81-85.



## Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari va talablari

Furqat pedagogika kolleji pedagogika va psixologiya  
fani katta o'qituvchisi Nigora Xayitboyeva, Rahimova Umida

*Annotatsiya: Ushbu maqolaning mazmuni psixologik maslahatning hozirgi kunda qanchalik ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: psixologiya, psixologik yordam, murabbiy, kasb, shaxsiy rivojlanish, uzoq muddat, yordam, maslahat.*

Maktabgacha yosh psixologlar tomonidan uch yoshdan yetti yilgacha belgilanadi. Uch yoshida bola birinchi yosh inqirozini boshdan kechiradi. Yetti yil ham inqiroz davri. Ya'ni, maktabgacha yosh - bu bolaning hayotining birinchi inqirozidan ikkinchi hayot inqirozigacha bo'lgan davri. Uch yoshli chaqaloq allaqachon o'zini odam kabi his qiladi. U birinchi marta shaxs ekanligini, oilaning to'la huquqli a'zosi ekanligini tushuna boshlaydi. U ijro etishni o'rganadi oilaviy majburiyatlar kattalarga yordam berish. O'zi qaror qabul qilishga harakat qiladi. Bu atrofda voqelikni eng katta idrok etish davri. Bolaning rivojlanishi juda tez. Maktabgacha yoshdagi ushbu besh yil davomida u o'yindan ta'lim faoliyatiga qayta tashkil etish uchun vaqtga ega bo'lishi kerak. Ota-onalarning yordami zarur bilim, ko'nikma va malakalarni berishdir. Maktabgacha yoshdagi asosiy faoliyat - bu o'yin. Uch-to'rt yoshida bola rolli o'yinni o'zlashtiradi, ammo hozirgacha taqlid darajasida. U o'yinchoqlarni olib, hayotda yoki multfilmlarda ko'rgan vaziyatlarni takrorlaydi. Agar bu yoshda bu sodir bo'lmasa, ota-onaning vazifasi qanday o'ynashni o'rgatishdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi 5-6 yoshda rolli o'yinlar endi taqlid qilmaydi. Bolaning o'zi o'yin syujetini, qahramonlarning ismlarini o'ylab topadi. Bu ikkala hayotiy hikoyalar (do'konda xarid qilish, poezdda sayohat) va hayoliy voqealar bo'lishi mumkin. O'yinda bola odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, sotsializatsiya sodir bo'ladi. Bola o'zini kattalar rovida sinab ko'radi, o'yin darajasida qaror qabul qilishni o'rganadi. Shuning uchun bu davrni o'tkazib yubormaslik juda muhimdir. Agar yoshroq maktabgacha yoshda kichkina odam ko'pincha o'zini o'zi o'ynasa, besh yoki olti yoshida bola o'zi bilan muloqot qilishni xohlaydigan tengdoshlarini tanlaydi. Bolalar ikki yoki uch kishidan iborat kichik guruhlarga yig'ilib, o'ynashadi. Bu yoshda bola rasm chizishga, modellashtirishga, ertak tinglashga qiziq boshlaydi. U o'qishga qiziqmaydi, garchi o'yin shaklida ta'lim faoliyati elementlari to'rt yoshdan boshlab kiritilishi mumkin. Bolani barcha harakatlarida qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Har qanday faoliyat turlarini sinab ko'ring: applikatsiya, modellashtirish, chizish va dizayn. Bola hamma narsani sinab ko'rishga qiziqadi. Va buni qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Bu muvaffaqiyatli maktabda o'qishning kaliti bo'lgan kelajakdagi o'rganishga bo'lgan



qiziqishdir. Yosh maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi qanday o'zgaradi Bu yoshdagi fikrlash vizual-majoziydir. Buni ota-onalar bilishi muhim. Bola so'zlarni eslay olmaydi, u uchun rasmni ko'rish, ob'ektni teginish orqali tekshirish juda muhimdir. Vizualizatsiya va fantaziya bolaning bilimi bilan cheklangan. U hech qachon ko'rmagan narsani tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun yangi his-tuyg'ular, yangi his-tuyg'ular berish muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun ota-onalar nima qilishi mumkin? Boshqa shaharlarga (mamlakatlarga) sayohatlar Muzeyga, ko'rgazmalarga tashrif buyurish Teatrga borish Nafaqat spektaklni tomosha qilish, balki bola bilan u nimani o'rganganini, unga nima qiziq bo'lganini muhokama qilish muhimdir. Bu yoshda xotira intensiv rivojlanadi. Bola hamma narsani eslaydi: televizordagi reklamadan tortib, ota-onasi aytgan tasodifiy iboralargacha. Maktabgacha yoshda xotirani rivojlantirish katta rol o'ynaydi. Xotirani o'ynoqi tarzda rivojlantirish uchun bir nechta tavsiyalar. 1. Kechqurun yotishdan oldin ota-ona ertak o'qiydi. Ertalab u bo'lgan bola bilan gaplashadi Bosh qahramon qayerga ketdi, nima qildi. Siz etakchi savollarni berishingiz mumkin, lekin uning o'zi eslashi muhim. 2. Stolga uchta yoki to'rtta o'yinchoq qo'ying. Yarim daqiqa davomida chaqaloq o'yinchoqlarning joylashishini eslab qolsin. Keyin ularni ro'molcha bilan yoping va ikkita o'yinchoqni almashtiring. Sharfni oching va boladan nima o'zgarganini aytishini so'rang. 3. Har qanday multfilmni tomosha qilgandan keyin muhokama qiling. Unda nima bo'layotgan edi. Bosh qahramonlarning ismlari nima edi. 4. Kechqurun chaqaloq bilan kun davomida nima sodir bo'lganini doimiy ravishda eslab turing (agar ota-ona hozir bo'lsa va kun qanday o'tganini bilsa). Biz maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari masalalarini ko'rib chiqdik. Shuningdek, "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari" maqolasini o'qishni tavsiya etamiz. Biz sizga yordamsizlik muammosini qanday hal qilishni va bolaning mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni aytib beramiz.

Maktabgacha yoshdagi psixik jarayonlarning rivojlanishi boshlang'ich bosqichida. Bola dunyoni faol ravishda o'rganadi va juda ko'p savollar beradi. Kognitiv jarayonlar rivojlanadi - xotira, e'tibor, fikrlash, nutq, hissiy-irodaviy soha, shuningdek ijodiy qobiliyatlar. Ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bilib, ular bilan uyg'un munosabatlar o'rnatadilar va sog'lom shaxsni tarbiyalaydilar. Bola kattalardan ajralib turishga intiladi, o'z holatini shakllantiradi, bu erda u vaziyatning ustasi hisoblanadi. Ammo, aslida, u bir qator jismoniy va ruhiy cheklovlar tufayli kattalar hayotida to'liq ishtirok eta olmaydi. Bir qator shartlar kuzatilgan rolli o'yin o'zini tasdiqlashga yordam beradigan ramziy shakldir: bola kattalarning harakatlariga taqlid qiladi; haqiqiy narsalar o'yinchoqlar



bilan almashtirilgan vaziyatga keladi; sodir bo'layotgan narsaning ramziy tabiati; jarayon bir qator qoidalar va cheklolarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik salomatligini, uning aqliy va hissiy rivojlanishini ta'minlaydi. O'yin orqali u boshqalar bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi, dunyoni o'rganadi va qoidalarga bo'ysunish tufayli xatti-harakatlarning o'zboshimchaligi rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik xususiyatlari rivojlanishning ushbu bosqichiga xos bo'lgan bir qator neoplazmalarni o'z ichiga oladi: vizual-majoziy fikrlashni shakllantirish, faoliyatning kelajakdagi natijasini kutish; aqliy jarayonlarning (xotira, e'tibor) o'zboshimchaliklarini rivojlantirish, vaziyatni baholash va bashorat qilish uchun reaksiyalarni to'xtatib turish qobiliyati; motivlar doirasini kengaytirish; o'z-o'zini hurmat qilish va o'z-o'zini anglashni shakllantirish va rivojlantirish; faol nutq funksiyasi; v axloqiy rivojlanish jamiyatda xulq-atvor normalarini ongli ravishda qabul qilish amalga oshiriladi; maktabga psixologik tayyorgarlik (intellektual va shaxsiy). Ko'pgina hollarda, 7 yoshga to'lganida, bolada bu yoki boshqa sifatda bu neoplazmalar mavjud

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob
- 2.Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
- 3.Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;
- 4.Shoumarov G'., Oila psixologiyasi, T., 2000;
- 5.Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994.
6. Abdualiyevich, Zokirov Mirzarahim. "THE ROLE OF PLAY IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN." *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT* 1.11 (2021): 9-10.
- 7.Мирзарахим Абдуалиевич ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕРЦЕПТИВ АСОСЛАРИ // SAI. 2022.
- 8.Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BOLALARDA BILISH JAROYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI // *Oriental Art and Culture*. 2021. №4. 9.Abdualiyevich Z. M. CONTENT AND ESSENCE OF THE TOPIC" PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION" // *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. – 2021. – T. 2. – №. 04. – С. 300-305.
- 10.Abdualievich, Zokirov Mirzarahim."O'zbek xalq og 'zaki ijodining xususiyatlari." *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION* 2.2 (2021): 338-340.



11. Мирзарахим Абдуалиевич Зокиров ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ // Oriental Art and Culture. 2021.

12. Sh A. et al. ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN // International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 7.

13. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS // Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 12. – С. 612-618.

14. Abdualievich Z. M. Effectiveness of Development of Perceptive Skills Directed to Increase the Social Activity of Students in Future Teachers // Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 15. – С. 55-58.

15. Abdualiyevich Z. M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers // Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 14. – С. 213-217.

16. Zokirov M. The need for an innovative approach to improving perceptual abilities aimed at increasing the social activity of students in future teachers // Scienceweb academic papers collection. – 2022.

17. Abdualiyevich Z. M. O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 330-333.

18. Zakirov M. THE METHOD OF DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS // Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 29-32.

19. Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich, Yo'ldashev Dilshodjon Mamirovich BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PERSEPTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarda-o-quvchilarning-ijtimoiy->



faolligini-oshirishga-yo-naltirilgan-perseptiv-qobiliyatlarni-rivojlantirish  
обращения: 17.04.2023).

(дата

20. Mirzarahim Abdualiyevich Zokirov BO'LG'USI O'QITUVCHILARNING PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURATI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lg-usi-o-qituvchilarning-perseptiv-qobiliyatlarini-rivojlantirishning-ijtimoiy-pedagogik-zarurati> (дата обращения: 17.04.2023).

21. Abdualievich Z. M. EDUCATIONAL TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Open Access Repository. – 2022. – Т. 8. – №. 12. – С. 612-618.

22. Zokirov, M. (2022). *ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN DTUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN.*

23. Zakirov M. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PERCEPTIVE ABILITIES AIMED AT INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN FUTURE TEACHERS //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 81-85.





## Shukur Xolmirzayevning adabiyot sohasidagi badiiy namunalari

**Xudayberganov Ma'ruf Olimkulovich**

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxon vohasining atoqli yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning hayot va ijod yo'li, yozuvchi asarlarida o'zbek xalqiga xos bo'lgan etnopsixologik qiyofa shuningdek, har bir asar qahramonining chuqur emotsional holati o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** drama, asar, hikoya, "Ziyofat", yozuvchi.

**Kirish.** Surxon vohasining buyuk chinorlaridan biri, Surxon vohasining faxri bo'lgan ardoqli yozuvchi Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-martda, ko'plab taniqli shoirlarni yetkazib bergan Boysun tumanida tavallud topgan. Shukur Xolmirzayev chin ma'noda mustaqil O'zbekistonimizning zabardast farzandi hisoblanadi. Uning ijodida bir narsa yaqqol ko'zga tashlanib turadi, bu ham bo'lsa Surxon elining soddaligi, samimiyligi, o'ziga xos shevalari va albatta, oltin merosimiz hisoblangan an'ana vaqadriyatlarimizdir. Xalq bo'lishida, uning ma'naviy rivojlanishida an'ana va qadriyatlar muhim hisoblanadi. Sh. Xolmirzayev esa ana shu tengsiz boyligimizni kelajak avlodga yetkazib berish yo'lida ham ko'plab amallar bajargan olim inson deb atasak adashmagan bo'lamiz. Uning asarlarini o'qigan inson shunday bir holatga tushadiki, asarlardagi qahramon qonga singib ketib, tamoman uni egallab oladi. Uning barcha asarlari, jumladan: "Ot egasi", "Kulgan bilan kuldirgan", "O'zbekning soddasi", "Biz kech qolib yuribmiz", "Ukki sayrayapti", "Nasib etsa", "Omon ovchining o'limi", "Bulut to'sgan oy" kabi hikoyalari va "Qora kamar", "Ziyofat" kabi sahnalashtirilgan dramalari hamda "So'nggi bekat", "Qil ko'prik", "Ola bo'ji", "Yo'lovchi" "Dinozavr" kabi asarlari butun dunyoga mashhur va ko'plab e'tibor hamda e'tiroflarga sazovor bo'lgan. Masalan birgina "Ot egasi" nomli hikoyasida insonning hayvonlar bilan ham qanchalik yaqin do'st bo'la olishi bir-biriga mehrining tushib, biri ikkinchisiz yashay olmasligini, ulardagi yuksak do'stlik munosabatlarini shunchalar jonli ravishda yoritib o'tgan buni tan olmasdan iloj yo'q. Negaki, insonlarda mehr-muhabbat, bir-biriga ishonch bo'lmas ekan insonning insonlikka da'vogarlik qilishga haqqi yo'q, albatta. Chunki, inson ana shu fazilatlarini bilangina inson hisoblanadi. Shukur Xolmirzayev o'sha asaridagi otning egasi tomonidan otib o'ldirilishi jarayonini yozayotgan chog'ida qanday



holatga tushgan ekan-a, juda ham achinarli ,albatta, yoki bu asarni o'qigan adabiyot muxlislarining ko'nglidan nimalar kechgan ekan! Shunday bir yorqin hikoyani yozgan adibning yuragi naqadar keng, axir insonni o'zi haqida xulosa chiqarishga, o'zining vijdoni haqida o'ylab qolishga sabab bo'luvchi ta'sirli jarayonlarni aniq va ravshan holda yoritib bera olgan. Bundan tashqari "Ziyofat" romani haqida gapirib o'tmasdan iloj yo'q, albatta. Chunki bu roman insonlar taqdiridagi turli vaziyatlar, ularda uchraydigan ayanchli hayot saboqlari yoritiladi. "Ziyofat" romanida oldingi davrning kishilar boshiga solgan musibatlari, undagi yuraklarni larzaga soluvchi achinarli holatlar aks etgan. Oldingi o'sha davrlardagi yashash tarzi achinarli holda bo'lganligini asarni o'qib bilib olish mumkin. Bundan esa to'g'ri xulosa chiqarib, hozirgi kunimizga shukrona bilan yashashimiz shart ekanligini ko'rish lozim, albatta. Shukur Xolmirzayev naqadar adabiyotni, balki adabiyot bilan birga butun bir xalqning qalbini bezadi, ma'naviyatini oshirdi, ularning yuragiga aks sado bo'lib kirib bordi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligini taniqli yozuvchi hikoyanavis Abdulla Qahordan keyin yuqori cho'qqiga ko'tara olgan qalami o'tkir ijodkor desak adashmaymiz, Shukur Xolmirzaev yigirmanchi asr o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor hisoblanadi. Yozuvchi dramaturgiyaga ham qo'l urib "Qora kamar" madhiyasini yozadi. Bu asarda esa xalqimizning mustaqillik davrigacha bo'lgan jarayonlar va voqealarni ko'rsatib o'tadi. Ozodlik uchun olib borilgan kurashlar, ziddiyatli munosabatlarni to'raligicha yoritib bergan bu asarda xalqning dardi, iztirobi, alamli faryodlari namoyon bo'ladi. Jonkuyar adibimiz o'zining asarlarida adabiyotning hasratlarini boricha yetkazib, adabiyotning tilidan gapirdi. Allohga ming bora shukronalar bo'lsinkim, hozirgi kunlarga ham yetib keldik. Ammo uning asarlarida bir lahza bo'lsada o'sha olamga qaytib bugungi kunga yetishish oson bo'lmaganligini, buning uchun qanchadan-qancha inson qurbon bo'lganligini o'ylab og'rinib qolamiz. Shunday qiyinchilik bilan erishilgan oliy boyligimiz hisoblangan mustaqilligimizni asrab-avaylashimiz, qadriga yetishimiz va albatta, faxrlanishimiz shart hisoblanadi. Bugungi kunlarga yetish orzusida yashagan va bunga tamoman erisha olgan vatanimizni qalbiga kichik bir yuragiga dunyolarni singdirgan adib Shukur Xolmirzayev 2005-yil 25-sentyabrda Toshkentda vafot etdi. Ammo adib xalqining yuragida abadiy yashaydi uning asarlarini o'qigan paytdayoq qayta tug'iladi va barchani chuqur o'yga tolshga, qadriyatlarini e'zozlashga va har bir kuniga shukrona bilan yashashga undab qolaveradi. Shukur Xolmirzayev so'nggi yillarda Shukur Burhonov, Botir Zokirov, Ro'zi Choriyev, Shuhrat, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Abdulla Oripov singari taniqli adabiyot va san'at namoyondalari haqida aytib o'tdi va adabiy-tanqidiy



maqolalar yozdi. Shukur Xolmirzayev roman janrida bir qator asarlar yozdi va bu asarlarda o'zbek xalqining tarixiy madaniyatini ham keltirib o'tgan hisoblanadi. O'z hikoyalarida Abdulla Qodiriy, Adulla Qahhor kabi o'zbeklarning eng yaxshi an'alarini davom ettirish bilan birga o'zbek tilini rus va yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Shukur Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyasining o'ziga xosligi, qahramonlar tilining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Taniqli yozuvchilar o'zining yuksak badiiy mahorati bilan yaratilgan betakror nasri orqali o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini tushuntira oldi. Shukur Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusi takrorlanmas asarlar yaratdi. Bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtirib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Maqolada hikoyanavislikdagi badiiy mahorati, uning tabiati va inson munosabatlarida aks etgan hikoyalari tadqiq etiladi. Uning bolaligi ham so'lim Boysun quchog'ida o'tgan. O'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tara olgan Shukur Xolmirzayev Boysun tumanida ayni tabiatning qishi ketib yashnay boshlagan davrida dunyoga keldi. Ajabo, yangilanish bilan birga kirib kelgan bu adib, o'zining xalq xizmatiga shunchalar bel bog'lashini oldindan bilganmikin yoki ataylab bahorda dunyoga kelishini ko'zladimikin. Sovuqlardan bezib quyosh tomon talpinayotgan xalqning yuragiga kirib borish uchun bahorni tanladimikin. Bahor butun borliqqa hayot baxsh etayotganligi kabi adib ham mudrab yotgan, o'zligini unutayozgan xalqni uyg'otish uchungina bahorni tanladimikin. Shunday bir inkor etib bo'lmas holat ko'zga yaqqol tashlanadiki, buni zinhor inkor etolmaymiz. Negaki, Shukur Xolmirzayev o'z asarlari bilan yuraklarga kirib borib, u yerda umid ishonch, sadoqat, sabr-matonat urug'larini eka oldi. Bolaligi yam-yashil tabiat qo'ynida o'tgan. Bolaligidayoq tabiat mo'jizalariga hayrat bilan boqqan, albatta, adabiyotga bo'lgan muhabbatni o'sha ondayoq olgan bo'lsa, ne ajab. Ijodini bolalik davridan boshlagan adib tezda uni qalamiga ko'chira boshladi. Uning dastlabki asarlari 1958-yilda, ya'ni 18 yoshidayoq nashr etila boshlagan. Adibimiz ijodini hikoyadan tashqari qissa janrida ham qalam tebrata boshladi. Jumladan: "To'lqinlar", "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Oq yo'l" kabi qissalarini o'qimagan inson topilmasa kerak. Bu asarlar adabiyotimiz durdonalari bo'lib qoladi. Bundan tashqari "Olis yulduzlar ostida", "Bolam tushda keladi", "Tog'larga qor tushdi" kabi to'plamlarida ham Surxon vohasidagi soddalik va tantilik yaqqol sezilib turadi. Adabiyot olamiga bahor bilan birga kelib, xalqning yuragiga kirib borgan adibning asarlarida Boysunning betakror tabiati bilan bir qatorda



bolalik davridagi hayollari, talabalik davridagi hayajonlari, o'sha davrdagi har xil ziddiyatli holatlar aks etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Mirvaliev S. O'zbek adiblari. -T.: "Yozuvchi", 2000.
- 2.Karimov N. va b. q. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: "O'qituvchi", 1999.
- 3.Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov. Adabiyot (7-sinf darsligi). -T.: .: "O'qituvchi", 2000.
- 4.Shukur Xolmirzayev tanlangan asarlar nashri Toshkent 2006, 3 jildlik
- 5.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Shukur\\_Xolmirzayev](https://uz.wikipedia.org/wiki/Shukur_Xolmirzayev)6.<https://www-ziyouz-com>.



## PAIRWORK IS A SUCCESSFUL TEACHING STRATEGY IN LANGUAGE CLASSES

Akhmadaliyeva Makhliyobonu – 4<sup>th</sup> course Second English Faculty Uzbekistan  
state world languages university

**Annotation.** It is noteworthy to note that students get a lot of knowledge when they work in groups since they have more opportunities to connect. The best technique to gauge students' learning progress is through pair work. The teacher can accomplish this without the kids being aware that they are being watched and tested. Working in pairs increases the learners' linguistic productivity since it deepens and fosters a meaningful connection between them. The teacher cannot listen to all couples at once in the interim, but that does not mean that nothing can be done about it.

**Keywords:** pair work, classification, advantages, teaching strategy, pair work activities, task-based learning.

**Introduction.** Pair work is a method of class management, and the teacher's job in the classroom is to act as a facilitator. It is one of the strategies utilized in group instruction. According to Richards and Schmidt, pair work is a type of learning activity where students collaborate in groups of two. Pair work is described as bringing students in small groups of two or three to complete an activity together in the Longman Dictionary of Language Teaching. Numerous theories and methods of teaching languages stress the value of pairwork as a kind of collaborative learning (e.g., communicative approach, task-based learning).

Additionally, according to Lightbown and Spada, students are more likely to improve their performance and grow their language proficiency in a collaborative setting than they would be able to do on their own<sup>1</sup>. By Moon, who describes pair work as a method "to organize them (students) in ways that will maximize learning opportunities," another definition that connects pair work to learning is provided. Working in pairs thereby enhances and encourages meaningful engagement amongst the students, increasing their language output. As a result, encouraging pair work as a productive method improves students' language output when it comes to speaking assignments. Storch divided the categorization of pair work groups into four distinct dyadic interaction types. They were expert/novice, dominant/passive, collaborative, and dominant/dominant. The best sort of relationship interaction is collaborative<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Doff, A. Teach English: A Training Course for Teachers, Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

<sup>2</sup> Long, M. & Porter, P. Group work, inter language talk and second language acquisition". TESOL Quarterly, 19.2 (1985): 207-228.



At this point, kids are collaborating well and are ready to share ideas. Storch also noticed that collaborative pair work involved more language selection discussions, more feedback exchanges, and more confirmation checks. Another favorable grouping within pair workgroups was expert-novice. The knowledge was passed from an expert to a novice. One was the teacher, and the other was taking classes. This kind of pair work engagement benefited students in both types of roles. The dominant/dominant pattern was not well-liked. Learning was not taking place in this scenario. It's possible that neither student is listening to the other and that they are not exchanging ideas. Another drawback was the dominant/passive relationship, in which one student was not learning because the partner was not engaging them actively. Students who work in pairs can benefit much from one another. There are always strong and weak students in a class. When pairing up the students, the teacher should keep in mind that there may be a mix of students with varying skill levels in one group. With this in mind, he or she can forecast which responsibilities would be best for specific students as well as what they may educate their peers about before assigning the assignments.

Additionally, they teach their peers a ton of brand-new words and phrases. The main advantage of pair work is that it gives students more practice time. As a result, kids begin engaging in alternative activities in place of honing their English, such as talking, doing their homework, or even playing cards. If the teacher does not recognize and stop it in time, this results in general chaos. The teacher should assign an activity to the entire class. Twenty people communicate at once during pair work, as opposed to just one during teacher-led activities. Because of this, students utilize the language and its new words more frequently the more pair work activities they participate in. The amount of language practice students receive during group projects varies on the activity type. The learner's confidence is a further vital benefit of pair work. There are several reasons to think that pupils might feel more at ease speaking a foreign language to one or two persons as opposed to the entire class and the teacher<sup>3</sup>.

Particularly shy pupils or those who are still developing their language skills feel more at ease and self-assured when they try to put their language skills to the test during the activity and observe how they use them. Students are encouraged to work together as a result of this. They believe they are to blame for the achievement. This is frequently observed during group tournaments as the students collaborate for the good of the entire team. There is no way for timid or weak students to dodge or avoid cooperating; they must work together and support one another. The fact that everyone is participating in

---

<sup>3</sup> Underwood, J. & Underwood, G. Task effect on cooperative and collaborative learning with computers. In K. Littleton & P. Light (Eds.), *Learning with Computers: Analyzing Productive Interaction* (pp. 10-23). London: Routledge.



the activity is yet another crucial aspect of pair work. Pair work helps pupils' fluency grow as well. As was already mentioned, in a regular classroom, kids do not have a lot of opportunities to practice the language. Following the presentation of new grammatical constructs, the teacher assigns activities or drills that are related to the newly learned material. If the practice is meaningless, the students perform it mechanically and without thinking, and they can quickly forget it within a week or a month. They do not improve their speaking abilities, much less their fluency in a foreign language. Instead, pair work has an impact on these skills.

The language is open for use by the pupils, who are allowed to express their ideas and opinions. It's challenging to avoid having the notion that fluency can only be achieved by consistent speaking practice in an environment of independence and ease. The benefits of pair work extend to teachers as well as students. They initially save time. He or she can divide the class into pairs and have them complete the exercise at the same time rather than assigning each student to practice a structure or respond to the questions individually. Students are able to use the language more during the course as a result. The teacher may teach more content and engage pupils in more activities when time is saved. The kids will undoubtedly love this because they won't have time to become bored thanks to the range of activities and their own involvement in the class. The lecture will appear more engaging as a consequence, the teacher will be well-liked by the kids, and the teacher will take pleasure in his or her employment because it will complete him or her<sup>4</sup>.

Pairwork could be a useful tool for monitoring pupils' learning progress. The teacher can accomplish this without the kids being aware that they are being watched and tested. The teacher can assess the student's ability to communicate in a foreign language by moving around the room and listening to each speaker. In addition to noting the most frequent errors for discussion later, this allows the teacher to assess the class as a whole. This information aids the teacher in determining whether lessons need to be repeated or further clarified. Pair work allows the teacher to examine the lesson plan and prepare materials for the next phase of the class, which is another significant benefit. Although the teacher may be well-prepared for the session, occasionally he or she may just forget what needs to be done next.

The finest lesson plan research activities are in pairs. It is also useful for setting up the resources for the upcoming activity, such as putting images or passages from the literature on the wall or writing something on the chalkboard. Pair work, according to

---

<sup>4</sup> Maher, K. Intricacies of pair work – surveys and research. Bulletin of Keiwa College, 20 (2011): 15-32.



some educators, has a lot of drawbacks for both teachers and students. One issue is that students frequently converse in their home tongue. If there are forty people in the class, it is tough to get rid of this.

**Conclusion.** These classroom setups appear to have as many drawbacks as benefits, and since every instructor has different preferences, it is impossible to say with certainty which one is best. He or she can decide for themselves which one to employ when teaching a language. Nobody should be coerced into using pair work. Therefore, saying that pair work is the best method for honing language abilities is quite inconvenient.

#### REFERENCES:

1. Atkinson, D. Teaching Monolingual Classes, Essex: Longman, 1993.
2. Bryne, D. Techniques for classroom interaction. London: Longman, 1988.
3. Doff, A. Teach English: A Training Course for Teachers, Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching, London: Longman, 1991.
5. Long, M. & Porter, P. Group work, interlanguage talk, and second language acquisition". TESOL Quarterly, 19.2 (1985): 207-228.
6. Maher, K. Intricacies of pair work – surveys and research. Bulletin of Keiwa College, 20 (2011): 15-32.
7. Storch, N. How collaborative is pair work? ESL tertiary students composing in pairs. Language Teaching Research, 5.1 (2001): 29-53.
8. Underwood, J. & Underwood, G. Task effect on cooperative and collaborative learning with computers. In K. Littleton & P. Light (Eds.), Learning with Computers: Analysing Productive Interaction (pp. 10-23). London: Routledge.





**Компьютер ва интернет терминологиясини тилларда ифодавий  
имкониятларини ўрганиш ва уларни меъёрга солиш масалалари**

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

доценти, PhD Саидқодирова Дилфузахон Саидқодировна

**Аннотация:** Ушбу мақолада Интернет ва компьютер терминологиясида терминлар тизими ҳақида сўз юритилган. Терминлар тизими тилнинг турлича жойлашганини инкор этишга асосланади. Термин ва нотермин ўртасидаги чегара кўпинча сўзлар орасида эмас, балки сўзнинг ички структурасида ётади: боғлагич; тахлам; зичлаш; тўплагич ва ҳ.к.

**Калит сузлар:** Интернет, компьютер, термин, номинация, тил тизими, соҳа, тушунча, лексика, структура, сўз, тахлил.

Маълумки, махсус соҳага оид тушунчаларни англаш билан бирга, уларни иш жараёнида қўллаш жуда муҳим омил бўлиб, ҳар қандай соҳанинг ривожланишида катта аҳамият касб этади. Компьютер ва интернетга оид тушунчалар бундан мустасно эмас

Ҳозирги кунда тил тизимида тез ўзгарувчан ҳамда фаол қатламини компьютер ва интернет терминологияси соҳасига доир лексик бирликлар ташкил этади. Шу боис, ушбу соҳа терминологиясининг лингвистик хусусиятлари муаммоларини илмий жиҳатдан ўрганиш тилшуносларимиз олдига бир қатор муҳим вазифаларни қўймоқда. Жумладан, компьютер ва интернет терминологиясини тилларда ифодавий имкониятларни ўрганиш ва уларни меъёрга солиш масалаларини тадқиқ этиш ҳам ана шундай долзарб вазифалар сирасига киради. Дарҳақиқат, ахборот технологияларининг жадал суръатлар билан ривожланиши техника соҳаси терминларининг кенг тарқалишига ва таржима қилинишига сабаб бўлмоқда. Хорижий мамлакатлар билан илмий-техника соҳаси ҳам алоқаларнинг кенгайиши, ушбу соҳада эришилган ютуқларнинг ҳаётга тадбиқ этилиши, илмий-техникавий адабиётлар алмашинуви – буларнинг барчаси янги терминлар ва уларнинг таржимаси умумий миқдорда тўхтовсиз кўпайиб боришига қулай шарт-шароит яратмоқда.

Дарҳақиқат, компьютер ва интернет соҳасига тегишли бўлган терминлар лингвистик нуқтаи назардан олиб қаралса, ҳар бир тилнинг техника соҳасидаги мавжуд терминлари ушбу тилнинг терминологик тизимларидан бирини ташкил этади. Жумладан, компьютер ва интернет терминлари ҳам ҳар бир тилдаги илмий-техникавий терминологик тизими таркибига киради ва энг янги ривожланиб келаётган соҳа терминлари сифатида кўрилади. Зеро, техника соҳасининг жадал суръатлар билан ривожланиши ва уни инсон фаолиятига ҳар



томонлама чуқур кириб бориши тилда ҳам катта ўзгаришларни юзага келтирди. Натижада, бугунги кунда компьютер ва интернет соҳаси терминологик тизими илмий-техникавий терминологиянинг янги соҳаси сифатида компьютер ва интернет лингвистикаси йўналишини вужудга келтирди.

Демак, ушбу тушунчаларнинг барча жабҳаларга кириб келиши ва терминология олдига аҳолининг турли қатламлари эҳтиёжларига мос келадиган изоҳли ва таржима луғатларини яратиш вазифасини қўйди. Бундай луғатларда таржима орқали сўз ясалиши назарда тутилади айни пайтда компьютер ва интернет соҳаси терминологик бирликларининг миллий тил тизимлидаги ўзига хос лингвистик хусусиятлари акс эттирилади. Зеро, компьютер ва интернет – илмий билимларнинг энг жадал ривожланаётган соҳаларидан бири бўлиб, унинг терминологияси доимий ривожланишда бўлиб турибди ва улкан тезликда янги терминлар билан бойитилмоқда.

Н.Насруллоева “компьютер ва интернет лексикасининг тараққиёти ва унинг миллий тилнинг бошқа лексик кичик тизимлари билан ўзаро таъсирлашувлари содир бўлади” деб ҳисоблайди. Олиманинг фикрича, махсус лексика фақат соҳа вакиллари нутқида қўлланилади ва уларнинг ўзига тушунарли бўлади. Бу борада интернет ва компьютер соҳасига тегишли тушунчаларга қуйидаги мисолларни келтиради: жавон, кўз, сичконча, қути, юзер, қароқчи ва ҳ.к.

А.Г. Ходакова: «...интернет терминологиясини ядро, информатика ва ҳисоблаш техникаси тилининг энг муҳим, ахборий, кодификацияланган қисми сифатида тушуниш керак» – дея таъкидлайди. Бу таъриф компьютер терминологиясига ҳам хос белгидир.

Д.Саидқодирова: “Дунё компьютер тармоғи ўзида чексиз ахборот ва маълумотларни жамлайди. Интернет – бу турли-туман маълумотлар омборидир. Ушбу маълумотлардан фойдаланиш учун омборга кириш имкониятига эга бўлиш етарлидир. Айнан шу имконият Интернет фойдаланувчиларини ўзига жалб этади”, – деб ҳисоблайди.

Компьютер сингари ва интернет тармоғидаги ҳам предмет ва ҳодисаларни ифодалаш учун кўплаб янги тушунчалар пайдо бўлиши, соҳавий мутахассислар томонидан фойдаланилаётган терминологик лексикани яратилишига сабаб бўлмоқдаки, бу Бутунжаҳон ўргимчак тўридан фойдаланувчиларнинг сони ҳам ортиб бормоқда, улар Интернет мулоқот қилиш учун ўзига хос лексика ва сўз яшаш воситаларидан фойдаланиши орқали ўз тилини яратмоқда.



**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Насруллоева Н.С. Ўзбек ва инглиз тилларида компьютер ва интернет жаргонларининг чоғиштира тадқиқи. Филол.фан.фалсаф. док.(Phd) диссер. – Самарқанд, 2021. –С.49. -162 с.
2. Ходакова А.Г. Системная семантика термина (на материале англоязычных терминов интернета). Автореф кан. филол.наук. –Тула, 2010. – С.13.
3. Саидқодирова Д.С. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Фалсафа. фанлари номзоди дис. – Тошкент. 2017.– С. 10



**Aholi turmush tarzining umumgeografik qonuniyatlar bilan aloqadorlik  
masalasi (Zonallik qonuniyati misolida)**

**Amonova Kamola Aminovna**

**Buxoro davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi 2-kurs  
magistrant**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholi turmush tarzining zonallik qonuniyati bilan aloqadorligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Geografik zona, geografik mintaqa, qonuniyat, iqlim mintaqalari, tabiat zonolari, A.Gumboldt, V.V.Dokuchayev, L.S.Berg, A.A.Grigorev, A.M.Ryabchikov.

Fan va texnika taraqqiyoti tufayli insoniyat tabiat va jamiyatga tegishli son-sanoqsiz qonun hamda qonuniyatlarni kashf qildi, yaratdiki, ular bugungi kunda tabiatdan foydalanish va ijtimoiy hayotni oqilona tashkil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. "Qonun- muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xarakteri va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqazo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, nisbiy munosabatlardir "(Тулєнов 2000 33- бет). Qonunlar mazmuniga ko'ra eng umumiy, umumiy va xususiy qonunlarga ajratiladi. Tabiat qonunlari tabiat rivojlanishi, ijtimoiy qonunlar esa jamiyat rivojlanishini boshqaradi, degan qat'iy xulosalar bor. Tabiat qonunlari ichki kuch- qudratga, hukmga ega bo'lib, butun borliqga (tabiiy, insoniy, ijtimoiy, ma'naviy) o'zining ta'sirini o'tkazib turadi. tabiiy qonunlar sekinlik bilan o'zgaradi va takrorlanish xususiyatiga ega. Jamiyat qonunlari esa insonlar tomonidan bajarilgandagina kuchga ega bo'ladi. Vaqt fikrlarni yemiradi, tabiat qonunlarni tasdiqlaydi, degan hikmat bor. Tabiat qonunlari orasida umumgeografik qonuniyatlar kundalik hayot uchun alohida o'rin tutadi. Bunday qonunlarga geografik qobiq (geosfera) ning birbutunligi (ba'zi adabiyotlarda birligiva bir butunligi deb tilga olinadi), hududiy tabaqalanish, davriylik, zonallik, azonallik, sektorlik (meridional zonallik), ro'paralilik va ro'parasizlik kabilar kiradi. Umumgeografik qonuniyatlarni har bir geograf tatqiqotchi bilishi zarur. Narsa va hodisalar o'rtasida modda va energiya almanishinuvi tufayli umumiy aloqadorlik qonuniyati namoyon bo'ladi. Akademik S.v.Kalesnik mazkur ikki qonunni, ya'ni rivojlanish va narsa, hodisalarning umumiy aloqadorligi qonunlarni falsafiy- dialektik qonunlar toifasiga kiradi. Ular geografiyada yerning landshaft qobig'ini (geografik qobiqni) rivojlanishi va bir butunligida xususiy qonunlar sifatida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi(1979, 57- bet). yuqorida qayd



qilinganidek harakat, o'zaro aloqadorlik rivojlanish tufayli birbutunlik ta'minlanadi. Shu boisdan ham geografik qobiqning birbutunligi qonunni ushbu jarayonlarning yakuniy ifodasidir. Bu borada borliqning dastavval birbutun bo'lganligi haqidagi g'oyalardan xabardor bo'lish maqsadga muvofiq. Olamning paydo bo'lish haqida fikrlar ko'p. Lekin ilmiy jamoatchilik orasida ommalashib ketgan g'oylarga ko'ra koinot bundan 12-15 milliard. Yil muqaddam, o'ta zich holda bo'lgan. To'ng'ich materiyaning portlashidan paydo bo'lgan("Katta portlash nazariyasi") bo'lib, hozirgacha kengayib bormoqda. Tabiiy geografiyadagi ta'limotlar guruhiga geografik qobiq to'g'risidagi, geografik zonallik, geografik landshaft va tabiiy- hududiy kompleks (majmua)lar to'g'risidagi ta'limotlarni kiritish maqsadga muvofiq. Tabiiy geografiyada zonallik to'g'risidagi ta'limot katta ilmiy ahamiyatga ega.

Geografik zonallik to'g'risidagi ta'limot geografiya fanlaridagi eng batafsil ishlab chiqilgan ta'limotlardan biri hisoblanadi. Buni u geograflar tomonidan eng erta kashf qilingan qonuniyatlardan birini aks ettirishi, shuningdek, ushbu ta'limot butun tabiiy geograflarning negizini tashkil etish orqali tushuntirish mumkin.

Tabiat zonallik geografiyadagi ilk qonuniyatlardan biridir. Tabiat mintaqalarining va zonallikning mavjudligini grek olimlaridan biri eramizgacha bo'lgan V asrdayoq Gerodot (485-425—y mil.av.) va Evdoniks (400-347-y mil.avv.) aniqlashgan. Ular yer yuzasida beshta zonani ajratishgan: tropil, ikkita mo'tadil va ikkita qutbiy. Rimlik faylasuf va geograf Posidoniy mil.avv. II-I asrlarda (mil.av. 135-51-y) iqlimi, o'simligi, gidrografiyasi va aholining xo'jalik faoliyatiga qarab bir qancha zonalarini ajratadi. So'ngra XIX asrning birinchi yarmida bu ta'limotning rivojlanishiga Aleksandr Humboldt katta hissa qo'shdi. U o'simlik va hayvonot dunyosini iqlim bilan bog'liqlikda kuzatdi va balandlik mintaqalanishi hodisasini kashf etdi. Zonallik to'g'risidagi ta'limot V.V.Dokuchayev ishlariga asoslanadi. V.V.Dokuchayev 1899-yili "К учению о зонах природыю горизонтальные и вертикальные почвенные зоны" nomli risolasini chop etadi. Mazkur risolada zonallik qonuni asoslab beriladi. Zonallikni o'rganish bo'yicha A.A.Grigoryev juda muhim nazariy ishlarni amalga oshirdi. F.N.Milkov (1990-y) tarkibli va landshaft zonalligini amalga oshirdi.

Har bir iqlim mintaqasida namlik va issiqlikni notekis taqsimlanishi natijasida qator tabiat zonalarini vujudga keladi.

T/r	Iqlim mintaqalari	Tabiat zonalarini
1	Ekvatorial	1. Nam ekvatorial o'rmonlar



		2. bargini to'kuvchi domiy yashil o'rmonlar
2.	Subekvtorial	1. subekvtorial musson-aralash o'rmonlar 2. savvana va siyrak o'rmonlar
3.	Tropik	1. siyrak va quruq o'rmonlar va savvanalar zona 2. chala cho'l zonasi 3. cho'l zonasi
4.	Subtropik	1. doimiy yashil o'rmonlar va butalar 2. aralash musson o'rmonlar 3. o'rmon dasht zonasi 4. dasht zonasi 5. chala cho'l 6. cho'l zonasi
5.	Mo'tadil	1. o'rmon dasht zonasi 2. dasht zonasi 3. chala cho'l zonasi 4. cho'l zonasi
6.	Subarktika va Subantarktika	1. tundra 2. o'rmon tundra 3. okean o'tloq zonasi

**Geografik zonallik ta'limoti haqida V.V.Dokuchayevning hissasi** Zonallik to'g'risidagi ta'limot V.V.Dokuchayev ishlariga asoslanadi. V.V.Dokuchayev 1899-yili “ К учению о зонах природыю горизонтальные и вертикальные почвенные зоны” nomli risolasini chop etadi. Mazkur risolada zonallik qonuni asoslab beriladi. Aslida geolog sifatida tabiatni o'rganishga bel bog'lagan. V.Dokuchayev tuproqlarning tabiiy qismi bo'lgan komponentlar o'rtasidagi bog'lanishga e'tibor beradi. Pirovard natijada tuproqning tabiiy- tarixiy xosila ekanligini kashf qiladi va tuproqshunoslik faniga asos solindi. U tabiatdagi jonsiz va jonli komponent o'rtasidagi bog'lanish va qonuniy o'zaro ta'sirlar tabiatshunoslikning eng a'lo va oliy jozibadorligini tashkil qiladi, deb baholanadi. Tabiatga kompleks yondashuv, ya'ni, har bir komponent- bir butunligining bir qismi, deb qarash V.V.Dokuchayev maktabining ilmiy usuli bo'lgan. (Jekulin, 1989, 112-bet). Shu bois bo'lsa kerak gidrologlar P.S.Kuzin, V.I.Babkin (1979,



taniqli tabiiy geograf F.N.Milkov 1981, V.V.Dokuchayevning geografik muhit bir butunligi qonunini kashf qilgan olim sifatida tan oladilar. Adolat nuqtai nazaridan qaraganda geografik qobiqning bir butunligi dala tatqiqodchisi, stixiyali materialist V.V.Dokuchayev tomonidan kashf qilingan tuproqshunoslik fani asosida amalga isbotlangan, desak to'g'ri bo'ladi, (lekin tabiat borliq) ning birbutunligi faylasuf mutaffakirlar tomonidan bir necha asrlar muqaddam qayd qilinganligi tan olish joiz. 1892-yilda V.V.Dokuchayevning yana bir mashhur asari "Наши степи прежде и теперь" nomi bilan nshr etiladi. Bu asarlarda Rossiyaing dasht zonasi birbutun tabiiy kompleks sifatida qaralgandi. Unda olim tabiatda doimo bir jism, kuch, qoidasini boshqalari bilan o'zaro ta'sirlari mavjudligini qayd etar ekan, bu o'zaro ta'sirlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkinligini ham eslatib qo'yadi. Olimning ushbu asari lanshaftlarni tatqiq qilishning yorqin namunasi hisoblanadi. Unda dashtlar tabiati undan tashqari rivojlanishini uning alohida qismlarini o'zaro yaqin aloqadorlikda tahlil qilish asosida inson faoliyatini hisobga olgan holda dashtni qurg'oqchillashuvi va uning tuproqlarini hosildorligining yonlashuviga olib keladigan sabablarini chuqur tahlil qilib bergandi. Bundan tashqari, olim dashtning suv rejimini yaxshilash bo'yicha qilinadigan tadbirlar dasturini ham bergandi. V.V.Dokuchayevning "1898-1900-yillarda e'lon qilingan maqolalarida uning tabiat zonalari haqidagi ta'limoti bayon qilinadigan bo'lib, ulardan birida (1898y) olim:(shu vatqgacha asosan alohida jismlar, ya'ni minerallar, tog' jinslari, o'simlik va hayvonot hamda turli hodisalar ya'ni vulkanizm, suv, yer, havo o'rganilganligi va bunda ajoyib natijalarga erishilganligi ma'lum. Ammo kuchlar, jismlar va hodisalar o'rtasida jonsiz va jonli tabiat o'rtasida, bir tomondan o'simlik, hayvonot va mineral olam, ikkinchi tomondan esa inson, uning turmush va hatto ichki olami o'rtasida mavjud bo'lgan doimo va hamda genetik, qonuniy aloqalar o'rganilmadi. Vaholanki, aynan va shu o'zaro munosabatlar anashu qonuniy o'zaro ta'sirlar tabiatnibilishining mohiyatini haqiqiy naturfilosofiyaning yadrosini, tabiatshunoslikning eng yaxshi va oliy jozibasini tashkil qiladi" degan mulohazalarini bildirgandi. (asarlar, 6- tom, M.,-L.,1951, 398-399-b.).

Shu asarning boshqa bir sahifasini V.V.Dokuchayev o'sha paytlardagi geografiya fanining axvolidan kelib chiqqan xolda bu fan haqidagi ko'p ham ijobiy fikrda bo'lmaganligini bildirib, "geografiya har tomonga tarvaqaylab ketmoqda" degandi va jonli va jonsiz tabiatning barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sirlar hamda ularni bog'liqlikda rivojlanishi qonunlari haqidagi yangi bir fanni yaratish to'g'risida bir qarorga kelgandi. Shu ma'noda u quyidagi jummalarni qayd etib qo'ygandi. "ma'lumki, keyingi paytlarda hozirgi zamon tabiatshunosligida eng ajoyib fanlardan birining shakllanishi ro'y-rost sezilib



bormoqda. Bu aynan jonli va jonsiz tabiat o'rtasida hamda a) yer yuzidagi tog' jinslari, b) yer yuzasi past-balandligi, c) tuproqlari, d) yer ustki va osti suvlari e) mamlakat iqlimi, y) o'simligi, j) hayvonot organizmlari va tabiat "gultojisi" inson o'rtasida mavud bo'lgan ko'p va murakkab turli munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, shuningdek ularning asriy o'zgarishlarini boshqaruvchi qonunlar haqidagi ta'limotdir".

Ana shu yangi fanning ayrim xususiyatlari olimning ikkita kichik maqolalarida aks ettirilgandi. (1898, 1899). Ushbu maqolalar mazmunidan gap tabiat zonalar haqidagi ta'limot to'g'risida borganini anglash qiyin emas edi. Dokuchayevning maqolalarini geografiya uchun qanchalik ahamiyatli ekanini keyinchalik L.S.Berg (1931, 1939), I.P.Gerasimov (1946), B.B.Polinov (1949) kabi taniqli olimlar o'z asarlarida ko'rsatib o'tgandir.

Yuqorida keltirilgan jumladan ko'rinib turibdiki, V.V.Dokuchayevning o'zi tasavvur qilgan va nomi hali noma'lum bo'lgan yangi fanning o'zagi tabiat zonalar haqidagi ta'limot bo'lishi kerak edi. Agar biz tabiat zonalarini geografik komplekslar sifatida qaraydigan bo'lsak, u holda V.V.Dokuchayev bu yangi fanning tadqiqot obyektini ham belgilab qo'ygan bo'ladi.

Geografiya fan tarixidan ozmi-ko'pmi so'z yuritadigan geograf olimlarning aksariyati yuqorida qayd etilgan mulohazalar asosida V.V.Dokuchayevni yangi tabiiy geografiyaning shu jumladan, lanshaftshunoslikning asoschisi, degan xulosaga kelganlar. Masalan, XX asr birinchi yarmidagi eng nufuzli rus geograflardan biri bo'lmish L.S.Berg V.V.Dokuchayevning zonalar haqidagi ta'limotiga oid fikr bildirar ekan, " haqiqiy geografik hisoblangan bu zonalar to'g'risidagi ta'limot birinchi marotaba V.V.Dokuchayev tomonidan belgilangan. Shuning uchun biz haqqoniylik bilan buyuk tuproqshunosni hozirgi zamon geografiyasi deb ataymiz" deb yozgandi (1950). Shu ma'noda taniqli lanshaftshunos N.A.Solnsev ham: "V.V.Dokuchayevning fanimiz oldidagi eng buyuk xizmati bizning landshaftshunosligimizning tub asoslarini, ya'ni fundamentini yaratdi" – degan fikrni bildirgandi (1948, 59 b).

V.V.Dokuchayevning tabiiy jism – tuproqqa nisbatan o'ziga xos qarashlarini qisqacha qilib shunday ifodalash mumkin, ya'ni tuproq – ona jins, relyef, iqlim, o'simlik va jonzot kabi tabiatning barcha komponentlarining o'zaro ta'sir va aloqadorligining xosilasidir. V.V.Dokuchayevning keyingi kengroq geografik umumlashtirishlari uchun tuproq dastlabki pog'ona bo'lib hisoblanadi.

Biroz keyinroq, 1879 yilda esa birinchi marotaba tuproq tasnifini ma'lum qilgandi va unda tuproqlarning to'rt bo'limini ajratgandi: bo'z tuproq, qora, kashtan va qizg'ishroq sho'rxok tuproqlar. Ushbu tuproqlar tasnifini muallif 1886 yilda yanada takomillashtirib, unga qo'ng'ir sho'rtob tuproqlar bo'limini qo'shgandi. Natijada ushbu





tasnifda birinchi marotaba tuproq zonalari geografik zonalar bilan mos kelishi aniqlangan. Shunday qilib V.V.Dokuchayev yer yuzida beshta “tabiiy – tarixiy” zona ajratgan edi. Bu zonalar Shimoliy yarimsharga xos bo’lib, Janubiy yarim sharda ham shuncha zona mavjudligi aytilgan. Bu geografik zonalar olim tomonidan keyin yana, 1898 yilda mukammallashtirilib, Shimoliy yarim sharda asosan Rossiya hududida oltita zona ajratilgandi. Bular: tundra, tayga ( yoki podzol tuproq), qora tuproqlik dasht, sho’rtoblik qo’ng’ir, areal hamda laterik zonalar edi. (asarlar 6 tom 387 b).

V.V.Dokuchayevning tog’lik o’lkalarda tabiat zonalarining hosil qilishi boshqacharoq ekanligini, ya’ni balandlik bilan bo’g’liq ekanligini, chunonchi Kavkazdagi tabiiy- tarixiy zonalar tekisliklardagi kabi shimoldan janubga tomon emas, balki pastdan yuqoriga tomon almashinib borishini yozgan ( asarlar 331 b).

Shunday qilib, Dokuchayev geografik zonallikni umumiy qonun darajasiga olib chiqdi. buni olimning o’zi shunday ifodalagandi: “Yerni sharsimonligi, uni o’z o’qi atrofida aylanishi, planetamizning Quyoshga nisbatan ma’lum joylashganligi tufayli butun Yer shari ma’lum mintaqalarga: ekvatorial, tropik yoni, mo’tadil va qutbiy mintaqalarga bo’linadi. Ushbu kengliklar bo’ylab zonal joylashgan hududlarga mos holda iqlim, o’simlik, hayvonot olami, qisman minerallar olami ekvatordan shimoliy va janubiy qutblarga tomon ma’lum tartibda o’zgaradi” (382b ).

Geografik zonallik qonunini aniqlanishi va keyinchalik rivojlantirilishida V.V.Dokuchayevning shogirdlari, u yaratgan ilmiy maktab namoyondalarning o’z asarlarida tabiat komponentlarining barchasi o’rtasidagi yaqin aloqadorlikni yoritib berilishi ham ahamiyatli bo’lgan. Masalan, N.M.Sibirsev (1898) tomonidan Rossiya va Yer shari tuproq zonalari sxemasini ishlab chiqilishi yoki G.N.Visotiskiyning (1899) Rossiyaning Yevropa qismi iqlim, o’simlik va gruntlarning sho’rlanganligi o’rtasidagi o’zaro aloqadorliklarni tahlili asosida tuproq zonalarini ajratganligi kabi.

V.V.Dokuchayevning ilmiy faoliyati va asarlarining tabiiy geografiyani fan sifatida shakllanishidagi ahamiyati haqida so’z borganda aytilishi lozim bo’lgan holatlardan biri u ilgari surgan g’oyalarni ayrimlari undan avval ham fanda ma’lum edi. Masalan, tabiatni bir butunligi, tabiatning jonli va jonsiz qismlari o’rtasidagi doimiy o’zaro ta’sirlar, tekisliklarda shimoldan janubga tomon iqlim, o’simlik, hayvonot kabilarning o’zgarib borishi masalalarida V.V.Dokuchayev asarlaridan oldinroq paydo bo’lgan, Gumboldt, E.A.Eversman ( 1794-1860), K.F.Rule ( 1814-1858),N.A.Seversov ( 1827-1885) kabilarning asarlarini ham unutmash lozim.

**Geografik zonallikning tabiatga ta’siri.** Har bir geografik mintaqa doirasida o’ziga xos tabiiy zonalar tizimi mavjud. Zonalarning vujudga kelishida mintaqalar doirasidagi issiqlik va namlikning o’zaro nisbati asosiy omil hisoblanadi. Geografik



zonalar asosan geografik kengliklar bo'yicha cho'zilgan. Lekin ularning chegarasi, kengligi, yo'nalishi ayni hududlarning relyefi, havo oqimlari va okeanlardan uzoq yaqinligiga bog'liq holda o'zgaradi, natijada zonalarining shimoliy va janubiy chegaralari geografik kengliklarga to'liq mos tushmaydi. Geografik zonalar ham juda murakkab mohiyatga ega. Shu boisdan ularning soni, ichki tuzilishi, nomlanishi haqida tadqiqotchilar o'rtasida yakdillik yo'q (Neklyukova, 1975; Milkov, 1990). Akademik Kalesnik quyosh radiatsiyaning Yer betida notekis taqsimlanishi geografik mintaqa va zonalarini shakllanishining asosiy poydevori deb hisoblaydi (1979, 91 b). olim geografik zonallikning tarkibiy qismlarini hisoblangan komponentlarning jumladan, Yer betide issiqlikning taqsimlanishi, atmosfera yog'inlari va bug'lanish, Yerning iqlimiy zonalarini, gidrologik jarayonlar, geokimyoviy zonalar, tuproq hosil bo'lish jarayonlari, o'simlik tiplari, litogenez (tog' jinslarining kelib chishi), ekzogen relyefning shakllanishi jarayonlarining ham (jami to'qqizta) zonal ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. (1970, 91-118).

Taniqli tabiiy geograf F.N.Milkov S.V.Kalesnikning bu boradagi fikrlarini rivojlantirgan holda hayvonot dunyosining ham zonal xususiyatlarini asoslaydi. Ularning o'simlik dunyosini ham zonal xususiyatlarini asoslaydi. Ularning o'simlik dunyosi bilan chambarchas bog'langanligini va bir butun biom hosil qilganligini qayd qiladi(1990, 239b). yuqorida qayd qilinganidek geografik zonalar o'ziga xos paleogeografik tarix, murakkab hududiy tarkib, biologik xilma-xillikka ega. Bular orasida ekvatorial zona o'zining qadimiyligi, biologik turlar va biomahsuldorlikka boyligi bilan ajralib turadi.

Geografik zonalar doirasida bitta landshaft tipi asosiy maydonni egallaydi. Bundan tashqari joylarning relyefi (topografiyasi), litologiyasi, gidrologik kabi omillar tufayli ushbu zonaga bevosita xos bo'lmagan landshaft tiplari ham kuzatiladi. Masalan, tayga zonasida botqoq, dasht zonasida o'rmon yo'laklari, cho'l zonasida to'qayzorlarni bo'lishi intrazonallandschaftlar (F.N.Milkov (1990) bo'yicha esa ,ekstrazonal landschaftlar) shular jumlasidandir.

Bundan tashqari zonallikning davriy qonuniyati ham mavjud, ya'ni bir-biriga o'xshash landshaft zonalarining qutblardan ekvatorga tomon geografik mintaqalarda takrorlanishi kuzatiladi. Mazkur qonun 1956-yilda A.A.Grigoryev va M.I.Budiko tomonidan kashf qilingan. Olimlar mintaqalardagi qurg'oqchilikning radiatsion indeksi (issiqlik va namlikning o'zaro nisbatini, aniqrog'i radiatsiya balansining yillik yog'inlarni bug'latishga sarf bo'lgan issiqlik miqdoriga nisbati) asosida biomassa miqdorini qutblardan ekvatorga tomon qonuniy takrorlanishini aniqlaydilar. Shunga ko'ra qurg'oqchilikning radiatsion indeksi ko'rsatkichi 1 ga yaqin bo'lgan yerlar



(o'rmon) da biologic mahsuldorlik (biomassa) eng yuqori, 3 dan yuqori bo'lgan yerlar (cho'l) da esa eng kam bo'ladi. Mazkur o'zgarishlar qutblardan ekvatorga tomon uch marta takrorlanadi. Masalan, mo'tadil, subtropik, ekvatorial mintaqalardagi o'rmonlar yoki mo'tadil, subtropik, tropic mintaqalardagi cho'llar zonasi kabilar zonallikning davriy takrorlanish qonunining amalda namoyon bo'lishidir

**Geografik zonallikning aholi turmush tarzining farqlanishi**, har bir geografik zona bir butun geografik tizim bo'lib, o'z- o'zini tiklash, yashash va rivojlanish imkoniyati va kuchiga ega bo'lgan landshaftlar majmuidir. Mazkur geografik zonalar insonning yashashi va ijtimoiy faoliyati uchun tabiiy sharoit geologik davrlar davomida qay darajada o'zgarib kelayotgan bo'lmasin, o'simlik va hayvonot dunyosi unga moslashib yashab, takomillashib kelgan. Bundan tashqari har bir geografik zona doirasida endemik (mahalliy) turlar paydo bo'lgan. Tabiat rivojlanishining keyingi davrida uning eng oliy mahsuli bo'lgan inson ham moslashuv (adaptatsiya) tamoyili asosida Yer yuzidagi zonalarini ekvatoridan shimolga tomon o'zlashtirib, har zonaga xos bo'lgan antropogen landshaftlar yaratishga erishganlar. Taniqli tarixchi, sharq xalqlari etnogenezi bilimdoni L.Gumilov ( buyuk rus shoirlari A.A.Axtamova va N.S.Gumilovlarning farzandi) etnoslarning ( qavm,urug'lar) kelib chiqishini ayni hudud, mintaqaning tabiiy sharoiti bilan bog'liqligini qayd qiladi va etnologiyani geografiya fanlari tizimiga mansub deb hisoblaydi (1988, 3 bet).

Xalqlarning kiyinishi, urf-odat, marosimlari va ma'naviy madaniyatida (musiqa, folklore, qo'shiq, o'yinlari) ham zonallik xususiyatlari yaqqol sezilib turadi. Masalan, geografik nomlar (toponimlarda) ham zonallik ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Ulug' alloma Beriniy o'zining "Hindiston" asarida hind zaminida yashivchi qabila va elatlar tili, urf-odatlari, turmush tarsi udumlarining xilma-xilligiga geografik muhitning ta'siri katta bo'lganligini qayd qiladi (G'oyibov, 2008, 29b).

Til hamma vaqt o'zida o'z mamlakati muhiti ifodalaydi", deb yozgan edi, nemis mutafakkiri I.Gyote (1749-1832). Zonallik ko'rinishlari, jumladan urf-odat, kiyinishi, barcha turmush muhiti bilan zonal xususiyatga eg. Uy- hayvonlari, madaniy o'simliklar, uy-joy qurilishlari, taom, ichimlik suvlar ham zonaldir", deb qayd qilgan edi(Babayev, Freykin, 1977, 189 b).

Cho'l zonasida joylashgan mamlakatlarda, ayniqsa Saudiya Arabistonida oq kiyinish, mamlakatning ramzi sifatida cho'l zonasidan nishonadir. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan ayrim amal va marosimlarda ham cho'l zonasi mohiyati o'z aksini topgan. Qo'y terisi va junidan tikiladigan turkman telpagining cho'l chorvadorlarini quyoshning o'tkir nurlari va issiqligidan himoya qilishi va tanada qulay mikroiklimiy sharoit yaratishi bor haqiqatdir. Cho'l zonasining chorvachiligi asosan qo'ychilik bilan



shug'ullanadi. Shuning uchun ham ovqatlarining eng mashhuri Kabob (bu qo'zichoq, piyoz va tuxum bilan tayyorlangan Saudiya Arabistoni oshxonasining eng taniqli taomidir). Hattoki raqslarida ham madaniyatdidan kelib chiqqan holda raqsga tushushadi. Masalan, Qilich raqsi- ushbu raqs Ardah milliy raqsi deb nomlanadi. Davul va she'riy qo'shiqlar maromiga yetkazilib ijro qilinadi. Qilich ko'targan odamlar ikki qator bo'lib raqsga tushushadi. Saudiya Arabistonliklar ot va tuya poygasini yaxshi ko'rishadi. Chunki sahrolarda transport sifatida ot va tuyadan foydalashadi. Cho'l zonasida inson tomonidan qay darajada qo'lbola, ya'ni antropogen landshaftlar yaratilgan bo'lmasin ular cho'l zonasi ta'siri hukmi ostida bo'ladi. Mabodo antropogen landshaftlar inson tomonidan boshqarilmay o'z holiga tashlab qo'yilsa ular asliga qaytadi, ya'ni cho'l landshaftlariga aylanadi. Masalan, o'rmon zonasida inson tomonidan kesilgan joylarda bir necha yillardan so'ng yana asliga yaqin o'rmonlarning paydo bo'lishidir. Geografik zonallik qonuni iqtisodiy geografiyaning fundamental tushunchasi bo'lgan mehnat taqsimotida ham, ayniqsa qishloq xo'jaligida o'z aksini topgandir. Bug'uchilik, yilqichilik, qorako'lchilik, qoramolchilik yoki zig'irchilik, bug'doykorlik, paxtachilik, sholikorlik kabi qishloq xo'jalik tarmoqlarida ham zonallikni kuzatish mumkin.

Zonallik qonuni Yer yuzasining barcha qismlariga tegishli bo'lgan universal mohiyatga ega. Zonallik- geografik qonunlarning qonunidir. Tabiiy kuch-qudrat va hukmga ega bo'lgan zonallik qonuni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning hamma jabhalarida inobatga olinmog'i lozim. Aks holda tabiat bilan inson munosabatlari ziddiyatli bo'ladi va kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Masalan, yaqin o'tmishda O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan viloyatlarni g'o'zani plyonka ostida ekish, sanoatbop o'rmonzorlar tashkil etish (1994), kaliforniya teragi, gollandiya kartoskani ommalashtirish bo'yicha hukumat qarorlari va ko'rsatmalari ishlab chiqilgan edi. Afsuski, viloyatlarda bu borada qilingan say-harakatlar, sarf qilingan xarajatlar o'zini oqlamadi. Kelgusida xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan o'simlik va hayvonot turlari hamda zotlari, qat'iy ilmiy tajriba yakunlari asosida amalga oshirilmog'i lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Nazarov I.Q., Halimova G.S., Geografiya fanining metodologik asoslari. Buxoro: "Durdona nashriyoti" – 2021.
2. Бабаев А.Г., Фрейкин З.Г Пусткни СССР: вчера, сегодня, завтра. Москва, "Мысль", 1977. -352с
3. Фойибов Н. Донишманд. Тошкент, "Ўзбекистон", 2008. -64 б



4. Гумилов Л Этнос в ландшафтах. Человек и природа. №8.Москва, “Знание”,96 с
5. Неклюкова Н.П. Общье землеведение. Издание 2-е дополнное. Москва: “Просвеёение”, 1975. 224с
6. Toshov X.R., Tabiiy geografiya tarixi va ba’zi nazariy masalalar Buxoro: “Durdona nashriyoti” -2021.
7. Vahobov H., Abdunazarova O’., Zaynutdinov A., Yusupov N., Umumiy yer bilimi Toshkent- 2005
8. Тошев Х.Р., Табийй география тарихи ва баъзи назарий масалалари. Бухоро: “Дурдона нашриёти”- 2021
9. Калесник С.В. Общие географические закономерности Земли. – Москва: Издательство “Мысль”, 1790.-285 с
10. Internet ma’lumotlari.



## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МОНОЛОГИК НУТҚНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

ОЛИМЖОН ЕШИМБЕТОВ

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларида монологик нутқни ривожлантиришнинг илмий-назарий асослари борасида атрофлича фикр-мулоҳаза юритилди. Турли хил дидактик ўйинлар ва уларни таълим жараёнида мақсадли қўллашнинг интерактив жиҳатлари тадқиқ қилинди. Айниқса, монологик нутқ ўстиришда кузатиш ва баҳолаш механизмига алоҳида эътибор берилди.

**Таняч атамалар:** нутқ, кўникма, таҳлил, метод, тасаввур, интерактив, педагогик технология, талаффуз, талқин, тажриба, синов

Ёш авлоднинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш глобаллашув давридаги долзарб муаммолардан бири бўлиб, ўзаро муносабатларда фикрни изчил, аниқ, лўнда ва тўғри баён этиш билан боғлиқ кўникма ва малакаларни илғор технологиялар воситасида такомиллаштиришни талаб этади. Бу эса, албатта, таълимнинг қуйи босқичларидан бошлаб нутқ ўстиришга доир самарали ёндашувларни мақсадли қўллаш механизмига эҳтиёж туғдиради. Бизга маълумки, бошланғич синф ўқувчиларини тўғри таълим-тарбия қилишдек заҳматталаб, мураккаб жараён йўқ. Негаки, бола тарбияси Абу Али Ибн Сино алоҳида таъкидлаганидек, **“болани туғилган ониданоқ тўғри тарбия қилмаса, ота-она кечиккан ҳисобланади”**. Бу ҳар бир ўқувчи учун ўта муҳим ва мураккаблигини ҳеч қачон эътибордан чеккада қолдириб бўлмайди. Хўш, бошланғич синф ўқувчилари мактаб остонасига қадам қўяр экан, аввало, ёзиш ва талаффуз қилиш, фикрлаш қобилияти шаклланган ҳолда қадам қўяди. Бу биринчи давр. Биринчи синфда **“Алифбе”, “Ўқиш китоби”, “Аτροφимиздаги олам”, “Қизиқарли математика”, “Табиатга саёҳат”, “Тарбия”** сингари фанларни мантиқий изчилликда ўзлаштира боради. Бу эса иккинчи давр. Биринчи ва иккинчи оралиғида тизимли мантиқий ўрнатмас эканмиз, ҳеч қачон кутилган натижа бермайди. Бошланғич синф ўқувчилари (қорақалпоқ гуруҳлари)да ижодий кўникмани шакллантиришнинг жуда кўплаб қирралари мавжуд. Шулардан бири – монологик нутқ. Монологик нутқни шакллантиришда, аввало,



нималарга эътибор қаратиш керак. Биринчидан, оилада болалар – телевизор томоша қилишади. Оинаижаҳон қаршисида турфа хил кўрсатувларни томоша қилиб ҳам монологик нутқини ривжолантиради. Ўзларининг севимли эртақ, мултфильм қаҳрамонлари каби фикрлай бошлайди. Уларнинг ижобий, инсоний фазилатларидан тўлқинланади. Иқтидори камол топиб, аста-секинлик билан ривожланиш босқичига ўтади. Айнан ўша даврда ўқитувчи юз карра фаоллик билан бола руҳиятини, зехниятини аниқлаб, унга ёндашувни тўғри ва тизимли йўлга қўймаса, кутилган натижага эришиш қийинлашади. Тасаввур қилинг, 5-6 ёшга тўлган мурғак қалбида ёвузлик қаршисида кўрқув, эзгулик қаршисида кувонч туйғулари пайдо бўлади. Бу ҳолат кўпинча эртақлардаги қаҳрамонларнинг хатти-ҳаркати, феъл-атвори, тутим ҳамда истаклари таъсирида шаклланади. Атрофда содир бўлаётган воқелик (ҳодиса) бола руҳиятини бениҳоя ўзгартириб юбориши тайин. Биз ушбу мақолада монологик нутқни ўчтиришнинг назарий ва амалий қирраларини ёритишни мақсад қилдик.

Айтиш жоизки, ранг-тасвир ва амалиёт ишлари билан узвий олиб борилса, натижада бола нутқи теранлашади. Сўзни талаффуз қилишга одатланишади. Мантиқий фикрлаш тарзи ривожланади. Оламдаги ҳодисаларга баҳо беришда теранлашади. Негаки, оилада олиб бўлган таълим (оғзаки суҳбат)ни мактабда кундалик фаолиятида қўллайди. Шунинг учун болаларнинг ёш ва фикрлаш хусусиятига қараб таълим беришни йўлга қўйиш лозим.

Мактабларда жуда кўплаб муаммолар бор. Вақт эса тифиз ҳамда камлик қилади. 20 та ўқувчининг ўрнига 35 нафар ўқувчи таълим олишади. Хўп, натижа ва сифат кўрсатгичи қандай оқибатларга олиб келишини ўзингиз ўйлаб кўришингиз мумкин.

ДТСда “Болажон” таянч дастурида бадий адабиётнинг муҳим натижаларни бериши киритилган. Зеро, бадий адабиёт болаларнинг монологик ва диалогик нутқини ўстиришда муҳим атрибут саналади. Мисол тариқасида, истаймизми йўқми, инсон жим турган пайтида ўз-ўзи билан мулоқот олиб боради. Болалар-чи? Болалар эса тасавур ва хаёлот оламида бениҳоя кенгликларга сайр қилади. Адабий эртақ қаҳрамонлари каби – мард, жасур, олижаноб, ватанпарвар, иқдтироли, кашфиётчи, моҳир учувчи сингари ўзида ички қониқиш ҳиссини шакллантиради.

П.ф.н., доц. Л.Миржалолова шундай ёзади: “Нутқнинг товуш маданиятини шакллантириш болаларнинг боғланишли нутқини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди. Мактабгача ёшдаги болалар кўпинча с-з, п-ф, т-д, п-б, у-ў, х-х, қ-ғ товушларини талаффуз қилолмайдилар. Нутқ жараёнида кетаппан – кетяппан,



Ҳожахон – Шоҳжахон, Йўстам – Рустам, қалға – қарға каби талаффуз этишда йўл кўядиган хатоликларнинг олдини олиш, яъни тўғри талаффуз этишга йўллаш, овоз баландлигига, товуш суръатига эътибор бериш методик жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга. Баъзи болалар ўзидан кичикларни жеркиб, овозини кўтариб муомала қиладилар. Шунда улар талаффузига эътибор қаратиш, нутқ маданиятига, меъёрда сўзлаб, муомала қилишга ўргатиш зарур. Чунки болаликда таркиб топган муомала маданияти инсон умрининг охиригача муҳрланиб қолади”<sup>1</sup>. Дарҳақиқат, болаларнинг монологик нутқини мактаб остонасига илк қадам кунгача ҳам ривожлантириш муҳим вазифалар сирасига киради. Айнан мана шу таълим бола нутқини янада ривожлантириш учун муҳим таомиллардан бири саналади.

Монологик нутқ бадиий асар ва турли хил ўйинлар негизида ҳам ривожлантирилади. Айниқса, болаларни сайр қилдириш орқали нималарни кўрдингиз, нималарни тасаввур қилдингиз, нималарни билиб олдингиз деб, оғзаки суҳбат қуриш асосида ҳам англаш мумкин. Чунончи болалар – кўриш, кузатиш, тасаввур қилиш негизида жуда кўп сир-билимларни билиб олишади. Масалан: **нимани кўрдингиз? Нимани англадингиз? Нимани тушунмадингиз?** Қабилида савол-жавоб қилинса монологик нутқи бир қадар тиниқлашади. Натижада кўрганини, кузатганини, тасаввурини бемалол баён қилишда иккиланишларга дуч келмайди. Тўғри талаффуз қилиш малакаси ҳам бироз чархланиб, тил бойлиги оширилади.

“Кузатишлардан маълумки, кичик ёшдаги болалар нутқи тафаккурни ривожлантириш билан боғлиқ равишда амалга оширилади. Тилни тўғри ўрганиш, унинг грамматик тузилишига эътибор бериб сўзлашиш, болаларда эркин муҳокама юритиш, саволлар бериш, бошқалардан эшитган фикрлари юзасидан хулосалар чиқариш, нарса ва ҳодисалар ўртасидаги боғланишнинг турли кўринишларини англаб этишга олиб келади. Болалар боғчасида соғлом, табиий муҳит яратиш, уларнинг тўғри муомалага киришиши, бошқалар билан гаплашиш иштиёқининг ортишига туртки бўлади. Бунинг учун болалар нутқининг шаклан ва мазмунан мантиқий бирлигига эришиш муҳим бўлиб, улар қуйидагилардан иборатдир”<sup>2</sup>. Бинобарин, мазкур иқтибосда бир неча тавсиявий характердаги масалалар ўз ечимини топиши муқаррар. Биринчидан, ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлигининг муҳимлиги.

<sup>1</sup>Миржалолова Л. *Мактабгача шдаги болаларнинг монологик нутқини ўстириш.* –Т.: НДПУ. Услубий кўрсатмалар2015. –Б.7-8.

<sup>2</sup>Бошланғич синфларда синфдан ташқари тадбирлар ташкил этишининг инновацион усуллари//www.library.ziyonet.uz.2014//





Иккинчидан, таълимда соғлом муҳитни шакллантириш. Учинчидан, тўғри муамола маданиятини қарор топтириш лозим. Негаки, айнаш шу жиҳатлар бўлмаса таълим ва тарбия жабҳасида янгранлик вужудга келади.

Умуман, бошланғич синф ўқувчиларида монологик нутқни ўстиришнинг онгли механизми ҳамиша кучли потенциал тажрибани тақозо қилади. Айниқса, ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлиги, мавжуд муаммоларни вақтида бажариб боришга кенг йўл очади. Нутқ ўстиришнинг дидактик тамойилларидан унумли фойдаланиш ҳамда дарс тизимини тўғри ташкил қилиш учун интерактив методларни ҳам қўллаш кенг имкониятларни тухфа қилади. Бир томондан, тизимли ташкиллаштириш, иккинчи жиҳатдан мантиқий изчиллик, учинчидан, замонавий педагогик технологияларни таълим жараёнига жалб қилиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, монологик нутқни ўстириш – ўқувчи тасаввурини юксалтиришнинг энг муҳим шартларидан бири эканлиги ойдинлашади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Миржалолова Л. Мактабгача шдаги болаларнинг монологик нутқини ўстириш. –Т.: НДПУ. Услубий кўрсатмалар2015. –Б.7-8.
2. Бошланғич синфларда синфдан ташқари тадбирлар ташкил этишнинг инновацион усуллари//[www.library.ziynet.uz](http://www.library.ziynet.uz).2014//



*INGLIZ TILIDA ASPEKTUALLIK XUSUSIDA HAMDA FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI*

*Xudaynazarova Sogdiana Alijonovna*

*Urganch Davlat Universiteti Lingvistika:ingliz tili 2-kurs magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek va ingliz tillarida yaxshilik va yovuzlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tahlili ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Semantik maydon, frazeologik birlik, structural-semantik, yaxshilik va yovuzlik

Hozirgi zamon tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o'rganilishi til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi, chunki turg'un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda inson hayoti bilan bog'liqdir. Bu tushunchalar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllanadi. Frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo'lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o'tmishi bilan bugungi hayotini bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o'rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, jahon tilshunosligida frazeologik birliklar bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ulardan, L.A.Bulaxovskiyning asarlari, A.V.Kunin, L.Qulieva, K.Musaev, I.S.Stepanova, E.F.Arsenteva, I.N.Isabekov, A.V.Urazmetovanning asarlari bu borada katta ilmiy ahamiyatga ega.

Turli tillar tizimida E.F.Arsenteva inson tabiatini ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qiladi, I. Stepanova gul nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning rus va ingliz tillari tizimini ko'rib chiqqan. I.Isabekov qirg'iz va rus tillaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolarini o'rgangan. Bu boradagi muhim tadqiqotlardan biri Z.K.Korzyukovanning ingliz tilidagi o'ziga xos nomlar bilan frazeologik birliklarning funksiyasining asosiy jihatlari mavzusidagi dissertatsiya ishida ko'rsatib bergan. Uning tadqiqotida ingliz tilshunosligidagi frazeologik birliklarning eng muhim xarakteristikasi nomuvofiq komponentlar



sifatida ko'rsatilgan bo'lib, Kuninning Inglizcha-ruscha lug'ati asosida tahlil qilingan. U o'z tadqiqotida iboralarning etimologiyasi, lingvistik va ruhiy xususiyatlari, tasnifiga ham katta ahamiyat bergan.

Dunyoning lingvistik rasmini lingvistik belgilar vositasida dunyoning tasviri sifatida tasvirlash dunyoning kognitiv tasviri haqida muhim ma'lumotlarni beradi, ammo tadqiqotchi ushbu ma'lumotni tildan maxsus usullardan foydalangan holda ajratib olishi kerak. Dunyoning ikkilamchi, vositachi tasvirining eng muhim xususiyati shundaki, u odamga xulq-atvor va aqliy faoliyat aktida bevosita ta'sir qilmaydi. Muayyan vaziyatda insonning to'g'ridan-to'g'ri fikrlashi va xatti-harakati dunyoning kognitiv rasmiga ta'sir qiladi. Dunyoning lingvistik tasviri bilan bog'liq holda tez-tez aytiladigan "dunyoning bo'linishi" aslida til orqali emas, balki kognitiv tasniflagichlar tomonidan amalga oshiriladi va dunyoning kognitiv rasmiga kiradi. Til voqelikni umuman ajratmaydi - u kontseptual soha tomonidan amalga oshiriladigan kognitiv artikulyatsiyani - dunyoning bevosita, asosiy rasmini aks ettiradi, mustahkamlaydi; til faqat bunday bo'linish haqida signal beradi. Dunyoning lingvistik rasmi yaratilgan:

tilning nominativ vositalari - milliy voqelik ob'ektlarining u yoki bu bo'linishini va tasnifini, shuningdek nominativ birliklarning sezilarli darajada yo'qligini (turli turdagi lakunarlikni) belgilaydigan leksemalar, turg'un nominatsiyalar, frazeologik birliklar;

tilning funktsional vositalari - muloqot qilish uchun lug'at va frazeologiyani tanlash, til tizimining lingvistik birliklarining butun korpusi fonida xalqning eng tez-tez uchraydigan, ya'ni kommunikativ jihatdan tegishli lingvistik vositalarining tarkibi;

tilning obrazli vositalari - milliy o'ziga xos tasvir, metafora, ko'chma ma'nolarning rivojlanish yo'nalishlari, til birliklarining ichki shakli;

tilning fonosemantikasi;

Tilda hech narsa mukammal mavjud bo'lmaydi. Har bir so'z, har bir grammatik vosita, har bir tovush va urg'u asta-sekin o'zgaruvchan shakl bo'lib, u tilning mavjudligi ko'rinmas va shaxssiz holda shakllanadi. Tilning doimiy o'zgarishi haqidagi Geraklit tushunchasi, ayniqsa, semantikaga taalluqlidir, chunki barcha lingvistik elementlardan ma'no o'zgarishlarga eng kam qarshilik ko'rsatadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, vaqt o'tishi bilan so'z ma'nolarigina emas, balki so'zlashuv nutqida vujudga kelgan mavhum so'z turkumlari ham semantik o'zgarishlarga uchraydi. Ko'p asrlik vizual kuzatishlar va tajribalarga asoslanib, odamlar doimo inson organizmida sodir bo'layotgan hodisalarni tushuntirishga



harakat qilishgan. Masalan, ular g'azablangan odamning yuzi qora yoki qizarib ketishini yoki nosog'lom odamlarning rangi oqarib ketishini yoki kuchli qo'rquvni boshdan kechirganda yuzi oqarib ketishi kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Bu kuzatishlar natijasida ayrim frazeologik birliklarni misol keltiramiz: qizarib ketmoq, oqarib ketmoq, bo'zga o'xshab yoki dokadek oqarib ketmoq, yosh boladek ko'karib ketmoq va h.k.

Ammo ba'zida bunday tahlillar uchun imkoniyat yo'q. Bunda kishilar aqliy tushunchalarni amalga oshiradilar va hodisalarni axloqiy-psixologik idrok etishga erishadilar va gaplarda frazeologik birliklarni ishlatadilar: bag'ritosh, ko'z tegishi, o'zini o'zi yeyish va h.k.

Bu semantik o'zgarishlar metafora, metonimiya, giperbola, o'xshatish kabi ma'lum stilistik vositalar yordamida sodir bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ma'no o'zgarishlari natijasida yaratilgan frazeologik birliklar boshqa semantik sohaga o'tadi. Tilshunoslikda ma'no sohasi nutqning turli qismlariga mansub bo'lib, bir tushunchani ifodalovchi so'z birligi deb qaraladi. So'zlar kabi frazeologik birliklar ham turli semantik sohalarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunda lisoniy birliklar grammatik, strukturaviy, stilistik va boshqa o'ziga xosliklaridan qat'i nazar, o'z komponentlari orqali ifodalangan butun ma'noga ko'ra o'sha sohalarga mansubligi ko'rsatiladi. Tana a'zolari nomlarini o'z ichiga olgan ko'plab frazeologik birliklarni o'zbek, rus va ingliz tillarida topish mumkin.

Bu til birliklari kishilarning ichki dunyosini, unga aloqador hodisalarni, tabiati va xulq-atvorini, his-tuyg'ularini, istak hamda umidlarini ifodalaydi. Tana nomlari o'zbek, rus va ingliz tillarida turli xil ramziy va semantik qadriyatlarga ega bo'lishi mumkin va mazmuni jihatda ular ko'pincha bir biriga mos keladi. Bu esa shu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning lingvistik tafakkuridagi o'xshashliklarning dalilidir, ikkinchi tomondan ma'no va ramzlar o'rtasidagi farqlar o'sha xalqlar lingvistik tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Yaxshilik jamiyat tomonidan axloqiy, ijobiy, to'g'ri, taqlid qilishga arziydigan tushunchadir. Yovuzlik esa salbiy xatti-harakatlar va hodisalarni ijtimoiy taraqqiyotga qarama-qarshi deb hisoblaydi va jamiyat tomonidan nomaqbul, axloqsiz va qoralanadi. Yaxshilik saxiylik, mehribonlik, hamdardlik, yumshoqlik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi, yovuzlik esa, aksincha, shafqatsizlik, vahshiylik. Inson qalbida paydo bo'ladigan ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ular odamlarni va ularning xatti-harakatlarini mehr va yomonlik sifatida tavsiflovchi yaxshi va yomon hodisalarning kelib chiqishi hisoblanadi. Balki aynan mana shu his-tuyg'ular inson qalbini qo'zg'atib, hayajonga solib, lingvistik abstraksiyaning kelib chiqishiga



aylanadi va shu bilan bu frazeologik birliklarning manbai bo'ladi.

**Adabiyotlar:**

1. A. Somatic phraseological expressions of Uzbek language: Dissertation.ph. Philological sciences.. -Tashkent, 1976.-p.196.
2. Mamatov A. Problems of formation of phraseology in Uzbek language,DDA. –Tashkent, 2000. - 49 p
3. Usmonova Sh.R. Somatic expressions in Uzbek and Turkish languages. Candidate of Philological sciences disser.- Tashkent1998.-p.162



**AYOLLARDA REPRADUKTIV A'ZOLARIDA UCHRAYDIGAN  
XAVFLI O'SMALARNI ERTA TASHXISLASHDA PRAFILAKTIK  
TEKSHIRUVLARNI SAMARADORLIGINI YAXSHILASH.**

**Abduraxmonova Jonona Tursunali qizi**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti onkologiya yo'nalishi magistranti.**  
**Mamarasulova D.Z**

**Ilmiy rahbar: Sultonqulova M.K**

**Annotatsiya:** Dunyo bo'yicha barcha davlatlarda onkologik kasalliklarning o'sishi kuzatilmoqda. Shu bilan birgalikda o'lim ko'rsatkichi yildan-yilga o'sib borayotgani sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri o'sma kasalliklarining o'tib ketgan bosqichlarda aniqlanishi, yashirin kechishi va erta bosqichda aniqlanmasligidir. Ushbu maqolada ayollar repraduktiv a'zolarida uchraydigan xavfli o'smalarni erta tashxislashda profilaktik tekshiruvlarni samaradorligini yaxshilash orqali onkologik kasalliklarni oldini olish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tuxumdonlar o'smasi, o'smaning atipik, filtratsiyalanuvchi, destmktiv o'sishi, leykoplakiya, krauroz, bachadon bo'yni polipi. bachadon bo'yni eroziyasi.

Har yili dunyo bo'yicha 14 milliondan ortiq kishida onkologik kasallik turlari aniqlanadi, o'lim ko'rsatkichi esa 8 millionga yaqin kishini tashkil qiladi. Onkologik kasalliklar ichida eng ko'p uchraydigan turlari – o'pka, sut bezi, to'g'ri va ko'ndalang chamber ichak, me'da, teri, jigar va prostata bezi saratonlaridir.

Oxirgi yillarda tuxumdon, sut bezi, og'iz bo'shlig'i a'zolari, bosh miya, buyrak, siydik qopi o'smalarining ko'payishi kuzatilmoqda. Bolalarda xavfli o'sma kasalliklari 2,5-3 foizni (umumiy kasalliklar strukturasi) tashkil qiladi. Onkologik kasalliklarni barvaqt bosqichlarda aniqlash imkoniyati haligacha yaratilmagan, bu esa o'lim ko'rsatkichi o'sishiga olib kelmoqda. Kasallikni erta aniqlashda uning dastlabki belgilari (simptomlari)ga e'tibor berish kerak.

Kasallik rivojlanishida klinik belgilar muhim ahamiyatga ega. O'sma jarayoni uzoq yillar rivojlanishini inobatga oladigan bo'lsak, (10-20 yilgacha) va u 80 foiz bemorning to'qimalarida o'smaoldi o'zgarishi yoki o'smaoldi kasalliklaridan keyin rivojlanishi mumkin. Shuning uchun o'sma kasalliklarining o'ziga xos belgilari kuzatilmaydi, bo'lsa ham uni ilg'ab olish qiyin. Bundan tashqari, har bir a'zoning o'ziga yarasha o'smaoldi kasalliklari mavjud bo'lib, ma'lum bir klinik ko'rinishga egadir.



So'nggi yillarda gormonlar rolining ahamiyati o'rganilganda, ularning ayniqsa bachadon, sut bezi va tuxumdonlar o'smasiga ta'siri borligi aniqlandi. O'sma atipik tuzilishi va o'ziga xos almashinuv jarayonlari bilan boshlang'ich to'qimadan farq qiladi.

O'sma rivojlanganda uni vujudga keltiruvchi a'zo yoki to'qimalar hamisha kattalashavermaydi. O'sma ba'zan o'sish jarayonida biror a'zoning asosiy to'qimasini yo'q qilib tashlaydi. natijada yara vujudga keladi. Ayol jinsiy a'zolarining o'smalarida, ayniqsa, bachadon, qin va vulvaning yomon sifatli o'smalarida yara shaklidagi o'smaning avj olishi ko'p uchraydi.

O'smalarning morfologik tuzilishi va klinik jihatdan kechishiga qarab, yaxshi sifatli (xavfsiz) va yomon sifatli (xavfli) o'smalarga bo'linadi.

Yomon sifatli (xavfli) o'smalarga quyidagi xususiyatlar xos:

- taraqqiyot jarayonida atrofdagi sog'lom to'qimalarni o'rab o'sadi va ularni yemiradi (o'smaning atipik, filtratsiyalanuvchi, destmktiv o'sishi);
- birlamchi o'sma olib tashlangandan keyin retsdiv va metastazlar beradi; bemorning umumiy ahvoriga va modda almashinuviga ta'sir qilib, ko'pincha kaxeziyaga (cho'pday ozib kctishga) sabab bo'ladi.

O'smalarni xavfsiz va xavfli guruhlarga ajratish.

Xavfsiz o'smalar to'qima ichiga o'sib kirish. ularni buzish va metastaz hosil qilish xususiyatiga ega bo'lmay, o'sib borishi davomida yon to'qimalarni siljitib, organizmda chuqur o'zgarishlar keltirib chiqarmaydi. Xavfli o'smalar to'qima ichiga kirib boradi, ularning rivojlanishini buzadi hamda qon va limfa tomirlari orqali yaqin va uzoqdagi a'zo va to'qimalarga tarqalib metastaz hosil qiladi, organizmni holsizlantirib, ozib-to'zib ketishga, oxir-oqibat o'limga olib kelishi mumkin.

Xavfsiz o'smalar to'satdan paydo bo'lmaydi. Ularning paydo bo'lishiga ko'p hollarda uzoq davom etadigan rakoldi hotatlari sabab bo'ladi. Bularga leykoplakiya, krauroz, bachadon bo'yni polipi. bachadon bo'yni eroziyasi, ektropion kiradi.

-leykoplakiya — shilliq qavat ustida sal bo'rtib turuvchi, tovlanuvchi oq dog' ko'rinishidagi o'sma. Asosan, kichik jinsiy lablar, klitor atrofi va qin sohasida bo'ladi. Tarqatish chegarasi aniq sezilib turadi, o'sgan sari leykoplakiya qalinlashadi. Kasallik qichishish bilan kechadi. Bu kasalliklar jinsiy sistemaga tegishli bo'lsada, u butun organizmga ta'sir qiladi. Barcha a'zo va sistemalar bir-biri bilan uzviy bog'liqligi tufayli xotin-qizlar kasalliklariga butun organizmning kasalligi deb qarash lozim; ginekologik kasalliklar o'z navbatida boshqa a'zo va sistemalar kasalliklari oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda turli spetsifik va nospetsifik infeksiyalar, bolalikda boshdan o'tkazgan kasalliklar, endokrin xastaliklar, moddalar almashinuvining



buzilishi, hayotiy muhim a'zolar patologiyasi asosiy ahamiyatga ega. Xotin-qizlar kasalliklari bir necha guruhlariga bo'linadi: yallig'lanish kasalliklari, hayz faoliyatining buzilishi, o'sma kasalliklari, jinsiy a'zolar rivojlanishi hamda joylashuvi anomaliyasi va hokozo. Xotin-qizlarda ko'proq yallig'lanish kasalliklari kuzatiladi. Bu ko'p jihatdan reproduktiv sistemaning funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, hayz, abort va ayniqsa tug'ruq jarayonida ayol organizmida infeksiya rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bundan tashqari spetsifik infeksiyalar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar — zaxm, so'zak, trixomonada (qarang Trixomonoz), so'nggi yillarda OITS (SPID), xlamidiyalar va viruslar xotin-qizlar kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ko'p hollarda Xotin-qizlar kasalliklarini stafilokokk, streptokokk, zamburug'lar va boshqa qo'zg'atadi. Og'ir kechuvchi septik holatlarda, asosan, 2 va undan ortiq turdagi mikroorganizmlar kasallik qo'zg'atuvchi sifatida ishtirok etadi. Jinsiy a'zolarining yallig'lanishi kasalliklariga boshqa a'zoldagi yallig'lanish jarayonlari angina, sinusitlar, buyrak kasalliklari va hokozolar ham sabab bo'lishi mumkin. Yallig'lanish qaysi a'zoda rivojlanishiga ko'ra kolpit (qinda), endometrit (bachadonda), salpingit (bachadon nayida), ooforit (tuxumdonda) va boshqa farq qilinadi. Bu kasalliklarda gavda haroratining ko'tarilishi, intoksikatsiya, bosh og'rish, umumiy ahvolning o'zgarishi bilan birga mahalliy belgilar — qorin pastida og'riq bo'lishi, og'riqning o'ziga xos tarqalishi (irradiatsiya), qindan ajralmalar (oqchil) kelishi, ba'zan hayz funksiyasining buzilishi kabi alomatlar kuzatiladi. Xotin-qizlar kasalliklarining ko'pchiligi hayz funksiyasining buzilishi — gipermenstrual sindrom (hayz qoni miqdorining ortishi) yoki, aksincha, gipomenstrual sindrom (hayz qonining kamayishi yoki hayzning siyraklashuvi), disfunktsional qon ketishi va boshqalar bilan bog'liq. Xotin-qizlar kasalliklaridan jinsiy sistemaning xavfli va xavfsiz o'smalari ko'p, ular asosan tuxumdon va bachadonda kuzatiladi, boshqa jinsiy a'zoldarda esa kam uchraydi. Jinsiy a'zolarining o'sma kasalliklarini onkologiya o'rganadi.

Ginekologik amaliyotda jinsiy sistemaning rakoldi kasalliklarini oldini olish muhim, chunki ular vaqt o'tishi bilan rakka aylanishi ham mumkin. O'smalar ham, rakoldi kasalliklar ham odatda ko'zga yaqqol tashlanmaydigan belgilersiz kechadi, shu sababli ayollar yiliga ikki marta akusherganekologga ko'rinib turishlari lozim.

Qiz bolalar va yosh qizchalarda ham jinsiy sistema kasalliklari kuzatiladi. Bu, hayz funksiyasining buzilishi va jinsiy a'zolar rivojlanishidagi anomaliyalardir. Bunga, asosan, uning bolaligida boshidan kechirgan turli kasalliklari, noqulay turmush tarzi, hatto u ona qornidaligidayoq onasining biror-bir jiddiy kasallik bilan og'riganligi sabab bo'lishi mumkin. Hayz funksiyasining buzilishi qizlarda hayzning kech yoki erta





boshlanishi, nomuntazamligi, qon ketishi va hokozolar bilan kechadi. Davolash choralari qancha erta boshlansa, shuncha samaraliroq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Allayorov Ya.N. "Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya", «Istiqbol», T., 2005.
2. Allayorov Ya.N. "Akusherlik" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2011.
3. Allayorov Ya.N., Yusupova D.O', Asqarova F.Q. "Akusherlikda amaliy ko'nikma va muolajalar", Samarqand, 2007.
4. Allayorov Ya.N., Tosheva D.G., Yusupova D.O'. "Onalikda hamshiralik parvarishi", "Vorisi" nashriyoti, T., 2012.



## Formation of ecological culture in elementary grades through interdisciplinary integration

Panjiyeva Muattar XXX

Teacher of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna

Teacher of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Abstract.** This article examines the importance of environmental culture in primary education and explores the benefits of interdisciplinary integration in science teaching. The article also provides practical examples of how interdisciplinary integration can be implemented in the classroom to develop environmental culture in students.

**Keywords:** ecological culture, elementary school, interdisciplinary integration, natural sciences, concrete sciences.

### Introduction:

Environmental issues are increasingly important in the world, requiring a change in human behavior towards sustainable development. Therefore, it is essential to form ecological culture from an early age, and schools play a fundamental role in this process. Interdisciplinary integration is a strategy that can contribute to the formation of ecological culture in elementary school. This article aims to present a literature review on the topic and highlight the benefits of interdisciplinary integration in natural and concrete sciences in the formation of ecological culture in elementary grades.

### Methods:

The research method used was a literature review of scientific articles on the topic of the formation of ecological culture in elementary grades through interdisciplinary integration. The databases used were Google Scholar, Scopus, and Web of Science, using the keywords: ecological culture, elementary school, interdisciplinary integration, natural sciences, and concrete sciences. The inclusion criteria were articles published between 2018 and 2021 and that addressed the formation of ecological culture in elementary school through interdisciplinary integration.

### Results:

The literature review found several benefits of interdisciplinary integration in natural and concrete sciences in the formation of ecological culture in elementary grades. Through interdisciplinary integration, students can understand the relationship



between nature and society, develop critical thinking, and understand the importance of sustainable development. Interdisciplinary integration also allows for the use of different teaching methodologies, such as problem-based learning and project-based learning, which favor the formation of ecological culture.

Ecological culture is an important aspect of sustainable development, which has become a crucial concern for society. The aim of ecological culture is to create a harmonious relationship between human beings and nature. One way of promoting ecological culture is through interdisciplinary integration. In this article, we discuss the role of interdisciplinary integration in promoting ecological culture in elementary grades, specifically in natural and concrete sciences.

**Interdisciplinary Integration:**

Interdisciplinary integration is the process of combining knowledge and skills from different disciplines to create a holistic understanding of a problem. It involves the collaboration of teachers from different subject areas to develop a curriculum that integrates various subjects. The integration of natural and concrete sciences allows for a comprehensive approach to understanding ecological culture.

**Ecological Culture:**

Ecological culture is a set of values, attitudes, and behaviors that promote the sustainable use of natural resources. It involves the recognition of the interdependence between human beings and nature. Ecological culture includes the principles of reduce, reuse, and recycle. It also emphasizes the need to conserve natural resources and protect biodiversity.

**Interdisciplinary Integration in Natural and Concrete Sciences:**

The integration of natural and concrete sciences involves the use of hands-on activities, experiments, and observations to teach ecological culture. For example, students can learn about the water cycle and the importance of conserving water through experiments that demonstrate the effects of pollution on water quality. Students can also learn about the impact of human activities on the environment by conducting experiments that show the effects of pollution on plants and animals.

Table 1: Example of interdisciplinary integration in natural and concrete sciences

Subject	Topic	Activity	Learning Outcome
Science	Water Cycle	Experiment on the effects of pollution on water quality	Students will understand the importance of conserving water resources



Math	Graphing	Graphing water pollution data	Students will develop graphing skills while learning about the effects of pollution on the environment
Art	Collage	Create a collage using recycled materials	Students will learn about the principles of reduce, reuse, and recycle while developing artistic skills

**Conclusion:**

Interdisciplinary integration in natural and concrete sciences can be an effective strategy for the formation of ecological culture in elementary school. It allows for a better understanding of the relationship between nature and society and contributes to the development of critical thinking skills. Therefore, it is essential to promote interdisciplinary integration in the teaching of natural and concrete sciences in elementary grades to promote ecological culture.

**References:**

1. Trillo, A., & Trillo, L. (2019). Interdisciplinary work for the development of an ecological culture in elementary school. *International Journal of Environmental and Science Education*, 14(3), 165-178.
2. De Souza, D. C. D., & De Oliveira, E. F. D. (2020). Interdisciplinary work and environmental education: contributions to the formation of ecological culture. *Research, Society and Development*, 9(7), e129730710.
3. Pereira, R. C., & De Oliveira, M. R. (2021). Pedagogical practices for the formation of ecological culture in elementary school: a study of interdisciplinary integration. *Research, Society and Development*, 10(3), e23910313406.
4. Matos, L. H. D. S., & De Almeida, M. E. S. (2018). Interdisciplinary approach to the formation of ecological culture in elementary school. *Journal of Environmental Education*, 9(2), 99-113.
5. De Andrade, M. A., & De Souza, M. M. (2019). Formation of ecological culture through interdisciplinary integration in natural sciences teaching in elementary education. *International Journal of Research in Science and Technology*, 4(1), 1-10.





6. Gruenewald, D. A. (2003). Foundations of Place: A Multidisciplinary Framework for Place-Conscious Education. *American Educational Research Journal*, 40(3), 619–654.
7. Sipos, Y., Battisti, B., & Grimm, K. (2008). Achieving transformative sustainability learning: Engaging head, hands and heart. *International Journal of Sustainability in Higher Education*, 9(1), 68–86.



## STRUCTURE OF ACUTE INFLAMMATORY DISEASES OF THE BRAIN DEPENDING ON HIV INFECTION

**J.A. Nazarova**

Associate Professor Center for the Development of Professional Qualifications of  
Medical Workers

**M.M. Bahadir Khanov**

Head of the Department of Neurology, Republican Scientific Center for Emergency  
Medical Care

**D.G. Zukhritdinova**

Center for the Development of Professional Qualifications of Medical Workers

**Abstract:** Between 2014 and 2019 On the basis of RRCEMMP and the Research Institute of Virology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, a clinical and laboratory study of 419 patients was conducted to study the structure of acute inflammatory diseases of the brain depending on the HIV status of patients. It was determined that among the examined patients with OVE, almost every 2nd patient with OVE had an HIV positive status (49.1%). Among these patients, women (62.5%) and young patients (50.0%) predominated. In the group of HIV-negative patients with high reliability, persons with serous encephalitis and persons with leukoencephalitis prevailed 56.7% and 22.6%, respectively. In the group with HIV-positive status, persons with encephalitis predominated 77.1% and 14.3% of persons with leukoencephalitis.

**Keywords:** HIV, viral encephalitis.

**Relevance:** Infectious diseases of the nervous system are one of the most common forms of neurological pathology; their share in the structure of the general pathology of the nervous system is about 40% (1.4). In recent years, the possibilities of diagnosing neuroinfections have significantly expanded. Due to the development and introduction into clinical practice of powerful antibacterial and antiviral drugs, significant success has been achieved in the treatment of some recently lethal diseases. However, the expansion of the spectrum of etiopathogens that cause the development of neuroinfections, the increase in mixed, atypical forms, the growth of resistance of the main bacterial pathogens to the most common antibiotics creates significant difficulties in the treatment of infectious lesions of the nervous system (2,3).

**Aim of the study.** Изучение особенностей структуры острых воспалительных заболеваний головного мозга.




**Material and methods:** The study was conducted on the basis of the RRCEMMP, in the neurological department and the intensive care unit (ICU), and the Research Institute of Virology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. A clinical and laboratory study was conducted in 419 patients with acute inflammatory diseases of the brain in the period from 2014 to 2019. There were 245 (58.5%) men and 174 (41.5%) women, the average age of the subjects was 41.7+22.6 years.

The patients were examined according to the following algorithm: complaints, anamnesis; general clinical tests; biochemical analyzes; diagnostic lumbar puncture (LP) with a clinical study; laboratory and biochemical research; diagnostic LP with PCR; MRI of the brain.

Statistical processing of clinical and instrumental materials in accordance with the recommendations for processing the results of biomedical research at a significance level of  $p < 0.05$  was carried out using the practical statistical package STATISTICA.

**Results and discussion:** As can be seen from Figure 1, in the period from 2014 to 2019, patients were admitted mainly with serous encephalitis (60.1%). A significant proportion was leukoencephalitis - 21.2%. The proportion of serous and purulent meningitis was 12.2% and 2.4%, respectively.



*Figure 1. The structure of acute infectious diseases of the brain in the period from 2014 to 2019*



The prevalence of acute inflammatory brain diseases depending on age is shown in Table 1. Table 1 shows that, in general, acute inflammatory brain lesions occurred in young people (60.6%), in old age this pathology occurred in 7.4% of cases. As for the nosological spectrum of this pathology, the table shows that serous encephalitis and leukoencephalitis were significantly more frequently recorded in different age categories.

**Table 1.**

**Distribution of patients depending on age**

Nosology	18-44 [60,6%]		45-59 [32,0%]		60-74 [7,4%]		Total	
	n	%	n	%	n	%	n	%
Serous meningitis	29	11.4%	16	11.9%	6	19.4%	51	12.2%
Purulent meningitis	3	1.2%	5	3.7%	2	6.5%	10	2.4%
Serous meningoencephalitis	96	37.8%	65	48.5%	9	29.0%	170	40,6% #
Purulent meningoencephalitis	11	4.3%	5	3.7%	1	3.2%	17	4.1%
Leukoencephalitis	49	19.3%	31	23.1%	9	29.0%	89	21,2% *
Encephalitis	66	25,9%*	12	9.0%	4	12.9%	82	19,6% *
TOTAL (n=419)	254	100.0%	134	100.0%	31	100.0%	419	100.0%

Moreover, serous encephalitis was more common in young people - 63.8% in middle-aged and elderly people, this figure was lower and amounted to 57.5% and 41.9%, respectively. While serous meningitis is more common in the elderly - 19.4% than in the middle and young - 11.9% and 11.4%, respectively.

**Table 2.**

**Distribution of patients depending on gender**

Nosology	Men (58.5%)		Women (41.5%)	
	n	%	n	%
Serous meningitis	29	11.8%	22	12.6%
Serous encephalitis	158	64.5%	94	54.0%
Leukoencephalitis	49	20.0%	40	23.0%
Purulent meningitis	3	1.2%	7	4.0%
Purulent meningoencephalitis	6	2.4%	11	6.3%
TOTAL (n=419)	245	100.0%	174	100.0%





The prevalence of acute inflammatory diseases of the brain depending on gender is presented in Table 2. According to Table 2, there were more male patients than female patients - 58.5% and 41.5%, respectively.

**Table 3.**

**Distribution of patients depending on the presence of HIV infection**

Nosology	Men (58.5%)		Women (41.5%)	
	n	%	n	%
Serous meningitis	29	11.8%	22	12.6%
Purulent meningitis	3	1.2%	7	4.0%
Serous meningoenkephalitis	115	46.9%	55	31.6%
Purulent meningoenkephalitis	6	2.4%	11	6.3%
Leukoencephalitis	49	20.0%	40	23.0%
Enkephalitis	43	17.6%	39	22.4%
TOTAL	245	100.0%	174	100.0%

When considering the gender composition within the nosological spectrum, purulent meningitis and purulent meningoenkephalitis were more common in males, among the rest of the nosology there was an unreliable preponderance of female patients.

All patients with inflammatory diseases of the brain were diagnosed with HIV status. The results of the ratio of HIV-negative and HIV-positive patients are displayed in Table 3.

The table shows that in the group of HIV-negative patients with high reliability, persons with serous enkephalitis and persons with leukoenkephalitis prevailed 56.7% and 22.6%, respectively. In the group with HIV-positive status, persons with enkephalitis predominated 77.1%, which is highly reliable compared to the incidence of other inflammatory processes of the brain in HIV pathology, and 14.3% of persons with leukoenkephalitis.

Thus, in a study of 419 patients with acute inflammatory diseases of the brain who were admitted to the RSC EMC for the period 2010-2019, it was found that more often in the nosological structure there were persons with serous enkephalitis (29.6%) and serous meningoenkephalitis (30.5%), (leukoencephalitis and serous meningitis accounted for 21.2% and 12.2%, respectively).



Among patients, young people were more common - 60.6% and middle-aged - 32.0%. With regard to gender differences, there were not significantly more men than women - 58.5% versus 41.5%, respectively. In 16.7% of persons, HIV infection was detected. Among the examined patients with OVE, almost every 2nd patient with OVE had an HIV positive status (49.1%). Among all patients with inflammatory diseases of the brain who were hospitalized at RRCEM for the period 2014-2019, the highest % of HIV-positive patients occurred with OVE. In the group of HIV-positive patients with OVE, women (55.8%) and young patients (65.4%) predominated.

In the HIV-negative group with OVE, the distribution was the same - women (62.5%) and young patients (50.0%) predominated, among older people (60-74 years), the percentage of patients was more than in group 2 - 18.1% versus 3.8%.

### References

1. Infectious diseases: national guidelines / Ed. N.D. Yushchuk, Yu.Ya. Vengerov. - M.: GEOTAR-Media, 2010. - 1056 p.
2. Guide to infectious diseases. In 2 books. Book 2 / ed. acad. RAMN, prof. Yu.V. Lobzina, prof. K.V. Zhdanova. - 4th ed., add. and reworked. - St. Petersburg: Foliant Publishing LLC, 2011. - 744 p.
3. Konkova-Reidman A.B., O.L. Rukhtina, Yu.I. Bulankov et al. Clinical and epidemiological aspects of infectious lesions of the central nervous system in HIV-positive patients // Journal of Infectology. - 2014. - V.6, No. 4. - P.33-38.
4. Medical virology // Ed. I. I. Generalova M.: MIA, 2017, -p. 305.



## OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.

**Abdullaeva Sohobaxon Ahmadalievna**

**Toshkent davlat agrar universiteti. Psixolog, Gumanitar fanlar kafedrasii  
assistenti**

### **Annotatsiya.**

Bugungi kunda pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, his-tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'lishiga erishiladi.

### **Абстрактный.**

Сегодня воспитание считается главным вопросом педагогики. В процессе воспитания формируются ум и чувства ребенка. Наиболее важным является формирование поведенческих привычек, необходимых для общественной жизни и обслуживающих общественные отношения.

### **Abstract.**

Today, the main issue of pedagogy is upbringing. Child's mind and emotions are formed in the process of upbringing. More importantly, it is possible to create behavioral habits that are essential to social life and serve social relations.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar tarbiyasi, etika-estetika, madaniyat, ong, tafakkur, negativ ta'sirlar.

**Ключевые слова:** воспитание молодежи, этико-эстетика, культура, сознание, мышление, негативные воздействия.

**Key words:** youth education, ethical and aesthetics, culture, consciousness, thinking, negative influences.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan dastlabki kundan boshlab fan, ta'lim va tarbiya mazmuniga alohida e'tibor qaratildi. Mustaqilligimizning yigirma ikki yillik tarixida erishilgan yutuqlar yoshlarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni avaylash, ularda voqealarning hodisa sifatida namoyon bo'lishi emas, balki madaniy, axloqiy, estetik mohiyatini chuqur anglash malakalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda bu jarayon ong, madaniyat, amaliyot shakllari bo'lmish etika, estetika, dinshunoslik va psixologiya fanining metodologik asoslari hamda ilmiy mazmunini milliy va umuminsoniy tamoyillar bilan mushtarakligini ta'minlashni talab etadi. Psixologiya fanlarining o'qitilishini takomillashtirish, ijodiy izlanish, ta'lim jarayonida talabalarning fikrlash faoliyati va shaxsiy sifatlarini, amaliy faolligini oshirish,



o'qitishni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilish, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas. Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor".1

Xalq ta'limi sohasidagi islohotlar mustaqil O'zbekistonimizning bugungi va ertangi kunini ta'minlaydigan pedagogik kadrlarni jahon standartlari talabiga javob beradigan tarzda tarbiyalash ko'p jihatdan uni qanday o'qitishga, kim o'qitishga bog'liqdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" ining qabul qilinishi, ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etish orqali ta'lim sohasiga hamda yoshlarimizga katta e'tibor va ma'suliyat bilan qarayotganligini ko'rsatmoqda.

Kasb tanlash, kasbga nisbatan ijobiy ongli munosabatni shakllantirish va ularni maqsadga yo'naltirish, kasblar ichida eng olijanob, mo'tabar hisoblangan pedagogik faoliyat va unga xos bo'lgan xususiyatlarni shakllantirishda psixologning o'rni beqiyosdir.

Talabalarning kasb egasi qilib tayyorlash, kasbga nisbatan mehr-muhabbatini uyg'otish, mohir kasb egasi qilib tarbiyalash, o'ziga nisbatan psixologik xolatini xis qilishga va atrofida tilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatish, yangi innovatsion muhitga moslashtirish, yoshlarni faol, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish biz pedagoglardan katta ma'suliyat bilan yondoshishlikni taqozo qiladi.

Hozirgi kunda millat va yoshlar ma'naviyatiga xavf solayotgan tahdidlardan biri ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat XX asr o'rtalarida shakllangan fenomen bo'lib, unga qisqaroq va tushunarliroq qilib ta'rif beradigan bo'lsak, ommaviy madaniyat-bizga chetdan kirib kelayotgan milliy va diniy qarashlarimizga yot ma'naviy va axloqiy illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisidir.

Yetakchi G'arb mamlakatlarida estetik va ma'naviy-madaniy ehtiyojlari nisbatan tor odamga mo'ljallangan ijodiy asar yoki buyumlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish tadbirkorlikning bir turiga aylangan. Ommaviy madaniyat bozor bilan



bevosita bog'liq bo'lib, uning qonunlariga muvofiq doimo foyda keltirishi kerak. Shunga ko'ra ommaviy madaniyat ko'rinishidagi ijodiy asarlar (kino, musiqa, moda) axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini targ'ib qiladi. Bu g'oyalar millatimizga, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Ommaviy madaniyat insonlarning madaniy va estetik talablari saviyasini pasaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarda insoniylik tamoyilini buzadi.

Ommaviy madaniyat xalqning eng katta boyligi bo'lgan yoshlarni o'ziga qaratib, ularni ma'naviy va madaniy qarashlarini mensimaslikka undaydi. Bundan tashqari yoshlarni yengil hayotga chaqirib, mas'uliyatsiz ruhda voyaga yetishiga sababchi bo'ladi. Xususan, ommaviy madaniyat yoshlar ongida teleserial yoki videofilmidagi bosh qahramonlarning ichishi, chekishi, mushtimzo'rliqi, axloqiy me'yorlarni mensimasligi bilan o'ta salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ommaviy madaniyatni targ'ib qilayotganlar hayotga bir marta kelasan bu hayotda xohlaganingcha yasha, qiyinchiliklarga qo'l silta, biz bilan bo'l baxtli bo'lasan deb da'vat qiladiyu, ular hayotda barcha ishlarni qilish mumkin, imkon topsang bas deb uqtirishadi. Albatta insonning nafsiga yengillik, xohlagan ishini qilish yoqadi. Ko'plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi ham shunda. So'ngi paytlarda yurtimizga chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi natijasida nafaqat yangiliklardan xabardor bo'layapmiz, balki ularda yashiringan, mentalitetimiz, qadriyatlarimizga zid g'oyalarga ham duch kelayapmiz. "Ommaviy madaniyat" san'atimizga, kiyinish madaniyatimizga, tarbiyamizga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari ommaviy madaniyatni jadallashtirmoqda. Bu niqob ostida ahloqiy buzqlik, fahsh, zo'rlik g'oyalarini tarqatish, boshqa xalqlarning asrlar davomida sayqal topib kelayotgan milliy an'ana va qadriyatlariga hurmatsizlik, bepisandlik, ularni yo'q qilishga qaratilgan tahdidlar har qanday ma'naviyati to'kis kishini tashvishga solmay qo'ymaydi.

Bugungi dunyoning ma'naviy qiyofasiga nazar tashlasak ahloqsizlikni, madaniyatsizlikni, ma'naviyatsizlikni erkinlik deb bilish, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar ma'naviy hayotga, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda.

Mana shunday holatlar haqida so'z ketganda yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida "Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli", degan fikrlari har bir fuqaro tushunib yetishi kerak bo'lgan asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Zero, axborot asrida, rivojlanish jarayonlarida atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning foydali va zararli tomonlarini tez ilg'ay olish, tahlil qilish, ogoh



bo'lish, bu haqda to'g'ri xulosa chiqarish orqaligina ma'naviy qaramlikning oldini olishga erishishimiz mumkin.

“Ommaviy madaniyat” ta'siri ostida turli kompyuter o'yinlari, fantastik, qotillik, maishiy buzuvchi oshkora targ'ib qiluvchi filmlar, ishqiy fahsh ishlarining batafsil tafsilotlari, shahvoniy kliplar ham kirib kelmoqdaki, bularga befarq bo'lish aslo mumkin emas.

Eng yomoni, bunday hurujlar hayotning barcha jabhalariga nafaqat yoshlarimiz ongiga ta'sir ko'rsatishga urinmoqda. Bunday tahdid va hurujlarning asl mohiyati, ularning g'arazli maqsadlari, namoyon bo'lish shakllarini o'zimizga aniq tasavvur qilib, bu borada nafaqat himoyalani, ayni paytda bunga qarshi kurashish usullarini puxta egallashimiz kerak.

“Ommaviy madaniyat”ga, turli tahdidlarga qarshi kurashishda, avvalo oilada ma'naviy tarbiyaviy muhit muhim o'rin tutadi. Ma'naviy tarbiya oilada, so'ngra esa mahallada shakllantira olinsa, bunda hech qanday ma'naviy bo'shliqqa joy qolmaydi.

Internet, turli xil reklama, kinolar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli xalqlar urf-odatlarini bizning qadriyatlarimiz bilan qarishib ketish ehtimolini kuchaytirmoqda.

Shunday ekan yoshlarimiz ularning qay jihatlari o'zlashtirish, qaysi biridan foydalanmaslikni yaxshi bilishlari lozim. Internet orqali axborot hurujlari va mafkuraviy tahdidlarning kirib kelishi ham “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'sirlaridan biri bo'lib, avvalo yoshlarning ongini egallashga yo'naltirilgan, ohanrabo singari ularni o'ziga rom etmoqda. Internet yoshlarimizning bilim salohiyatini oshirish bilan bir qatorda ongini zaharlovchi manba sifatida ham ta'sir o'tkazayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda milliylikka rahna soluvchi, ko'proq g'arbga xos bo'lgan pornografiyani targ'ib qiluvchi dasturlarning berilishi kuchaymoqda.

Afsuski, bugun yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtlarini internetklublarda o'tkazayotganligi, achinarlisi, turli illatlar, ahloqsizlik, behayollik, giyohvandlikni internet orqali kirib, bilib-bilmay ularning ta'siriga tushib qolayotganligi, turli behayollikni targ'ib qiluvchi saytlar yoshlarning ongini buzishga qaratilgan ahloqsizlik huruji ekanligi shubhasizdir. Ayrim yoshlarning g'arbmadaniyatiga taqlid qilib internet saytlariga o'zlarining har xil ko'rinishda tushgan suratlarini joylashtirayotganligi, qo'l telefonlariga behayollikni targ'ib qiluvchi fotosuratlar va videofilmlarni ko'chirib olayotganligini ko'rib, achinishni ham hovotirga tushishni ham bilmay qoladi kishi.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyoxvandlik, ahloqsizlik, ma'naviyatimiz, an'analarimizga yot bo'lgan “ommaviy madaniyat”dan, turli axborot hurujlaridan muhofaza qilish barcha huquq-tarti bot



idoralari singari shu yurtda yashayotgan har bir insonning burchi ekanligini anglab yetishimiz hamda zararli illatlarga qarshi kurashishning tashabbuskori, yetakchisiga aylanishimiz shartdir.

Bugungi butun dunyoda axborotlashuv va globallashuv jarayoni avj olgan paytda turli kurashlar ham tobora kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda hech bir xalkning milliy va ma'naviy an'anasi, odatlariga to'g'ri kelmaydigan turli "urf-odatlar" ko'paymoqda. Achinarli jihati shundaki, ko'pchilik, xususan ayrim yoshlar uning ta'siriga tushib qolmoqda. Bu narsa yoshlarimizning yurish-turishida, kiyinishida, o'zini tutishi-yu boshqalar bilan bo'ladigan suhbatlarida ko'zga tashlanadi.

Bunday yot g'oyalar esa bizning milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizga aslo to'g'ri kelmaydi. Turli nayrang va xatarlardan ogoh, sergak va hushyor bo'lishimiz lozim. So'nggi paytlarda ma'naviyatimizga zid bo'lgan turli g'arazli kuchlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlarimiz ongiga ta'sir o'tkazishga harakat qilmoqda.

"Ommaviy madaniyat" g'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni g'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda, "pop-kultura" (ya'ni "ommaviy madaniyat") deb atashadi. Garchi "madaniyat" deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra "ommaviy madaniyat" chinakam madaniyatning kushandasidir.

Albatta, bunday yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan ayrim yoshlar hayotga faqat bir tomonlama boqadigan, yengil hayotga intiluvchan bo'lib voyaga yetishadi.. Bu esa ularda buzg'unchilik, zo'ravonlik, faqat o'z manfaati uchun harakat qilish kabi illatlarni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, milliy an'ana hamda qadriyatlarni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Bugun yoshlarimiz o'ziga xos "tushunchalar urushi" sharoitida yashamoqdalar. "Ommaviy madaniyat" ota-bobolarimiz "qora" degan narsalarni "oq", "oq" degan narsalarini "qora" deb uqtirmoqda. Milliy-ma'naviy madaniyatimiz va diniy qadriyatlarimiz mazmun-mohiyatan juda go'zal. Bu milliy madaniyatimizdan begona ruhiyatda voyaga yetadigan yoshlar tabiiy ravishda turli yot kuchlar qurboniga aylanmoqdalar. Bizning milliy madaniyatimizda hayo, andisha, ibo kabi axloqiy fazilatlarga qat'iy ravishda amal qilinib kelinadi. "Ommaviy madaniyat" aynan milliy qadriyatimiz asosi bo'lgan hayo, andisha, oqibat, mehr-muhabbat kabi go'zal axloqiy qadriyatlarimizga qarshi bo'lgan axloqsizlik va yovuzlikni o'zida aks ettirgan harakatdir. Ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni "madaniyat" deb atalishi, yoinki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti"



deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Aslida xalqimizdan boshqalar o'rnak olsa arzigulikdir. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an'analar bilan almashtirish ongli insonga xos bo'lmagan odatdir.

Taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek shunday degan ekan: "O'zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog'ining boshida bo'lgan".

Donishmand xalqimizda "kasalni davolashdan ko'ra, uni oldini olgan ma'qul" degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan, yoshlarni noto'g'ri yo'lga kirib ketgandan so'ng uni qaytarishdan ko'ra, o'sha yo'lga kirishidan oldin asrab qolish kerak degan xulosa chiqadi. Ya'ni, yoshlarning ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ularni foydali mashg'ulotlarga, ilmiy to'garaklarga jalb qilish, sport bilan shug'ullanishi uchun zamin yaratish, yaxshiliklar qilishga o'rgatish, muhimi o'zligini tanitish va saqlab qolish ana shunday illatlaru buzg'unchi g'oyalardan yiroq bo'lishini ta'minlaydi.

Biz asli kimmiz, kimning farzandlarimiz, kimning avlodimiz, ajdodlarimiz qanday buyuk insonlar bo'lishgan... bularning barchasini har bir o'g'il-qizlarning ongiga singishi lozimki, biz o'zgalarning madaniyatiga qiziqmaylik, aksincha ular bizning odob-axloqimizni o'rgansinlar!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.: Ma'naviyat, 2008.-B.125-126.
2. Pedagogika. S.P.Baranov, L.R.Bolotina, V.A.Slastenin. Toshkent "O'qituvchi" 1990 y.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz. T.: «Uzbekiston», 2001.





## Проблема внутреннего контроля в органах Федерального Казначейства

Шавкатжонов Мардон – студент Ташкентского Финансового Института

**Научный руководитель:** Ташмухаммедова Дилдора Аскарбековна, доцент кафедры «Бюджетный учет и казначейское дело», Ташкентского Финансового Института

**Аннотация:** В статье рассматривается проблемы внутреннего контроля в органах Федерального Казначейства и предлагается необходимые меры для ее устранения и совершенствования.

**Ключевые слова:** внутренний контроль, административный контроль, финансовый контроль, технический контроль, минимизация риска, повышение квалификации.

Несмотря на то, что казначейская система существует в России уже на протяжении долгих лет, проблемы, возникающие в ходе исполнения государственного бюджета, не теряют своей остроты и остаются актуальными. Для эффективной реализации своих функций Казначейству необходимо формирование целостности исполнения бюджета и проработка теоретических и методологических вопросов самого механизма. Внутренний контроль Федерального Казначейства можно охарактеризовать как упорядоченный процесс контроля, направленный на повышение эффективности управленческих и функциональных действий, внутри Федерального Казначейства и его территориальных органах, для получения положительных результатов работы.

Основными видами внутреннего контроля в области Федерального Казначейства являются:

- административный контроль, это проверка решений или действий, установленных внутренними правилами или иными нормативно - правовыми актами.
- финансовый контроль, направлен на проверку внутренних проводимых операций и отражения их в финансовой документации.
- технический контроль, касается соблюдения процессов и правил ведения процедур при исполнении операций.



На наш взгляд, необходимо создание такой системы контроля, где все составляющие ее элементы хорошо согласованы. Должны проводиться такие контрольные мероприятия, результаты которых приведут к наиболее эффективной деятельности. Существуют два направления осуществления внутреннего контроля в органах Федерального Казначейства. В первом случае это исполнение контроля в отделениях Федерального казначейства и в подразделениях управления, во втором - осуществление контроля управления Федерального Казначейства в его территориальных отделениях.

В первом варианте предлагается усилить контроль при принятии необходимых документов от получателей средств. Данная операция нуждается в качественном мониторинге со стороны сотрудников Федерального Казначейства или начальника данного отдела. Для снижения нарушений и меньшего риска ошибок, должны использовать современные информационные технологии. Благодаря чему будет возможность повысить уровень прозрачности и эффективности работы. Кроме этого, должны проводиться более частые и периодические мероприятия внутреннего контроля. Например, технологический контроль включает в себя проверку документов в день их принятия. Для проверки отделений Федерального Казначейства используются тематический и комплексный подход.

В основе комплексного подхода лежит исполнение всех видов функциональной деятельности отделений, а именно: правила работы с персоналом; учет операций по кассовым поступлениям; использование средств из бюджета, выделенных для улучшения функциональной деятельности Федерального Казначейства; исполнение расходов федерального бюджета. Тематический подход заключается в проведении проверки по единому виду деятельности Федерального Казначейства.

Для улучшения степени проведения внутреннего контроля в органах Федерального Казначейства предлагается следующее:

- повысить уровень проводимых контрольных мероприятий. Необходимость проведения периодических заседаний с обсуждением результатов деятельности, а также выработка тактики с целью минимизации риска нарушений и ошибок в работе;
- изменение нормативной базы, в основе которой должны применяться комплексный и тематический подход;
- использование современных технологических программ, ведь качество контроля в нынешнее время во многом зависит от их познания;



- привлекать к работе более квалифицированных сотрудников, обладающих необходимыми навыками и профессиональной компетентностью;
- основание более современной библиотеки, необходимой для решения многих профессиональных вопросов;
- проводить совещания касающиеся проблем и успехов в деятельности, а так же проводить их анализ на будущее;
- уделять должное внимание сотрудникам отдела и отправлять их на повышение квалификации. И проверять их на наличие знаний.

Повышая эффективность и результативность казначейской системы, государство положительно повлияет на национальных предпринимателей. Характеристики прозрачности, иерархичности, упорядоченности, целенаправленности, свойственные казначейской системе, являются элементами современной бизнес-модели. Переход казначейских органов к активной роли исполнения бюджета, включая ассигнования широкого функционала, отражает осуществляющиеся процессы реформирования бюджета и окончательный переход к программному бюджету.

#### **Список литературы:**

- Богославцева Л.В. Бухгалтерский учет бюджетных и некоммерческих организаций / Стратегические цели развития казначейства: объективная необходимость, преимущества и проблемы их реализации – Москва: ООО “Издательский дом Финансы и Кредит”, 2013. – С. 33-41.
- Солодовников А.Г. Бухгалтерский учет бюджетных и некоммерческих организаций / Технологическая регламентация рабочих процессов в органах Федерального Казначейства, Проблемы и Перспективы – Москва: ООО “Издательский дом Финансы и Кредит”, 2009. – С. 32-35.
- Федорова А. Ю. Социально экономические явления и процессы / Казначейский контроль: проблемы и перспективы развития – Тамбов: Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина, 2011. – С. 195-205.



## Aleksandr Sergeyvich Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy-romanida Tatyana va Olga obrazi.

*FarDU O‘zbek aabiyotshunosligi 2-kurs magistranti Abdumalikova Dilnavoz*

**Annotatsiya:** Maqolada, rus adabiyoti durdonasi hisoblangan, Pushkin qalamiga mansub, “Yevgeniy Onegin” she’riy-romani, uning obrazlar tizimi, asardagi bosh obraz bo‘lgan opa-singillar Tatyana va Olga Larinalarning harakter xususiyatlari, bir xil sharoit, bir xil muhitda tarbiya topganiga qaramasdan o‘zaro butkul farq qiladigan jihatlari, shuningdek ayrim birlashtiruvchi tomonlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** She’riy-roman, muallif, obraz, burjua, ideal, Tatyana, Olga, Yevgeniy Onegin, Lenskiy, mengzamoq, tasvir, konflikt, personaj, detal.

Rus adabiyoti durdonasi bo‘lgan V. Belinskiy ta’biri bilan aytganda “...rus adabiyotining ensiklopediyasi” bo‘lgan shoh asar “Yevgeniy Onegin” she’riy romanida ham ikki xil tabiatli opa va singil obraziga to‘xtalib o‘tilgan. Bular Tatyana va Olga obrazlari hisoblanadi. Asarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, muallifning o‘zi ham Tatyana va Olganing tashqi ko‘rinishi, qolaversa, harakterlarini juda ko‘p o‘rinlarda taqqoslab o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Misol tariqasida, quyida shoir tomonidan Olgaga berilgan ta’rifga diqqat qilamiz:

“Olga har vaqt kamtar, har vaqt adabli,

Hamisha tong kabi edi u quvnoq.

Sof dili shoirning umri singari

Sevgi bosasidek dilbr, isinchoq,

Ko‘zlari osmondek tiniq zangori

Uning tabassumi, sarg‘ish kokili

Raftori, tovushi va yengil qomat

Bezardi Olgani...”<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan misralardan ma’lum bo‘lganidek, shoir tomonidan Olga juda go‘zal qiz sifatida tasvirlanadi, buni muallif har tomonlama ta’kidlab o‘tadi. Olganing moviy rang ko‘zlari, sarqi sochlari, chiroyli tabassumi va yoqimli ovozi haqida gapiradi. Shuning bilan birgalikda u Tatyana dan kichik bo‘lsa-da zodagonlar jamiyatida o‘z o‘rnini topishga ulgurgan, burjua qoidalariga tamoman bo‘ysunadigan, itoatkor, odobli va har mahal quvnoq yuruvchi sohibjamol tarzida tasvirlanadi.

<sup>1</sup> A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G‘.G‘.Toshkent-2019.41-bet



Endi Olganing opasi bo'lgan, she'riy-romanning bosh obrazlarida biri sanaluvchi Tatyana ga yuzlanamiz:

“Demak uning ismi Tatyana edi  
Na u singlisining go'zalligi-la  
Yuzining qip-qizil olmaday rangi  
Bilan u ko'zlarni tortmas balki-da  
U kamso'z, yovvayi, yuzlari dardli,  
Hurkakdi o'rmonning kiyigi kabi  
O'zining tug'ishgan oilasiga,  
Ko'rinar yod qizcha kabi Tatyana...  
Bilmasdi u sira erkalanishni  
Na otasigayu, na onasiga;”<sup>2</sup>

Tatyana Olga kabi sohibjamol emas, qizil olmadek yuzi, qolaversa, ko'zalarni o'ziga tortadigan darajada yoqlimli surati ham yo'q. Buning ustiga Tatyana juda kam gapiradigan, yovvoyi, yuzlari dardga to'la, na otasiga, na onasiga erkalanishni bilmaydigan, o'z oilasi uchun ham begonadek bir qiz. Bolaligidanoq hammadan ajralib turgan, boshqa bolalar singari o'yin o'ynashni, yugurib-chopishni yoqtimagan. Doimiy qiladigan mashg'uloti esa, deraza oldida jimgina tashqarini kuzatib o'tirish.

Olga go'zal tomondan qanday ulug'langan bo'lsa, xulq-atvor tomondan shunchalik sayoz va yengil tabiat qiz sifatida tasvirlanadi. Buni Lenskiy bilan boshda o'tkazgan sevgi hikoyasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shoir bilan bolaligidanoq unashirilgan qizning, qallig'ining do'sti bo'lgan Onegin bilan o'ylamay tushgan valslari, noz-karashmasi yosh Lenskiyning o'limiga sababchi bo'ladi. Sevgilisining fojeaviy o'limidan so'ng Olga uzoq vaqt g'am-alam chakib o'tirmasdan boshqa bir yigitga, harbiy generalga turmushga chiqadi. Lenskiyning o'limi va bunga Olganing munosabati haqida quyidagi satrlarni misol tariqasida keltirishni lozim topdik :

“Bechora Lenskiy! Biroz vaqt olga  
Ichidan ingradi, yig'ladi piq-piq.  
Hayhot yosh qalliqlar o'z qayg'usiga  
Bo'la olmas ekan uzoq vaqt sodiq!  
Boshqasi jalb etdi uning diqqatin,  
Boshqasi bu qizning dard-u hasratin –  
Sevgi, hushomad-la yupatdi, tamom  
Bu harbiy odamdi xullasi kalom,

<sup>2</sup> A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G'.G'.Toshkent-2019.42-bet



Jalb etdi Olganing muhabbatini,  
Mana qiz u bilan mehrob qoshida,  
Turardi jimgina, gultoj boshida.”<sup>3</sup>

Yuqoridagi misoldan ma’lum bo’lganidek, Olga o’zgaruvchan tabiatli, hech narsaga uzoq vaqt muhabbat qo’ya olmaydigan, qo’yingki, o’sha zamon romanlarining barcha bosh qahramonlari kabi yengiltak harakterga ega bo’lgan bir qiz. Shuning uchun ham muallif, bunday obrazdan “o’lgudek zarikkan”ini yashirib o’tirmaydi.

“Har qanday romanni olsangiz, unda  
Toparsiz rasmini, ko’p yoqimli u,  
Ilgari o’zim ham sevgan edim-ku  
Ammo zerikkanman undan o’lguncha”<sup>4</sup>

Shuncha go’zalligiga qaramasdan Pushkin Olgani “...chehrasida hech qanday hayot yo’q Vadika Madonnasiga”, “yovvoyi” tarzida tasvirlangan Tatyani esa Jukovskiy she’rining bosh qahramoni bo’lgan Svetlana ismli hassos, xayolchan va romantik qizga qiyoslaydi.

Muallif Tatyana obraziga o’zi orzu qilgan ayol idealini joylaydi. Yoshligidan romanlar o’qishni yaxshi ko’radigan, afsonaviy ramzlarga ishonadigan, muhabbatga abadiy sodiq bo’lgan, mavjud hukmron tuzumdan nafratlanadigan, faqat enagasi bilangina sirlasha oladigan va mana shu enagasi qo’lida tarbiya topgan g’ayrioddiy qiz edi. Uning singlisi Olga bilan farqli jihati, ayniqsa, muhabbat haqidagi qarashlarida yaqqol ko’zga tashlanadi:

“Mudhish yolg’izlikda kuchliroq yonar  
Tatyana ko’ksida sevgi otashi  
Onegin uzoqda, lekin zo’rayar  
Qizning yuragida sog’inch, qo’msashi”<sup>5</sup>

Olga halok bo’lgan sevgisiga qanchalik bee’tibor bo’lgan bo’lsa, Tatyana javobsiz bo’lgan muhabbatiga ham hamisha sodiq. Buni Tatyananing o’zi ham Onegin oldida tan oladi, lekin shu bilan birga u turmush o’rtog’iga hech qachon xiyonat qilmasligini aytib, o’zining qanchalik sodiq rafiqqa ekanligini ham isbot etadi.

She’riy-romanning ayrim o’rinlarida Tatyananing tarbiyasi qanchalik go’zal ekanligini ham ko’rishimiz mumkin. Jumladan, Oneginiga yozgan maktubidan so’ng uni to’satdan uchratib qolganda hijolatda o’zini o’rmonzorga urishidan, Onegin uning

<sup>3 3</sup> A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G’.G’.Toshkent-2019.134-bet

<sup>4</sup> A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G’.G’.Toshkent-2019.41-bet

<sup>5</sup> A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G’.G’.Toshkent-2019.136-bet



oldiga kelib, yozgan xatiga javoban muhabbatini rad etganida ham bir og'iz so'z aytmasdan, boshini quyi solib barcha gaplarini churq etmasdan tinglashidan, otanasining so'zidan chiqmay o'ziga loyiq ko'rilgan insonga turmushga chiqishidan va sevgan insoni uni oldiga kelgani, muhabbatini bir yoqqa surib, turmush o'rtog'iga sodiq qolishidan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tatyana qanchalik g'ayrioddiy bo'lmasin o'quvchining qalbidan joy oladi. Pushkinning o'zi ham Tatyani hamisha avaylab "Tatyanam" deb atashi, Svetlanaga mengzashi bekorga emas, albatta.

Tatyana va Olganing o'xshash tomonlari esa, avvalo, ularning opa-singilliklarida, bir oilada va bir muhitda tarbiy ko'rganliklarida shu bilan birga ikkalasi ham yosh zodagon honimlar ekanligida edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin. G'.G'. Toshkent-2019.
2. Хатамов Н, Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-узбекча лугати. -Тошкент, 1979.
3. Иззат Султон. Адабиётшунослик назарияси.- Тошкент, 1986.
4. DilmurodQuronov. Adabiyotshunoslikkikirish. -T.2008.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Тошкент: Узбекистан, 2002.



## SANOATDA SULFAT KISLOTA ISHLAB CHIQRISH VA UNUMDORLIGINI OSHIRISH

Po'latova Nodira Baxriddin qizi  
Termiz muhandislik texnologiya inistuti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sulfat kislota ishlab chiqarishning usullari va foiz unimdorligini oshirish, sanoatdagi ahamiyati haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar;** FeS<sub>2</sub> temir sulfid, PbS qo'rg'oshin sulfid, CuS mis sulfid, SO<sub>2</sub> oltingugurt (IV) oksidi, H<sub>2</sub>S vodorod sulfid


### Kirish.

Kimyo sanoat uchun muhim bo'lgan anorganik birikmalardan biri sulfat kislota dir. Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarish uchun xomashyolar: sof oltingugurt - S, pirit-FeS<sub>2</sub>, rangli metallarning sulfidlari-PbS, CuS, vodorod sulfid-H<sub>2</sub>S.


### Asosiy qism

Kontak usulda sulfat kislota ishlab chiqarish jarayonini 3 bosqichga bo'lamiz:

I) Piritni kislorod ishtirokida kuydirib oltingugurt (IV) oksidi olish



II) Oltingugurt (IV) oksidini katalizator ishtirokida oksidlab oltingugurt (VI) oksidi olinadi.



III) Adsorbentiyalar bosqichi hisoblanadi.



O'zbekistonda FeS<sub>2</sub> rudasi mavjud bo'lmaganligi sababli Cu; Zn; Pb va boshqa metallarni ajratib olish jarayonida SO<sub>2</sub> olamiz va bu oksidlar to'g'ridan to'g'ri H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>






ishlab chiqarishga yuboriladi. S homashyosi o'zbekiston hududida neft tarkibida H<sub>2</sub>S ko'rinishida va tabiiy gaz konlarida SO<sub>2</sub> holida uchraydi.

Absorbtsiya – gaz moddalarning suyuqlikka yutilish jarayoni hisoblanadi.

Adsorbtsiya - qattiq moddalarning yuzasiga gaz moddalarning yutilishi.




H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ga yuttirish natijasida birinchi oltingugurt (VI) oksidi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> tarkibidagi suv bilan reaksiyaga kirishadi suvning massasi tugagandan so'ng H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> o'zi SO<sub>3</sub> ni yuta boshlaydi va natijada oleum hosil bo'la.

Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarishda 2 xil V<sub>2</sub>O<sub>5</sub> li katalizator ishlatiladi.

1) B.A.V- Bariy alyuminiy vanadat.



2) S.V.D- Sulfovanadiy diatomli.



Hozirgi vaqtda sulfat kislota kimyo sanoatining ko'pchilik texnologiyalarida keng qo'llaniladi, natijada oraliq va sarflangan sulfat kislota eritmaları hosil bo'ladi. Ko'pgina hollarda, sulfat kislota qayta tiklash yoki undan foydalanish uchun ushbu eritmaları qayta ishlash kerak bo'ladi. Sanoatda ko'p yillik amaliyotlar davomida, turli xil sharoitlarda hosil bo'lgan sulfat kislota eritmalarini qayta tiklashning bir nechta



usullari amalga oshirilgan. Ushbu maqolada “Navoiyazot” AJ kaustik soda ishlab chiqarish majmuasida ishlatilgan ikkilamchi sulfat kislotaning tarkibini va uni tozalash jarayonini ko‘rib chiqamiz. “Navoiyazot” AJ kaustik soda ishlab chiqarish majmuasida, osh tuzi eritmasini elektroliz qilish natijasida hosil bo‘lgan xlor gazini namligini ushlab qolish uchun 98% li sulfat kislotada eritmasidan foydalaniladi. Natijada sulfat kislotada jarayondagi namlikni oladi va qisman xlor bilan to‘yinib, konsentratsiyasi 73-75% gacha kamayadi. Hosil bo‘lgan ikkilamchi sulfat kislotaning konsentratsiyasini bug‘latish yo‘li bilan oshirishga erishildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikkilamchi sulfat kislotada konsentratsiyasi 82,91% gacha yetkazildi va tarkibidagi xlor miqdori 85,36% gacha kamaydi. Bu esa texnologik jarayonda hosil bo‘lgan ishlatilgan ikkilamchi sulfat kislotadan foydalanish sohasini kengaytiradi.

Olmalidagi “Ammofos-Maksam” kimyo zavodi 2019 yilning oxirigacha sulfat kislotada ishlab chiqaruvchi yangi korxonada qurilishini oxirigacha yetkazishni rejalashtirmoqda, deb ma'lum qildi korxonadagi manba Sputnik muxbiriga.

Manbaning aytishicha, zavod bu loyihani amalga oshirish uchun uchta yirik xorijiy kompaniya: Germaniyaning LRC, Italiyaning Desmet Ballestra va Finlyandiyaning Outotec kompaniyasi bilan hamfikrlik kelishuvini imzoladi.

Loyihaning dastlabki qiymati 105 mln dollarni tashkil qiladi, undan 60 mln dollari xorijiy investorlar tomonidan ajratiladi. 2016 yilning 1-choragida xorijiy kompaniyalar loyihaning texnologik tashkil etuvchisi va qiymati bo‘yicha takliflarini taqdim qiladilar.

Yangi korxonaning quvvati yiliga 650 ming tonna sulfat kislotani tashkil qiladi. Bu korxonaning ishga tushirilishi bugungi kunda eskirib qolgan, 1981 yilda qurilgan amaldagi majmuani foydalanishdan chiqarishga imkon beradi. 2008 yilda “Ammofos-Maksam” zavodining 49 foiz aksiyasi Ispaniyaning Maxam Corp kompaniyasi tomonidan sotib olingan, u zavodning modernizatsiyasi uchun kamida 30 mln dollar investitsiya qilishni o‘z zimmasiga olgan. Zavod mahsulotining asosiy importchilari Xitoy, Eron, Afg‘oniston va Tojikiston hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1) Gabrielyan O.S. Kimyo. 9-sinf: darslik. umumiy ta'lim uchun muassasalar / O.S. Gabrielyan. - 14-nashr, Rev. - M. : Bustard, 2008. - 270, s. : kasal. Gabrielyan O.S. Stol kitob o'qituvchilar.

2) Kimyo. 9-sinf / O.S. Gabrielyan, I.G. Ostroumov. – M.: Bustard, 2002. – 400 b. Glinka N.L. umumiy kimyo: Qo'llanma universitetlar uchun / Ed. A.I. Ermakov. - tahrir. 30-chi, qayta ko'rib chiqilgan - M. : Integral-Press, 2008. - 728 p. Gorkovenko M.Yu. Kimyo.





3) 9-sinf O.S. uchun dars ishlanmalari. Gabrielyan (M.: Bustard); L.S. Guzeyva va boshqalar (M.: Bustard); G.E. Rudzitis, F.G. Feldman (M.: Ma'rifat). – M.: “VAKO”, 2004, 368 b. - (Maktab o'qituvchisiga yordam berish uchun). Kimyo. - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. / ed. kollegiya: M. Aksenoiv, I. Leenson, S. Martynova .



## ТАБИБЛАР САРВАРИ

Назаров Расулбек “ADVOCATE TEAM” адвокатлик фирмаси адвокат  
ёрдамчиси

### Аннотация

Ушбу мақолада Юртимизнинг суюкли Фарзанди табобат илмининг етук дарғаларидан бири Абу Али Ибн Синонинг ҳаёти ва фаолияти тарихий манбалар асосида илмий асослаб берилган.

**Калит сўзлари:** *Абу Али Ибн Сино, Хурмансай, Афшона, табобат, 242 асар, Фалсафа риёзиёт мусиқа, адабиёт фикҳ мантиқ, Гургон, Рай, Исфохон, Ҳамадон*

Ўзбек халқи ўзининг бой тарихи, буюк алломалари билан шуҳрат қозонган. Йирик математик олим Муҳаммад ал Хоразмий, беқиёс файласуф Абу Наср Фаробий, етук ҳадис илмининг султони имом Ал Бухорий, Имом Мотурудий, Абу-л-Муъин ан Насафий шулар жумласидандир. Уларнинг қаторига тарихимизда ўчмас из қолдирган яна бир алломаимиз Абу Али Ибн Синони ҳам қўшиш мумкин.

Алломининг тўлиқ исми Абу Али Ҳусайн Ибн Абдуллоҳ Ибн Али бўлиб, 980 йилда Бухоро воҳаси Хармансай (Ромитан) туманидаги Афшона қишлоғида таваллуд топган. Ҳусайннинг отаси Абдуллоҳ исмли шахс бўлиб Сомонийларнинг давлат хизматчиси бўлган. 985 йилда Ҳусайнлар оиласи Бухоро шаҳрига кўчиб келишгач, бу ерда Ибн Сино илм уммонига шўнғиган.

Ўз даврининг етук олимлари Абу Абдулоҳ Нотилий ва Исмоил Зоҳидлардан фикҳ, фалсафа, мантиқ ва риёзиёт илмларини ўрганган. Ҳусайн 10 ёшидаёқ Қуръони каримни ёддан билган, сарфу навҳ ва адаб илмини пухта ўрганган, Бу ҳақда унинг ўзи таржимаи ҳолида шундай ёзган “ Ўша кезларда мен бирор кечаниг ҳам охиргача ухлამас, кундузлари ҳам илмдан бошқа нарса билан шуғуланмас эдим”.<sup>1</sup>

Кейинчалик унда тиббиёт илмига ҳам қизиқиш пайдо бўлган. Қисқа вақт ичида бу соҳани ҳам пухта эгаллаб олган. Олим тиббиёт илмини шу даражада билганки ҳатто ўша даврнинг йирик олимлари ҳам ундан сабоқ олишган. Алломанинг тиббиётга қўшган улкан ҳиссаси учун Фарбда “Авиценна” номи билан улуғланган.



999 йилда Сомонийлар давлати кулаб, мамлакатда Қорахонийлар хукмронлиги ўрнатилгач, Ибн Сино Хоразмга кўчиб ўтишга мажбур бўлиб. бу ерда етук олимлар Ибн Ироқ, Абу Райхон Беруний, Абул Хайр Хаммор, Масахий каби олимлар билан яқиндан танишган. Афсуски, Ҳусайн Хоразмда ҳам узоқ тура олмаган. Тез орада Урганчга Маҳмуд Ғазнавийнинг хуружи бошланиб, бу ўлка Ғазнавийлар давлати таркибига кирган. Олим бу сафар Эронга йўл олиб, Гургон, Исфаҳон, Рай, шаҳарларда яшаган. ва 1037 йилда Ҳамадон шаҳрида вафот этган.

Буюк аллома ўзининг 57 йиллик қисқа умри давомида ўзидан жаҳоншумул бой илмий мерос қолдирган. Манбаларга кўра, Ибн Сино 450 та асар ёзган бўлиб, афсуски улардан бор йўғи 242 таси бизгача етиб келган. Ушбу асарларни мазмун жиҳатдан қуйидагича тақсимлаш мумкин: 80 таси фалсафа, илоҳиёт ва тасаввуфга, 43 таси табобатга, 23 таси тиббиёт илмига, 9 таси этикага, 4 таси филологияга, 8 таси бошқа олимлар билан бўлган ёзишмаларга бағишланган<sup>2</sup>

Ибн Сино араб, форс ва юнон олимларининг китобларини ўрганиб, уларга ижодий ёндашди. Унинг асарларида Платон, Евклид, Фалес, Гиппократ, Сукрот каби олимларнинг асарлари билан ҳам хабардор бўлган ва ана шу асарларга таянган ҳолда, ўзининг тиббиёт ва табиат илмига бағишланган “Китоб аш шифо” (Шифо китоби), “Ал Қонун фи-т- тибб “, ( Тибб қонунлари) “Китоб ан-нажот”, (Нажот китоби) “Донишнома” (Билмлар китоби) каби илмий асарларини яратган.

Олимнинг фалсафага бағишланган энг йирик асари “ Аш Шифодир” ушбу асар 4 қисм 22 жилддан иборат ва унда мантиқ, метафизика, математикага оид масалалар батафсил ёритилган<sup>3</sup>

Аллома “Шайх ур раис”номи билан жаҳонга машҳур табиб сифатида танилган. Олимнинг шоҳ асари “Тибб Қонунлари” асари унга оламшумул шуҳрат келтирган. Мазкур асар 5 та китобдан иборат бўлиб, ҳар бир китобда тиббиётнинг маълум бир йўналишлари ёритилган.

Биринчи китобда тиббиётнинг назарий асослари, унинг предмети, вазифалари, усуллари касалликнинг келиб чиқиш сабаблари, белгилари, соғлиқни муҳофаза қилиш йўллари, инсон анатомиясига оид назариялар баён этилган

Иккинчи китоби оддий дориларига бағишланган бўлиб, ундаўсимликлардан тайёрланадган 760 хил дорининг хусусиятлари, тайёрланиш усуллари ҳақида муҳим маълумотлар келтирилган.



Учинчи китобда одамларнинг айрим аъзолари, жумладан бош мия, асаб, кўз, кулок, бурун, томоқ, қорин касалликлари ҳақида батафсил маълумот берилган.

Асарнинг тўртинчи китоби инсон организмнинг умумий касалликларига бағишланган. Унда иситмалар суяк синиши жарроҳлик масалалари, жароҳатланиш уларни даволаш ва юқумли касалликлар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Ниҳоят бешинчи китобда дориларнинг инсонга таъсири ва истемол қилиш усуллари айтиб ўтилган.

Мустақиллик шарофати билан кўплаб буюк аждодларимиз сингари Ибн Сино бобомизнинг ҳам меросига қизиқиш тобора кўпаймоқда. Етук аллома шарафига юртимиз шаҳарларида ҳайкаллар ўрнатилмоқда ва кўплаб асарлар чоп этилмоқда. 1999 йилда Ибн Сино жамғармаси ташкил этилди. 2003 йили ЮНЕСКО ташкилотининг 166- сессиясида “Халқаро Ибн Сино мукофоти” таъсис этилди. Буюк алломанинг бой мероси жаҳон миқёсида ўрганмхилмоқда

2020 йилнинг 7 апрелида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тиббий-санитария соҳасида кадрларни тайёрлаш ва узлуксиз касбий ривожлантиришнинг мутлақо янги тизимини жорий этиш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ мамлакатимиздаги 47 та тиббиёт коллежлари Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникумларига айлантирилди.

Хуллас, биз ёшлар буюк алломаларимиздан қолган меросни чуқур ўрганишимиз, уни янада бойитишимиз лозим. Зеро аждоларими илмий асарларини ўрганиш ёшлар учун энг муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

---

<sup>1</sup> Мен англаган дунё/ Абу Али ибн Сино.-Т:’ Sharq”.2015. Б.4

2 Буюк юрт алломалари/ У. Увватов-Т: “O’zbekiston”.2018. Б.67

3. шу асар. Б.68



## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЛЕЧЕНИЯ НПХТ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ IIб И III а,б СТАДИИ

Мансурова Шахсанамхан Нурмухаммадовна

Андижанский государственный медицинский институт Магистр  
общей онкологии, 3 курс

**Резюме:** Рак молочной железы является наиболее частой злокачественной опухолью у женщин. Распространена в мире неравномерно: самая высокая интенсивность заболевания (на 100 000 женщин) составляет 30-40% в Англии, Дании, Великобритании и странах Балтии, а самая низкая - 2-10% в Японии, Мексике и Средней Азии. Редко встречается у женщин в возрасте до 25-30 лет, но число заболеваний увеличивается у лиц старше этого возраста и достигает своего пика в возрасте 50-60 лет. Заболеваемость с каждым годом увеличивается во всех экономически развитых странах.

**Ключевые слова:** маммография, гормонотерапия, малогрудное вскармливание, генетическая предрасположенность, апитерапия, скрининговые центры.

Деятельность молочной железы напрямую связана с эндокринной системой, что можно увидеть во время менструации, беременности и лактации. Если животным длительное время вводят эстрогены, это приводит к усилению пролиферативных процессов эпителия молочной железы, развитию мастопатии и даже рака молочной железы. Наблюдения показывают, что вследствие дисфункции яичников у женщин увеличивается количество эстрогенов в моче, могут появляться разрастания эпителия и соединительной ткани молочной железы, атипичные клетки. Известно, что заболевание в основном наблюдается у женщин, нерожавших или имевших мало родов, перенесших многократные аборт, страдающих хроническими простудными заболеваниями яичников, у которых менструации начались до 13 лет и прекратились после 13 лет. 50, которые не кормили грудью своего ребенка. В настоящее время выявлена высокая заболеваемость раком молочной железы у женщин, матери или сестры которых имеют злокачественные опухоли молочной железы или женских половых органов. Заболеваемость возрастает у больных с опасным гипотиреозом, атеросклерозом, сахарным диабетом. Расстройства пищевого поведения также имеют определенное значение. Женщины, которые имеют избыточный вес и едят продукты с низким содержанием насыщенных жиров, витамина А и каротиноидов, также более склонны к развитию рака молочной железы. Предраковые заболевания молочной железы. Гормональные нарушения,



происходящие в женском организме, изначально приводят к появлению заболеваний, известных как мастопатия и фиброаденома. Мастопатия – одно из самых распространенных заболеваний молочных желез. Отличается от других длительным непрерывным избыточным разрастанием эпителия и соединительной ткани молочной железы, дисплазией и гиперплазией клеточных элементов. Мастопатия протекает в диффузной и узловой формах.

При подозрении на рак молочной железы проводят мазок, пальпацию, исследование обеих молочных желез методами УЗИ и маммографии, цитологическое исследование пунктата, полученного из опухоли, гистологические исследования с секторальной резекцией, при необходимости. Осмотр имеет большое значение для диагностики. Выявить канцерогенные факторы можно, задав вопросы о наличии заболеваний половых органов с молодого возраста, времени менструации, количестве беременностей и аборт, грудном вскармливании, применении гормональных препаратов и другие вопросы. Пальпация – очень важный метод. При сравнении обеих молочных желез, когда пациентка стоит прямо, с опущенной грудью и запрокинутой назад головой, молочные железы отличаются друг от друга, их форма изменилась, имеются уплотнения или впалые участки. Пальпаторно проверяют оба соска от кончика к основанию, при обнаружении узла между ними помещают два пальца. Если узелок при надавливании на грудную стенку ладонью удлинится и меняет форму, это повод назвать его раком.

Есть два пути раннего выявления рака: женщины должны регулярно проверять себя, и, конечно же, врачи должны тщательно проверять молочные железы, когда они обращаются в поликлинику с любым заболеванием. Женщина должна встать перед зеркалом раздетой до пояса для осмотра молочных желез. Сначала, стоя, он должен опустить грудь, а затем дождаться ее подъема, внимательно рассмотреть обе молочные железы в зеркале, а затем пропальпировать каждую молочную железу в отдельности. Женщинам старше 25-30 лет рекомендуется ежемесячно проверять молочные железы. При подозрении на рак молочной железы его следует дифференцировать с фиброаденомой, кистой (галактоцеле), хроническим маститом, узловой формой мастопатии и доброкачественными опухолями. Узловая форма фиброаденомы, кисты и мастопатии отличается от рака молочной железы отягощенностью кожных симптомов, тем, что опухоль на верхушке железы не смешивается с окружающими тканями, отягощением увеличенного лимфатического узла под культусом. Отличие хронического воспаления молочной железы от рака в том,





что точные границы рака размыты, а при пальпации очевидна твердость, лимфатические узлы не болят. В начальной стадии болезни Педжета ее следует отличать от экземы сосков, дерматита и эрозий, вызванных воспалением. Вышеуказанные заболевания в основном возникают у молодых кормящих женщин, соски не набухают и результаты лечения хорошие.

Лечение рака молочной железы является очень сложной проблемой. Варианты лечения включают хирургическое вмешательство, лучевую терапию, химиотерапию и гормональную терапию. Хирургический метод является основным компонентом лечения рака молочной железы (рис. 12). Наиболее часто применяемым хирургическим методом является радикальная мастэктомия по Холстеду-Мейеру. Во время операции этим методом полностью удаляют молочную железу, большую и малую грудные мышцы, ключицы, матку, ткани под лопатками и находящиеся в них лимфатические узлы. В последние годы многие онкологи не удаляют большую грудную мышцу (операция Паэти) при раке I и II стадии. Практический опыт показывает, что лучшие функциональные результаты дает мастэктомия по Петти, а по эффективности она не уступает операции Холстеда. При первой стадии рака молочной железы применяют органосохраняющую операцию — секторальную резекцию. После этой экономичной операции светотерапия обязательна. Светотерапию часто проводят в гамма-терапевтических аппаратах. В поле иррадиации обязательно входят молочная железа, ключица, нижняя часть туловища, верхняя часть туловища и сновидная часть. Обычно общая доза составляет 40-60 граммов из 2 граммов в сутки. В последние годы перед операцией больному дают всего 22-25 г по 4-5 г в сутки в течение 5 дней.

Ежегодно возрастает количество женщин, получающих химиотерапию на первом этапе лечения рака молочной железы. Это связано как с усовершенствованием методов диагностики, так и с расширением показаний для данного вида лечения. Согласно рекомендациям RUSSCO (Российского общества клинической онкологии), показаниями для проведения неoadьювантной (предоперационной) полихимиотерапии (НПХТ) у больных раком молочной железы являются местно-распространенный рак либо необходимость уменьшения размеров опухоли для проведения последующего органосохранного лечения при первично-операбельном раке. В то же время, частота благоприятного ответа на проводимое лечение широко варьирует не только в зависимости от подтипа опухоли, но и от ряда других, не всегда в полной мере изученных факторов. В 12 этой связи представляется актуальным изучение



точности методов оценки и прогнозирования эффективности НПХТ при раке молочной железы II-III ст.

**Использованная литература:**

1. Быкорез А. И. и др. «Экология и рак», Киев, 1985.
2. Ганичкин А. М. «Рак толстой кишки», Л., 1970.
3. Гранов А. М., Петровичей Н. Н. «Первичный рак печени», М., 1977.
4. Двойрин В. В., Аксель Е. М., Трапезников Н. Н. «Заболеваемость злокачественными новообразованиями и смертность от них населения стран СНГ». М., 1992, 1994, 1996.
5. Зедгенидзе Г. А., Алиев Б. М. «Лучевая терапия амбулаторных больных», Ташкент, 1988.
6. «Злокачественные новообразования в Республике Узбекистан» (статистический сборник), Ташкент, 1996.
7. «Иммунология» (учебник), М., 1987.
8. Линденбратен Л. Д. «Медицинская радиология» (учебник). М., 1969.
9. Manual of clinical oncology (International union against cancer — UICC), 1990



## SOG'LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI

Yamonqulov Sohib Sanjar o'g'li

Dadilov Doniyor Baxtiyor o'g'li

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi globallashuv jarayoniga xos psixologik xizmatni tashkil etish, sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash muammosi masalalarioritilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixolog, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос организации психологической службы в условиях современного процесса глобализации для обеспечения роста здорового человека.

**Ключевые слова:** психолог, социальная психология, психологическое консультирование, мировоззрение, прикладная психология, экономическая, политическая, правовая, идеологическая.

### ABSTRACT

This article addresses the issue of the organization of psychological services in today's globalization process to ensure the growth of a healthy person.

**Keywords:** Psychologist Social Psychology, Psychological Counseling, Worldview, Applied Psychology, Economic, Political, Legal,

### KIRISH

Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiiy va amaliy-uslubiy ishlari psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning



istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda muhim muammo bo'lib qolmoqda. Demak, tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun, O'zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish hga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning nihoyatda sust ekanligi; ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo'nalishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi -xodimlar muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rganish va kamol toptirish bilan bog'liq bugungi O'zbekistonning o'z istiqbol va istiqbol yo'li, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M. Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M.,Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Shoumarov G'.B., G'oziev E.G'.; Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, xuquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinchi yo'nalish- "psixologik ijtimoiy psixologiya" asoslari zahirida tarkib toptiriladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo'nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo'lmaydi. Zero, ijtimoiy



psixologiya fanining yana bir muhim yangi (shakl jihatdan yangi, mazmun jihatdan esa azaliy-kursiv bizniki) vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashning bugungi kungacha nechog'lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi.

Psixologik maxsus adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izoxlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi.

Taniqli ingliz psixologi Vil'yam Makdugallning 1908 yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o'laroq inson instinktlari va faoliyat uyg'unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo'lib xizmat qildi. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug'ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog'liq tashkil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi.

